

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 3-son

VOLUME 7 / ISSUE 3 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.3.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

TAHRIR HAY'ATI

I. RUSTAMBEKOV

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

B. XODJAYEV

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

O. CHORIYEV

Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i – mas'ul muharrir

A. SAIDOV

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor

EDVARD JUCHNIEWICZ

Polshaning Gdansk universiteti Huquq va boshqaruv fakulteti Moliyaviy huquq kafedrasida professori, huquq doktori

AMMAR YOUNAS

TDYU Biznes huquqi kafedrasida o'qituvchisi

O. OKYULOV

TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

J. NEMATOV

TDYU Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

M. AMINJONOVA

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

M. RAHIMOV

TDYU Mehnat huquqi kafedrasida dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

O. NARZULLAYEV

TDYU Ekologiya huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

B. MURODOV

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Tergov faoliyati kafedrasida boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

A. MUXAMEDJANOV

TDYU Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

N. NIYAZOVA

TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

правовой научно-практический журнал

REVIEW OF LAW SCIENCES

legal scientific-practical journal

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan. Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 **SODIKOV AKMAL SHAVKAT O'G'LI**
Norma ijodkorligi jarayonini takomillashtirish-
ning istiqbolli yo'nalishlari
- 17 **MUSTAFAQULOV DILSHOD
SALOMOVICH**
Huquq prinsiplari va uning huquqiy tizimda
tutgan o'ri

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 25 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**
O'zbekiston Respublikasi ekologiya sohasidagi
davlat boshqaruvida davlat-xususiy sheriklikni
qo'llashning ayrim masalalari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 39 **ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ**
Реформирование процесса защиты
диссертаций в юридической науке
как императив развития правовой системы
Узбекистана
- 49 **MAMANAZAROV SARDOR
SHUXRATOVICH**
BIG DATA tushunchasi va huquqiy tabiati
- 57 **МАХАМАДХУЖАЕВА МУНИСАХОН
НЕЪМАТХУЖАЕВНА**
Особенности цифрового гражданского
оборота и защиты цифровых прав

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.
KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 64 **ЕРНИЯЗОВ ИСЛАМ РУСЛАНОВИЧ**
Взаимодействие международных строитель-
ных контрактов и договоров об инвестициях:
возможности для гармонизации коммер-
ческих и общественных интересов

- 76 **ABDURASULOVA QUMRINISA
RAIMKULOVNA**
BURANOVA RAZIYA YERMAHAMED QIZI
Jinoyatchilikni prognoz qilish va uni amalga
oshirish metodlari
- 88 **HAKIMOV KOMIL BAXTIYAROVICH**
Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib
qasddan odam o'ldirish jinoyati tarkibini
aniqlash va kvalifikatsiya qilish masalalari
- 98 **BERDIALIYEV BAXTIYOR ERKINOVICH**
Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning
sabablariga doir ilmiy yondashuvlar
- 106 **ISMAILOV AHMAD ISMAILOVICH**
Voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish
darajasiga yetkazish jinoyatini sodir etgan
shaxslarning kriminologik tavsifi
- 114 **SHONAZAROV ABDUVALI
SHONAZAROVICH**
Hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli
qog'ozlarni soxtalashtirish, ko'chirilgan
dastxatlar, hujjatlarning o'zgartirilganligi
bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash

12.00.09 – JINOYAT
PROTSESSI. KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

- 121 **ATANIYAZOV JASURBEK
KURBANBAYEVICH**
Jinoiy javobgarlikdan ozod etishda
javobgarlikka tortish muddatining o'tganligi
asosi: muammo va yechimlar

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

131 **SAYFULLAYEV BAHODIR
BAXROMOVICH**

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanayotgan jinoyat ishlarida himoyachining ishtirokini takomillashtirish

140 **ЭРКАБОВ АЗИЗБЕК АСИЛБЕКОВИЧ**

Интеграция Республики Узбекистан в глобальную систему контроля за наркотиками

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.3./YXWH6446>

UDC: 340.13(045)(575.1)

NORMA IJODKORLIGI JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Sodikov Akmal Shavkat o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat va huquq nazariyasi kafedrasida dotsenti v. b.,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0001-6453-1327

e-mail: akmalsodikov81@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi norma ijodkorligi jarayonida axborot bilan ta'minlash masalasini tadqiq etish orqali bu borada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha tegishli taklif, tavsiya va xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot predmetini O'zbekiston Respublikasida norma ijodkorligiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti hamda ilmiy-nazariy konseptual yondashuvlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi. Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, mantiqiy, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish va statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan. Mazkur tadqiqot ishi natijasida norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlashning istiqbolli yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalaridan ilmiy izlanishlar olib borish, normativ-huquqiy hujjatlarning tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish, Davlat va huquq nazariyasi, Norma ijodkorligi va Yuridik texnika o'quv modullaridan ta'lim berish hamda mazkur modullarni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: axborot, norma ijodkorligi, norma ijodkorligini raqamlashtirish, malaka oshirish, yuridik xizmati, normativ-huquqiy hujjatlar, axborot aylanishi.

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОЦЕССА НОРМОТВОРЧЕСТВА

Содиков Акмал Шавкат угли,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

и. о. доцента кафедры «Теория государства и права»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы совершенствования механизма информационного обеспечения нормотворческого процесса. Целью исследования является разработка актуальных предложений, рекомендаций и выводов по совершенствованию законодательства Республики Узбекистан и юридической практики. Предметом исследования являются нормативные правовые акты, относящиеся к нормотворчеству в Республике Узбекистан, юридическая практика, а также научно-теоретические концептуальные подходы и правовые категории. В исследовании использованы такие методы, как исторический, системно-структурный, логический, индукционный, дедуктивный, сравнительно-правовой, комплексного исследования научных источников и статистического анализа данных. В результате

проведённого исследования разработаны перспективные направления информационного обеспечения нормотворчества. Результаты исследования могут быть использованы для проведения научных исследований, толкования соответствующих норм нормативных правовых актов, совершенствования национального законодательства, преподавания таких учебных модулей, как «Теория государства и права», «Нормотворчество» и «Юридическая техника», и дальнейшего обогащения этих модулей с научной и теоретической точек зрения.

Ключевые слова: информация, нормотворчество, цифровизация нормотворчества, повышение квалификации, юридическая служба, нормативные правовые акты, информационный оборот.

PROSPECTIVE DIRECTIONS FOR IMPROVING THE PROCESS OF RULE-MAKING

Sodikov Akmal Shavkat ugli,

Tashkent State University of Law,
Acting Associate Professor of the Department
of Theory of State and Law, PhD in Law

Abstract. *This article analyzes the issues of improving the mechanism of providing rule-making with information. The purpose of the research is to develop relevant proposals, recommendations, and conclusions on improving the legislation of the Republic of Uzbekistan and its legal practices. The subject matter of the research is normative legal acts related to rule-making in the Republic of Uzbekistan, legal practice, as well as scientific-theoretical conceptual approaches and legal categories. Methods such as historical, systematic-structural, logical, induction, deduction, comparative-legal, comprehensive research of scientific sources, and statistical data analysis have been used in the research. As a result of this research, prospective directions for providing rule-making with information have been developed. The results of the research can be used to conduct scientific research, interpret the relevant rules of normative legal acts, improve the national legislation, teach the educational modules such as Theory of state and law, Rule-making and Legal writing, and further enrich these modules from a scientific and theoretical point of view.*

Keywords: *information, rule-making, digitization of rule-making, professional development, legal service, normative legal acts, information circulation.*

Kirish

Mamlakatimizni rivojlantirishning bugungi bosqichida davlat organlari faoliyatini takomillashtirish va norma ijodkorligi samaradorligini oshirish maqsadlariga erishish borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Fikrimizcha, norma ijodkorligi uchun zarur bo'lgan axborotni yig'ish, qayta ishlash har doim ham barqaror amalga oshirilavermaydi, ammo tegishli muammolarni bartaraf etish uchun albatta mazkur faoliyatning samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Bunday istiqbolli yo'nalishlarni ishlab chiqish, birinchi navbatda, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga e'tibor qaratish-

ni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5505-son Farmoni mamlakatimizda norma ijodkorligining yangi bosqichga o'tishi uchun zamin yaratdi. Ushbu farmon bilan tasdiqlangan Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi beshta asosiy yo'nalishni belgilab berdi. Bu, o'z navbatida, norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlashning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy tahlil qilish, bu borada huquqshunos olimlarning fikr-mulohazalariga to'xtalib o'tish joiz.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining birinchi yo'nalishi 8-maqradi "norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat'iy ijrosini ta'minlash" deb nomlanishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining birinchi yo'nalishining mantiqiy davomi bo'lib xizmat qildi.

Yuqorida nomlari qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan maqsadlarga erishish uchun bu boradagi nazariy va amaliy muammolarni tahlil qilish talab etiladi. Norma ijodkorligi jarayonida axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish yo'lidagi bir nechta asosiy muammo, xususan, vaqt, axborot bilan ta'minlovchi subyektlarning mas'uliyati, bilim va malaka darajasi, axborotga qo'yiladigan sifat talabi kabilar bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ham muhim tadqiqot obyektiga aylanib ulgurgan. Ammo ilmiy tadqiqotlarda samaradorlik tushunchasiga turlicha yondashuvlarni kuzatish mumkin. Xususan, Z.S. Israilova [1, 12-b.], V.I. Kaynov va E.V. Zaretskayalar [2, 12-b.] tomonidan norma ijodkorligi jarayonida samaradorlikka erishish uchun bir qancha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, samaradorlikka erishish yo'nalishlari qayd etib o'tilmagan.

A.V. Ilin va G.A. Martyanovning ilmiy tadqiqotlarida [3, 12-b.], norma ijodkorligi jarayonining samaradorligini oshirish tahlil etilgan bo'lib, samaradorlikni oshirish tegishli istiqbolli yo'nalishlarni ishlab chiqish orqali amalga oshirilishi mumkinligi qayd etiladi.

Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar P.A. Rustamov

tomonidan tegishli normativ-huquqiy bazani takomillashtirish [4, 113-b.], E.V. Skurko tomonidan esa mutaxassislar bilimidan norma ijodkorligida foydalanishning integratsion metodlarini ishlab chiqish taklif etiladi [5, 81-b.].

Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda umumilmiy usullar bilan bir qatorda tanqidiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik materiallarni o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Fikrimizcha, olimlar tomonidan ilgari surilgan tendensiyalar ijobiy natijalarni berishi ehtimolga yaqin bo'lsa-da, istiqbolli yo'nalishlar asosida yondashish keng qamrovli natijalarga erishishda turtki bo'lishi mumkin.

Bizningcha, norma ijodkorligi jarayonida axborot bilan ta'minlashni takomillashtirishning quyidagi istiqbolli yo'nalishlarini ilgari surish va ilmiy-nazariy jihatdan asoslantirish mumkin:

birinchidan, norma ijodkorligi jarayonining shaffofligini oshirish, axborot almashuvini maqbullashtirish, ilmiy asoslantirish, ekspert-tahlil ma'lumotlari bilan boyitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

ikkinchidan, norma ijodkorligini zaruriy axborot bilan ta'minlashda mas'uliyat hamda tegishli mansabdor shaxslarning bilim va malakasini oshirish;

uchinchidan, norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlashning aniq mexanizmini ishlab chiqish;

to'rtinchidan, norma ijodkorligi jarayonida ekspert-tahlil ma'lumotlaridan samarali foydalanish, ekspert va mutaxassislariga qo'yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish, ularning norma ijodkorligidagi faollik darajasini reyting ko'rsatkichlarda aks ettirish.

Dastlabki istiqbolli yo'nalish bo'yicha so'z yuritadigan bo'lsak, ko'plab xorijiy mamlakatlarning norma ijodkorligini takomillashtirish istiqbolli yo'nalishlaridan biri si-

fatida axborot texnologiyalarini joriy etish nazarda tutiladi. Misol uchun, Buyuk Britaniya yada “red tape challenge”, “cutting red tape”, “focus on enforcement” [6], Yevropa Ittifoqida direktivalarni muhokama etish onlayn platformalari (Discussion draft of a directive on online intermediary platforms) [7] so‘ngi yillarda ishga tushirilgan bo‘lib, istiqbolli yo‘nalishlarning amaldagi ijrosi sifatida qarash mumkin.

Mamlakatimizda Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasida ham “Norma ijodkorligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” [8] istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Fikrimizcha, qonun loyihalari ustida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning xronologiyasini real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyatini beruvchi – “E-qonun”, norma ijodkorligiga mutaxassis va ekspertlarni jalb etish va rag‘batlantirishni ta‘minlovchi – “E-ekspert”, norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta‘minlashga xizmat qiluvchi – “Ilmiy axborot” milliy ilmiy-texnik bazasini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi istiqbolli yo‘nalish – norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta‘minlovchi subyektlarning bu boradagi mas‘uliyatini hamda malakasini oshirishga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, bu masalada Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asarining birinchi va ikkinchi fasllari [9, 16-18-b.] aynan qaror qabul qilishda odillik va xalq oldidagi mas‘uliyat masalalariga bag‘ishlanganini qayd etib o‘tish joiz.

Hozirgi zamon olimlaridan V. Mabiyyar, A. Sofiya va M. Paskilarning fikricha, norma ijodkorligi uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni to‘plashdagi asosiy to‘siqlarga texnik, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, mansabdor shaxslarning malaka oshirish treninglarida qatnashmasligi va ma‘muriy jihatdan yomon boshqarishni ko‘rsatib o‘tishadi [10, 31-b.].

K. Goets va M. Saxlinglarning fikricha, norma ijodkorligida qaror qabul qilish sama-

rasizligining asosiy sababi kadrlar bilimi va malakasi bilan bog‘liqligini qayd etishadi [11, 184-b.].

Darhaqiqat, axborot bilan ta‘minlash samaradorligini oshirish masalasi nazariy-huquqiy jihatdan tadqiq etish, normativ-huquqiy bazani mustahkamlash bilan o‘z yechimini topmaydi, aksincha, bunda kadrlarning salohiyati hamda boshqa tashkiliy masalalarga ham e‘tibor berishni taqozo etadi.

Milliy huquqshunos olimlarning fikrlariga e‘tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, muayyan mansabdor shaxslar guruhining malakasini oshirishga oid takliflar ilgari surilgan.

D.R. Artikov O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabida maxsus o‘quv kursi tashkil etish lozimligini [12, 24-b.], J.N. Ne‘matov ma‘muriy tartib-taomillar bo‘yicha huquqiy amaliyotda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun maxsus o‘quv kurslarini tashkil etishni [13, 30-b.], F.X. Otaxonov davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari yuridik xizmat vakillarining huquq ijodkorligi faoliyatidagi o‘rnini mustahkamlash [14, 32-b.], Sh.X. Zulfiqorov bu borada norma ijodkorligi subyektlarining ilmiy salohiyatini yanada oshirish zarurligini [15, 26-b.], X.S. Xayitov norma ijodkorligi jarayoniga jalb etilgan ekspertlarning zaruriy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozimligini [16, 14-b.], Sh.N. Berdiyarov [17, 24-b.], Z.S. Israilova [18, 50-b.] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarda ham tegishli mansabdor shaxslarning salohiyatini oshirishga e‘tibor qaratib o‘tilgan.

Shuningdek, B. Alimov va O. Maxkamovlar mansabdor shaxslarning umr davomida o‘qish (“life long learning”) tamoyili asosida ta‘lim olishlari zarurligini [19, 116-b.], Q. Raxmonov bu borada masofaviy darslarni tashkil etish zarurligini qayd etib o‘tishadi [20, 125-b.].

Qayd etilgan olimlarning yondashuvlari ularning ilmiy tadqiqot mavzularidan kelib chiqqan, ammo norma ijodkorligi jarayoni-

ni axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish masalasida o'ziga xos fikr-mulohaza yuritish maqsadga muvofiq.

Xorijiy huquqshunos olimlarning fikrlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, F. Paskuale bugungi davrda nafaqat norma ijodkorligi, balki barcha davlat xizmatida faoliyat olib borayotgan mansabdor shaxslar "texnologik kompetensiyaga" ("duty of technological competence") ega bo'lishi lozimligini [21, 19-, 38-b.], T.V. Trofimova, A.V. Lomovsevalar bu borada davlat xizmatchilarini, avvalo, axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha qayta tayyorlash ishlarini olib borish kerakligini bildirib o'tishadi [22, 261-b.].

Bu borada nafaqat zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasi, balki yuridik amaliyot hamda nazariy-huquqiy bilimlarni oshirishni e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

K. Xenderson va D. Botlyuklar tomonidan tayyorlangan ma'lumotlarga (AQSh milliy Fanlar akademiyasining hisoboti) ko'ra [24, 300-b.], huquqshunoslar ilmiy tadqiqot metodlari bo'yicha treninglarda ishtirok etmaganliklari tufayli [25, 61-b.], yuridik amaliyotda muvaffaqiyatsizlikka uchrayotgani bildirib o'tiladi.

Shuningdek, aynan shu masalada S.T. Siefken va S.S. Shyuttemayerlarning fikrlariga nazar tashlaydigan bo'lsak [25, 165-b.], tegishli subyektlarni zaruriy vositalar bilan boyitish "gapiruvchi parlament" o'rniga "ishlaydigan parlamentni" keltirib chiqarishini qayd etishadi.

Darhaqiqat, norma ijodkorligi subyektlarining axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish albatta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor va mas'ul shaxslarning bilim va malakasini oshirish hamda boshqa tashkiliy chora-tadbirlarsiz ro'yobga chiqarish imkonsizdir.

Tadqiqot natijalari tahlili

Nazarimizda, nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan

mansabdor shaxslar, balki norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlovchi boshqa subyektlarning (ekspert va mutaxassislar) bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha maxsus malaka kurslariga jalb etish zarur. Normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar faoliyatining samaradorligini oshirish, ulardagi xodim va mutaxassislar malakasini oshirish maqsadida quyidagi masofaviy o'quv treninglarini yo'lga qo'yish zarur, deb hisoblaymiz:

yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida "Qonunchilik texnikasi" masofaviy o'quv treninglari;

yangi saylangan viloyat, shahar va tuman xalq deputatlari kengashlari deputatlari, davlat boshqaruv organlari yuridik xizmat xodimlari uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi tomonidan "Norma ijodkorligi texnikasi" masofaviy o'quv treninglarini tashkil etish.

Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlarning mas'ul xodimlari malakasini oshirish tizimini yaratish, ishga qabul qilish bo'yicha tanlov shartlarini qayta ko'rib chiqish, ularning malakasini uzviy ravishda oshirib borish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Aks holda, mas'ul xodimning aybi bilan jamiyat va davlat manfaatlariga sezilarli zarar yetishi mumkin.

Darhaqiqat, malaka oshirish ishlari tashkil etish ijobiy natijalarni berishi mumkin, ammo norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborotni o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki talab darajasidagi axborotni taqdim etmaslik hamda shaxsiy manfaatlarga (bevosita yoki bilvosita) yo'l qo'rganlik uchun tegishli javobgarlik choralari ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shu sababli quyidagi masalalar yuzasidan tegishli mas'uliyatni oshirish bu boradagi samaradorlikka xizmat qilishi mumkin:

normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlarning yuridik xizmatiga jalb etiladigan mas'ul shaxslarning mansab yo'riqnomasiga norma ijodkorligiga oid maxsus bilim va malaka talablarini kiritish;

normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlarning yuridik xizmatida faoliyat olib boruvchi mas'ul xodimlarni ishga qabul qilish bo'yicha maxsus malaka mezonlarini qayta ko'rib chiqish;

normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar normativ-huquqiy hujjat loyihasi va unga ilova qilinadigan hujjatlarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini taqdim etish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organning tegishli mansabdor shaxslari yoki norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlovchi subyektlar tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihalari va ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarda qasddan soxta yoki noto'g'ri ma'lumot berish, shaxsiy manfaatdorlikka (bevosita yoki bilvosita) yo'l qo'yish, norma ijodkorligi uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etish to'g'risidagi so'rovni ko'rib chiqmasdan qoldirish yoki ularni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish bo'yicha intizomiy javobgarlikni qat'iy lashtirish.

Bu boradagi yuridik javobgarlik va mas'uliyatni kuchaytirish masalalariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, milliy qonunchilik hujjatlarida, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasining norma ijodkorligi faoliyati uchun taqdim etiladigan axborot-tahliliy materiallarning ishonchiligi va o'z vaqtida taqdim etilishi bo'yicha yuridik javobgarlik belgilangan.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, amaliyotda mazkur norma vazirlik, davlat qo'mita va

idoralari hamda mahalliy davlat hokimiyati organi uchun ham qo'llanib kelmoqda. Tabiiyki, mansabdor shaxslar tomonidan norma ijodkorligi subyektlariga axborot taqdim etish to'g'risidagi so'rovlarni to'laqonli bajarish yuzasidan mas'uliyatini oshirish talab etiladi. Chunki amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda bunday harakatlar uchun qat'iy javobgarlik choralari keltirib o'tilmagan. Jumladan, "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonunda zarur materiallar va axborot to'plash masalalari qayd etilgan bo'lsa-da, muayyan talablarga rioya etish nazarda tutilmagan.

Mazkur masalada milliy huquqshunos olimlardan A.M. Xoshimxonov vazirlik va davlat qo'mitalari norma ijodkorligi faoliyati natijasida kelib chiqqan turli oqibatlar uchun mas'uliyat va javobgarlik hissini oshirish kerakligini ta'kidlab o'tgan [26, 17-b.].

X.U. Turdiyev ijro hokimiyati huquq ijodkorligi sohasidagi mas'uliyat va javobgarligini oshirish zarurligini [27, 24-b.], S.A. Sultanova normativ-huquqiy hujjat loyihasini tartibga solish ta'sirini baholash bo'yicha sifatsiz xulosa berganlik uchun ma'muriy javobgarlikni [28, 147-b.], A.A. Xo'janazarov mahalliy davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslari yoki mutaxassislari (xodimlari) tomonidan qarorlar qabul qilish tartibini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash zarurligini asoslantirishadi [29, 21-b.].

Mazkur tadqiqot ishi mavzusiga aloqador bo'lgan ma'muriy javobgarlik masalalari O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 178-moddasi (monopoliyaga qarshi organiga va iste'molchilarning huquqlarini himoya qiluvchi organlarga axborot taqdim etmaslik yoki o'z vaqtida taqdim etmaslik yoxud ularga bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni taqdim etish), 204¹-moddasining uchinchi qismi (tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi axborot-

ni yashirish, o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki ular haqida atayin soxta axborot taqdim etish), 215²-moddasida (O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga axborot taqdim etmagan, bila turib noto'g'ri ma'lumot taqdim etganlik) ma'muriy huquqbuzarlik sifatida tan olingan, ammo norma ijodkorligi subyektlariga tegishli axborotlarni taqdim etmaslik, noto'g'ri ma'lumot taqdim etish, shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'yish kabi masalalar bo'yicha muayyan yuridik javobgarlik belgilanmagan.

Bizning fikrimizcha, norma ijodkorligi jarayoni samaradorligi avvalo axborot aylanishi, uning sifati hamda qayta aloqaga bog'liq bo'lib, bu borada mas'ul shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlikni emas, balki intizomiy javobgarlikni qat'iylashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Tahlillar natijasida shunday xulosaga kelindiki, norma ijodkorligi jarayonida zarur axborot bilan ta'minlash asosan tashabbuskor subyekt tomonidan amalga oshiriladi. Demak, birinchi navbatda, ularning mas'uliyatini oshirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning tajribasiga e'tiborimizni qaratib o'tamiz.

“Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi GFR qonunining (Verwaltungsverfahrensgesetz) 71s-qismiga muvofiq [30, 2418-b.]:

1) norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlashga oid so'rov bo'yicha tegishli davlat organi zudlik bilan tegishli ma'lumot beradi. Agarda so'rov yo'llovchining talabi mavhum bo'lsa, bu haqda xabar beradi;

2) norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlashga oid so'rov bo'yicha vakolatli organlar tegishli qoidalar va ularning sharhlari to'g'risida ma'lumot zudlik bilan taqdim etiladi.

Qayd etilganidek, GFRda norma ijodkorligini zaruriy axborot bilan ta'minlashda axborotning sifati, barqarorligi, izchilligi, axborot bilan ta'minlash usul, uslub hamda vositalarining samaradorligiga e'tibor qaratiladi.

Buyuk Britaniya tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, vazirlik kodeksining (Mi-

nistrial Code) 1.3.(a)-bandiga binoan hukumat a'zolari jamoaviy javobgarlik prinsipiga asoslanadi, 1.3.(c)-bandida esa agarda vazir qonun ijodkoriga aniq va haqqoniy ma'lumot taqdim etmasa, parlament a'zolari Bosh vazirga uning iste'foga chiqish talabini kiritishi mumkin [31, 6-b.].

Barcha hukumat a'zolari Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari hamda hukumat tomonidan olib boriladigan siyosat uchun birgalikda javobgar bo'lib, bu hukumatning qonunchilik tashabbusi, zaruriy ma'lumot va materiallar bilan ta'minlash, haqqoniy axborot manbalarini yaratish, ma'lumotlarda aks etgan kamchiliklarni tez fursatlarda tuzatish ishlarini qamrab oladi. Bu albatta qabul qilinayotgan qonunlar (Acts of Parliament) hamda hukumat qarorlarining o'zaro muvofiqligiga, ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyatlari o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvining ishonchliligiga zamin hozirlaydi.

Shuning uchun hukumat tomonidan kiritilayotgan qonun loyihalari va ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarda aks etgan ma'lumotlar zaruriy, samarali, aniq, izchil va erkin foydalanish, ilmiy ta'minlanganlik, ekspert-tahlil ma'lumotlari bilan boyitilgan va boshqa shu kabi sifat talablariga javob berishi kafolatlanadi.

Huquqshunos olimlarning ilmiy ishlari hamda ilg'or xorij tajribasini tadqiq etish orqali norma ijodkorligi jarayonida axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish mansabdor shaxslarning mas'uliyatini qat'iylashtirish maqsadida “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 31-moddasi quyidagi tahrirda bayon etish zarur, deb hisoblaymiz:

“31-modda. Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik:

Normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organning tegishli mansabdor shaxslari yoki norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlovchi subyektlar to-

monidan normativ-huquqiy hujjat loyihalari va ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarda qasddan soxta yoki noto'g'ri ma'lumot berish, shaxsiy manfaatdorlikka (bevosita yoki bilvosita) yo'l qo'yish, norma ijodkorligi uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etish to'g'risidagi so'rovni ko'rib chiqmasdan qoldirish yoki ularni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish ijro intizomi doirasida shaxsiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi organlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini o'z vaqtida ko'rib chiqish, kelishish, norma ijodkorligi jarayoni tartib-taomillariga amal qilish ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi".

Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash samaradorligiga erishish masalasi tegishli subyektlarning mas'uliyatini oshirish bilan bir qatorda norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlovchi subyektlarni rag'batlantirish tizimiga ham e'tibor qaratishni talab etadi. Bu borada A. Xolov [32, 84-b.] va Sh. Kodirovalar [33, 74-b.] tomonidan davlat xizmatchilari faoliyatini baholash tizimini yo'lga qo'yish taklifi qo'llab-quvvatlash mumkin.

Shuningdek, muayyan hisobot davri mobaynida norma ijodkorligi jarayonida jamoatchilik fikr-mulohazalarini eng ko'p o'rgangan, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash bo'yicha eng ko'p tanlovlar o'tkazgan davlat organlari, eng ko'p normativ-huquqiy hujjat loyihalari, shuningdek, ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni tayyorlagan subyektlar, norma ijodkorligi jarayoniga eng ko'p jalb etilgan ekspert va mutaxassislar reytingini aniqlash va rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz.

Bunday mexanizmlar xorijiy mamlakatlarda joriy etilgan bo'lib, misol tariqasida AQShning govtrack.us platformasi – qonun hujjatlarini kirituvchilarning reytingi [34], Amerika

prezidentlik loyihasi (American presidency project) [35] – prezidentlar tomonidan qabul qilingan qonunosti hujjatlarining (executive orders) reytingi, shtatlarning qonun ijodkorlari samaradorligi reytingini aniqlovchi Samarali qonun ijodkorligi markazi (Center for effective lawmaking) faoliyati [36, 52-b.], Huquqqa ta'sir ko'rsata oladigan Huquq maktablari reytingini (Ranking the academic impact of 100 American law schools) misol tariqasida keltirib o'tish mumkin [37, 12-b.].

Albatta bunday rag'batlantirish hamda reyting tizimini amaliyotga joriy etish normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlarning mansabdor shaxslarini va norma ijodkorligini zaruriy axborot bilan ta'minlovchi subyektlarning tashabbuslari jadallashishiga zamin yaratib beradi.

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan muayyan hisobot davri mobaynida norma ijodkorligi jarayonida jamoatchilik fikr-mulohazalarini eng ko'p o'rganib chiqqan, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash bo'yicha eng ko'p tanlovlar o'tkazgan davlat organlari, eng ko'p normativ-huquqiy hujjat loyihalari, shuningdek, ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni tayyorlagan subyektlar, norma ijodkorligi jarayoniga eng ko'p jalb etilgan ekspert va mutaxassislar reytingini aniqlash hamda keng jamoatchilikka e'lon qilish mexanizmi yo'lga qo'yilishi lozim.

Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlovchi subyektlarning reytingini aniqlash bo'yicha mezonlarga hisobot yili davomida tayyorlangan tahliliy materiallar soni, sifati, inobatga olingan takliflar, xodimlar salohiyati, OAVda keng jamoatchilik uchun ochiq bo'lgan qonunchilikni rivojlantirish bo'yicha yuqori sifatli tahliliy materiallarning e'lon qilingani kabilarni qamrab olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, norma ijodkorligi jarayonida uning kelajakda huquqiy munosabatlarni tartibga solishda qay darajada ishlab ketishi, o'zining samarali natijasiga erishishi

uchun mazkur faoliyatda axborot ta'minoti, axborotlar almashinuv mexanizmi bilan bir qatorda tegishli subyektlarning mas'uliyatini qat'iy lashtirish hamda ularni rag'batlantirish tizimini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Fikrimizcha, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslarga zaruriy axborotni taqdim etmaganlik, shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'yish, muddat va sifat talablariga javob bermaydigan holatlar bo'yicha intizomiy javobgarlikni joriy etish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish axborotga bo'lgan jiddiy yondashuvni ta'minlash, sifat va samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosalar

Norma ijodkorligi jarayonida axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni ishlab chiqish sohaning rivojlanish tendensiyalarini belgilashga mamlakatimizda norma ijodkorligi

jarayonini axborot bilan ta'minlash sohasidagi mas'uliyatni oshirish masalasiga alohida e'tibor berilmaganligi, shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ygan tegishli mansabdor shaxslarga nisbatan yuridik javobgarlik qat'iy belgilanmaganligi, kechiktirilgan, ishonchsiz yoki sifat talablariga javob bermaydigan axborot bilan ta'minlash natijasida amalga kiritilgan normativ-huquqiy hujjatlarda noaniqliklar topilishiga, amaliyotda ziddiyatli vaziyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Shu sababli bu borada maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- axborot texnologiyalarini keng joriy etish,
- mas'ul shaxslarning malakasini oshirish, javobgarlik choralari ishlab chiqish,
- norma ijodkorligi jarayonini zaruriy axborot bilan ta'minlash bo'yicha reyting mexanizmini joriy etish hamda mas'ul shaxslarni rag'batlantirish chora-tadbirlarni ko'rish.

REFERENCES

1. Israilova Z.S. O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining samaradorligini baholash mexanizmini takomillashtirish [Improving the mechanism for evaluating the effectiveness of the representative bodies of local state power in Uzbekistan]. Abstract of PhD thesis. 12.00.02. Tashkent, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, 2020, p. 12.

2. Kaynov V.I., Zaretskaya E.V. Aktual'nyye problemy byudzhethnogo protsessa v Rossiyskoy Federatsii: administrativno-pravovoy aspect [Actual problems of the budget process in the Russian Federation: administrative and legal aspect]. St. Petersburg, KultInformPress Publ., 2019, p. 12.

3. Il'in A.V. Optimizatsiya pravotvorcheskoy deyatel'nosti v sovremennoy Rossii (voprosy teorii i praktiki) [Optimization of law-making activity in modern Russia (questions of theory and practice)]. Ed. S.A. Komarov. St. Petersburg, 2010, 309 p.

4. Rustamov P.A. Nauchno-informatsionnoye obespecheniye zakonodatel'noy deyatel'nosti v Respublike Uzbekistan [Scientific and information support of legislative activity in the Republic of Uzbekistan]. PhD thesis. 12.00.01. Tashkent, TSIL, 2001, p. 113.

5. Skurko Ye.V. Informatsionno-pravovoye obespecheniye zakonodatel'noy deyatel'nosti v Rossiyskoy Federatsii [Information and Legal Support of Legislative Activities in the Russian Federation]. PhD thesis. 12.00.01. Moscow, RSL, 2003, p. 81.

6. The official web page of the UK government. Available at: <https://www.gov.uk/government/news/red-tape-challenge>

7. Busch Ch., Dannemann G., Schulte-Nölke H., Wiewiórowska-Domagalska A. Discussion draft of a directive on online intermediary platforms. *Journal of European Consumer and Market Law*, 2016, no. 5, pp. 164–169.

8. Sodikov A. Norm-making based on evidence and science is one of the main factors of development. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 4, pp. 1–5.

9. Siyosatnoma (Siyar ul-muluk) [Siyosatnoma (Siyar ul-muluk)]. Trans. from Persian. Eds. Sh. Vahid, A. Erkinov. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ., 2008, pp. 16–18.

10. Mabillard V., Pasquie M., Sofia A. The use and effects of access to information laws. A study in 14 countries. *Working paper de l'IDHEAP*, 2019, no. 6/2019, p. 31.

11. Goetz K.H., Meyer-Sahling J.H. Political time in the EU: Dimensions, perspectives, theories. *Journal of European Public Policy*, 2009, no. 16 (2), p. 184.

12. Artikov D.R. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning ma'muriy-huquqiy jihatlarini [Administrative and legal aspects of court hearing cases on invalidating a departmental regulatory legal document]. PhD thesis. 12.00.02. Tashkent, TSUL, 2021, p. 24.

13. Ne'matov J.N. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy tartib-taomillarning huquqiy asoslarini takomillashtirish (qiyosiy-huquqiy tahlil) [Improving the legal basis of administrative procedures in the Republic of Uzbekistan (comparative legal analysis)]. Abstract of Doctor's degree dissertation. 12.00.02. Tashkent, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, 2019, p. 30.

14. Otaxonov F.X. O'zbekiston Respublikasida yuridik xizmatning nazariy-huquqiy muammolari [Theoretical and legal problems of legal service in the Republic of Uzbekistan]. Abstract of Doctor's degree dissertation. 12.00.02. Tashkent, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, 2019, p. 32.

15. Zulfiorov Sh.X. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari [Organizational and legal foundations of the activity of a deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis]. Abstract of PhD thesis. 12.00.02. Tashkent, TSIL, 2008, p. 26.

16. Xayitov X.S. Qonun ijodkorligi ekspertlik ta'minoti: milliy va xorijiy tajriba [Expert provision of law-making: national and foreign experience]. *Review of Law Science*, Tashkent, TSUL, 2018, no. 2, pp. 14–19.

17. Berdiyarov Sh.N. Ikki palatali parlament sharoitida qonunchilik texnikasi [Legislative technique in the conditions of the bicameral parliament]. Abstract of PhD thesis. 12.00.01. Tashkent, TSIL, 2009, 24 p.

18. Israilova Z.S. O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining samaradorligini baholash mexanizmini takomillashtirish [Improving the mechanism for evaluating the effectiveness of the representative bodies of local state power in Uzbekistan]. Abstract of PhD thesis. 12.00.02. Tashkent, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, 2020, 53 p.

19. Alimov B., Maxkamov O. Boshqaruv kadrlarini o'qitishning huquqiy asoslari va ta'lim jarayonini takomillashtirish istiqbollari [Legal basis of training management personnel and prospects for improving the educational process]. *Jamiyat va boshqaruv – Society and Management*, 2020, no. 2 (88), p. 116.

20. Maxkamov O., Raxmonov Q. O'zbekistonda boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda masofaviy ta'limni takomillashtirish masalalari [Issues of improving distance education in the training, retraining and upgrading of managerial personnel in Uzbekistan]. *Jamiyat va boshqaruv – Society and Management*, 2019, no. 3 (85), pp. 125–132

21. Pasquale F. Data-informed duties in ai development. *Columbia Law Review*, 2019, vol. 119, no. 7, p.1938.

22. Trofimova T.V., Lomovtseva A.V. Tsifrovyye tekhnologii v obespechenii deyatel'nosti organov gosudarstvennoy vlasti [Digital technologies in ensuring the activities of public authorities]. *Kreativnaya ekonomika – Creative Economy*, 2019, vol. 13, no. 2, pp. 261–270.

23. Report on strengthening forensic in the United States: A path forward. National Academy of Science, 2009, no. 228091, 350 p.
24. Henderson C., Botluk D. Sleuthing scientific evidence information on the internet. *The Journal of Criminal Law and Criminology*, 2016, vol. 106, no. 1, p. 61.
25. Siefken S.T., Schüttemeyer S.S. The German Bundestag and external expertise: Policy orientation as counterweight to deparliamentarisation? International library of policy analysis. *Policy Analysis in Germany Bristol*, Policy Press, 2013, pp. 161–180.
26. Xoshimxonov A.M. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquq ijodkorlik faoliyati: nazariya va amaliyot masalalari [Law-making activity of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan: theory and practical issues]. Abstract of PhD thesis. 12.00.02. Tashkent, TSIL, 2008, p. 17.
27. Turdiyev X.U. Ijro hokimiyatining huquq ijodkorlik faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni takomillashtirish masalalari [Issues of improving the relations of the executive power in connection with the law-making activity]. *O'zbekiston qonunchiligi tahlili – Analysis of the Legislation of Uzbekistan*, 2019, no. 1, p. 24.
28. Sultanova S.A. Teoretiko-pravovyye voprosy primeneniya modeli «Umnoye regulirovaniye» v normotvorchestve [Theoretical and legal issues of the application of the “Smart regulation” model in rule-making]. Abstract of PhD thesis. 12.00.01. Tashkent, TSUL, 2021, p. 147.
29. Xo'janazarov A.A. Adliya organlarining norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish [Improvement of rule-making activities of judicial bodies]. Abstract of PhD thesis. 12.00.02. Tashkent, TSUL, 2021, p. 21.
30. Administrative Procedure Act. *Verwaltungsverfahrensgesetz, VwVfG. Federal Law Gazette*, 2008, no. 1, p. 2418.
31. Ministerial Code. Cabinet Office. London, 2019, pr. 1.3. (a), p. 6.
32. Xolov A. Davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash [Evaluation of the performance of civil servants]. *Jamiyat va boshqaruv – Society and Management*, 2019, no. 3 (85), pp. 84–90.
33. Kodirova SH. Otsenka effektivnosti deyatel'nosti gosudarstvennykh sluzhashchikh: sovremennoye sostoyaniye i perspektivy razvitiya [Evaluation of the performance of civil servants: current state and development prospects]. *Jamiyat va boshqaruv – Society and Management*, 2019, no. 3 (85), pp. 74–83.
34. The official webpage of GovTrack NGO. Available at: <https://www.govtrack.us/about/>
35. The official webpage of The American Presidency Project. Available at: <https://www.presidency.ucsb.edu/statistics/data/executive-orders/>
36. Bucchianeri P., Volden C., Wiseman A.E. Legislative Effectiveness in the American States. Center for Effective Lawmaking Working Paper, 2020, 52 p.
37. Heald P.J., Sichelman T.M. Ranking the academic impact of 100 American Law Schools. *University of Illinois College of Law Legal Studies Research*, 2019, no. 20-433, pp. 11–20.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.3./NPEE2121>
UDC: 340.11(045)(575.1)

HUQUQ PRINSIPLARI VA UNING HUQUQIY TIZIMDA TUTGAN O'RNI

Mustafaqulov Dilshod Salomovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat va huquq nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0001-3050-3261

e-mail: smartspeaker@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada huquqiy tizimning muhim elementi bo'lgan huquq prinsiplariga oid ayrim nazariy masalalar tahlil etilib, unda huquq prinsiplari huquq zamirida yotadigan bosh, rahbariy asoslar ekanligi, ularda huquqning mohiyati, maqsadi va ijtimoiy yo'naltirilganligi masalasi turli olimlarning ilmiy qarashlari asosida tahlil etiladi. Huquq prinsiplari huquqning asosini tashkil etuvchi bosh g'oya va qoidalar bo'lib, ular ayni paytda huquqning poydevori, uning ichki ustuni ekanligi asoslantiriladi. Maqolada huquq prinsiplarining milliy qonunchilikka singdirilishi, yuridik faoliyatda, odil sudlovda qo'llanishi kabi masalalar aniq misollar yordamida tahlil etilgan. Huquq prinsiplari amal qilish sohasiga qarab bir qator guruhlariga ajratilgan va ularning xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: huquq, prinsip, huquq prinsiplari, umumhuquqiy prinsiplar, huquq analogiyasi, sohalararo huquq prinsiplari.

ПРИНЦИПЫ ПРАВА И ИХ МЕСТО В ПРАВОВОЙ СИСТЕМЕ

Мустафакулов Дилшод Саломович,

преподаватель кафедры «Теория государства и права»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются некоторые теоретические вопросы, связанные с принципами права, которые являются важным элементом правовой системы, в которых принципы права являются главными, руководящими принципами, лежащими в основе права, в его природе. Цели права, а также вопросы социальной направленности анализируются на основе научных взглядов разных учёных. Автор считает, что принципы права являются основными идеями и правилами, составляющими его основу и, вполне обоснованно, фундаментом права, его внутренней опорой. В статье на конкретных примерах анализируются такие вопросы, как поглощение правовых принципов, их применение в юридической деятельности, правосудии. Правовые принципы разделены на ряд групп в зависимости от области применения и проанализированы их характеристики.

Ключевые слова: право, принцип, принципы права, принципы общего права, аналогия права, принципы междисциплинарного права.

PRINCIPLES OF LAW AND THEIR PLACE IN THE LEGAL SYSTEM

Mustafakulov Dilshod Salomovich,

Tashkent State University of Law,

Lecturer at the Department of Theory of State and Law

Abstract. This article analyzes some theoretical issues related to the principles of law, which are an important element of the legal system, in which the principles of law are the main, guiding principles

underlying this law. The nature of law, the purpose of law, as well as issues of social orientation are analyzed on the basis of the scientific views of various scientists. The principles of copyright are the basic ideas and rules that form its basis, and quite rightly, they are the foundation of law, its internal support. In the article, specific examples analyze such issues as the absorption of legal principles into national legislation, their application in legal activity, and justice. Legal principles are divided into a number of groups depending on their scope, and their characteristics are analyzed.

Keywords: law, principle, principles of law, general principles of law, analogy of law, principles of interdisciplinary law.

Kirish

Huquq prinsiplari huquq zamirida yotadigan bosh, rahbariy asoslar bo'lib, ularda huquqning mohiyati, huquqning maqsadi va ijtimoiy yo'naltirilganligi aks etadi. Huquq prinsiplari uning asosini tashkil etuvchi bosh g'oya va qoidalardir. Huquq prinsiplari huquqning poydevori, uning ichki ustunidir.

Binobarin, huquq prinsiplari o'ziga xos "huquqiy ideal" hisoblanadi, bu prinsiplarning ro'yobga chiqishiga nafaqat davlat, balki jamiyat va har bir fuqaro intilishi kerak. Masalan, O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi 1-moddasida xalqimizning huquqiy davlat qurish haqidagi orzu-istaklari o'zining konstitutsiyaviy maqomiga ega bo'ldi. Shu o'rinda ilmiy adabiyotda huquq prinsiplarining shakllanish tarixiga bir nazar soladigan bo'lsak, huquqiy tamoyillar 1945-yildan keyin G'arb va Yevropa huquqiy tartibotlarida, ichki va xalqaro huquqda qadriyat nutqining rivojlanishi bilan birga rivojlana boshladi. Amaliyotdagi ushbu yangi rivojlanishga muvofiq, huquq nazariyotchilari 1970-yillardan boshlab asosan nemis, ispan, italyan va ingliz analitik huquq kontekstida tamoyillar nazariyalarini ishlab chiqishni boshladilar [1].

Material va metodlar

Darhaqiqat, huquqiy davlatni qurishga barcha fuqarolar intilishlari, jumladan, o'z faoliyatlarida qonuniylikka rioya etishlari kerak. Shunga ko'ra huquq prinsiplari huquqning mohiyatini, uning chinakam tabiatini, jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyatini, rivojlanish tendensiyalarini o'zida ifodalaydi, huquqning qanday bo'lishi haqidagi eng

umumiy qoidalarni ifodalaydi va ular bevosita qonunlarda ko'rsatib qo'yiladi yoki uning umumiy mazmunidan kelib chiqadi [2].

Huquq prinsiplari va ularning huquqiy tizim rivojidadagi ahamiyatini o'rganishda tizimlilik, mantiqiylik, analiz va sintez, qiyo-siy-huquqiy formal-yuridik, tizimli-tuzilma-viy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Vaholanki, "prinsip" so'zi lotincha "principium" so'zidan olingan bo'lib, "asos", "boshlanish" ma'nolarini bildiradi. Falsafiy ensiklopedik lug'atda ta'kidlanishicha, subyektiv ma'noda "asosiy qoida", "zamin" ma'nosida, obyektiv ma'noda esa "boshlang'ich nuqta", "dastlabki asos" ma'nolarini anglatadi [3].

Nufuzli manba hisoblanadigan *Britannica* ko'rsatilishicha, "prinsip" so'zi "asosiy haqiqat yoki nazariya: biron bir hodisaning asosini tashkil etuvchi g'oya" ma'nosini anglatadi [4].

V.V. Lazarevning ta'rifiga ko'ra huquq prinsiplari bu – o'zining universalligi, umumiy ahamiyati, yuqori imperativligi bilan ajralib turadigan, huquqiy tartibga solishning mazmunini belgilaydigan va huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining xulqi va faoliyatining huquqiyli-gi mezoni sifatida maydonga chiqadigan umum-majburiy tusdagi asosiy, bosh huquqiy qoidalardir [5].

X.T. Odilqoriyevning yozishicha, huquq prinsiplari hech mubolag'asiz huquqning mohiyatini ifodalovchi asosiy jihatlardan birini, asl o'zagini tashkil etadi. Ular butun huquqiy materiyani – g'oyalari, normalar va munosabatlarni qamrab olib, jami huquqiy hayotda

muayyan mantiq, mazmun, ma'no, sobitqadamlik, ichki mutanosiblik hamda uyg'unlik baxsh etadi [6].

Ayrim g'arb olimlari huquq prinsipi-ni huquq bilan bog'lagan holda uning bir tarkibiy qismi sifatida tushunishadi. Masalan, Marijan Pavčnik o'zining "Interpretative importance of legal principles for the understanding of legal texts" nomli maqolasida shunday yozadi: "Huquq – huquqiy qoidalar va huquqiy tamoyillar tizimi. Ularning orasidagi farq nisbiydir. Har doim asosiy va kichik asoslar shakllantirilishi kerakki, ish (kichik asos) qoidaga (asosiy asosga) kiritilishi va qarorni o'z ichiga olgan xulosa chiqarilishi mumkin. Bu huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadigan huquqiy tamoyillarga, shuningdek, ko'pincha o'z ma'nosi bo'yicha ochiq bo'lgan va/ yoki prinsiplar elementlarini o'z ichiga olgan ta'riflarni o'z ichiga olgan huquqiy normalarning qonuniy shakllariga taalluqlidir. Huquqiy tamoyillarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular huquqiy normalar mazmuni, qoidalarini tushunish va ularni qo'llash usullari bo'yicha belgilashga yo'naltiruvchi qiymat o'lchovidir" [7].

Huquq prinsiplari quyidagi xususiyatlarga ega:

1) prinsiplar huquq mazmunining asosiy, eng ahamiyatli jihatlarini, uning iqtisod, siyosat, madaniyat va shaxs erkinligi bilan aloqadorligini o'zida aks ettiradi;

2) prinsiplar shunchaki e'lon etilmaydi, balki ular to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita huquq normalari mazmunida ifodalangan bo'ladi;

3) huquq prinsiplariga barqarorlik xos bo'lib, bunda qonunchilik o'zgarishi, biroq huquq prinsiplari o'zgarmay qolaverishi mumkin;

4) prinsiplar qonun chiqaruvchi uchun o'ziga xos mayoq bo'lib xizmat qiladi. Bino-barin, qonun chiqaruvchi yangi huquq normalarini ishlab chiqishda huquq prinsiplariga rioya etishi kerak bo'ladi;

5) ayni paytda huquq prinsiplari huquqni qo'llovchi uchun ham mo'ljal, yo'naltiruvchi hisoblanadi, masalan huquqdagi bo'shliqlar holatida, ko'rilayotgan ish *huquq analogiyasi* orqali hal etilishi mumkin. Bu holda huquqni qo'llovchi ishni huquq prinsiplari asosida hal etadi.

6) huquq prinsiplari har bir fuqaro, huquq subyekti uchun ham mo'ljal vazifasini o'taydi, chunki fuqarolar har doim ham aniq huquq normasini bilmasliklari, biroq huquq prinsiplari haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishi mumkin [2].

Huquqning umumiy tamoyillari asosiy normalar bo'lib, ularning mazmuni juda umumiy va mavhum, ba'zan maksimal yoki oddiy tushuncha sifatida qaraladi. Qabul qilingan qonunlar yoki konvensiyalar kabi boshqa turdagi qoidalardan farqli o'laroq, huquqning umumiy tamoyillari huquqning rasmiy manbalariga ko'ra "o'rnatilgan" emas. Biroq huquqning umumiy tamoyillari, garchi ular faqat yordamchi vositalar sifatida foydalanilsa ham, pozitiv huquqning bir qismi hisoblanadi. Ular tizim faoliyati uchun zarur bo'lgan qoidalar bo'lib, qonunni qo'llashda qonuniy qarorlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning, xususan, sud hokimiyatining huquqiy asoslaridan kelib chiqadi [8].

Ta'kidlash kerakki, aslida muayyan bir davlat huquqiy tizimidagi huquq prinsiplari mazkur jamiyat rivojining umumlashgan holdagi obyektiv qonuniyatlarini o'zida ifoda etadi. Shu o'rinda huquqiy prinsiplar qanday shakllarda va qaysi huquqiy hodisalarda namoyon bo'ladi degan savol tug'ilishi tabiiydir.

Shu tariqa huquq prinsiplarining ifodalinish shakllari quyidagicha tasniflash mumkin:

huquqqa oid nazariya va konsepsiyalarning asosiy, muhim qoidalari shaklida (masalan, tabiiy huquq nazariyasining asosiy g'oyalariidan biri insonning tabiiy huquqlarining daxlsizligi, ajralmas va bo'linmasligi);

huquq subyektlarining huquqiy mo'ljal-lari, huquqiy sohadagi tutgan yo'nalishlari shaklida;

huquq normalarining mazmuni shaklida;
huquqiy tartibga solish talablari shaklida;
huquqiy qadriyatlar shaklida.

Shu bilan birga, huquq prinsiplari formal-yuridik nuqtayi nazardan normativ-huquqiy aktlar normalarida yoki bir guruh normalarda mustahkamlab qo'yiladi.

Binobarin, ilmiy manbalarda ta'kidlanganidek, huquq prinsiplarining ahamiyati shundaki, huquq normalarining bir xilda shakllanishini, shuningdek, ularning ijtimoiy munosabatlarga huquqiy tartibga solish va huquqiy ta'sirning (axborot berish, qadriyatlar orqali yo'nalish berish, ruhiy, tizim tashkil qiluvchi va shu kabilar) boshqa shakllarida ta'sir ko'rsatishida ifodalanadi. Vaholanki, huquq prinsiplari harakati huquqiy tartibga solish mexanizmi yoki huquqiy tizim orqali chegaralanmaydi, chunki ular, ulardan tashqari, aniq huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi va mavjudligi barqarorligiga bevosita ta'sir etadi [9].

Ta'kidlash joizki, ko'pchilik mualliflar (Sh. Saydullayev, B. Nazmutdinov va b.) huquq prinsiplarini uch guruhga ajratishadi:

1. Umumhuquqiy prinsiplar.

2. Sohalararo (sohalararo) huquq prinsiplari.

3. Soha (sohaviy) huquq prinsiplari.

Ayrim mualliflar huquq prinsiplarini guruhlariga ajratishga keng nuqtayi nazardan yondashib (X.T. Odilqoriyev, V.V. Lazarev, G.S. Pratsko va b.) dastlab ularni katta ikki guruhga ajratishadi: 1) ijtimoiy-huquqiy; 2) maxsus huquqiy.

Shu o'rinda ijtimoiy-huquqiy prinsiplar guruhi qanday mazmunga egaligiga e'tibor qaratishimiz kerak. Ijtimoiy-huquqiy prinsiplar jamiyatga xos bo'lgan qadriyatlar tizimini o'zida ifoda etadi hamda ular o'z ifodalanish va ta'minlanish shakllariga ega. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga e'tibor qaratamiz. Chunki unda aynan ijtimoiy-huquqiy huquq prinsiplari mustahkamlangan va ta'minlanish yo'li ham ko'rsatib qo'yilgan: "O'zbekiston

Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi".

Endi e'tiborimizni maxsus-huquqiy prinsiplarga qaratamiz. Aytish kerakki, ushbu guruh prinsiplar maxsus ijtimoiy fenomen sifatidagi huquqning shakllanishi va harakati ibtidosini o'zida aks ettiradi. Maxsus-huquqiy prinsiplar ham, o'z navbatida, harakat sohasiga qarab:

- umumhuquqiy prinsiplar;

- sohalararo prinsiplar;

- soha prinsiplari;

- soha ichidagi prinsiplar yoki huquq instituti prinsiplariga bo'linadi.

Avvalo umumhuquqiy prinsiplarga e'tibor qaratamiz. Modomiki umumhuquqiy prinsiplar barcha huquq sohalariga xos bo'lgan prinsiplardir. *Umumhuquqiy prinsiplar* huquqni yaxlit tavsiflaydigan asosiy bosh g'oyalardan bo'lib, ular huquq mazmunining eng muhim va barqaror jihatlarini ifodalaydi.

Ko'pincha umumhuquqiy prinsiplarga quyidagilarni kiritishadi [5, 84-b.]:

- qonuniylik;

- adolatlilik;

- fuqarolarning qonun oldida tengligi;

- insonparvarlik;

- demokratizm;

- huquq va majburiyatlarning birligi;

- ishontirish va majburlovning qo'shib olib borilishi.

Ta'kidlash joizki, ushbu prinsiplar barcha huquq sohalarida amal qiladi. Shu o'rinda umumhuquqiy prinsiplarning amaliyot uchun yoki, masalan, sud amaliyoti uchun qanday ahamiyati bor, degan savol tug'ilishi mumkin. Darhaqiqat, huquq prinsiplari ayrim hollarda sud amaliyoti uchun bevosita ahamiyat kasb etishi mumkin.

Huquq nazariyasidan ma'lumki, huquq barcha ijtimoiy munosabatlarni to'lig'icha

tartibga sola olmaydi, chunki bu munosabatlar doimiy ravishda paydo bo'lib, yangilanib, o'zgarib turadi. Shu bois huquqni qo'llash jarayonida, ayrim hollarda muayyan munosabatlar huquq normalari bilan tartibga solinmaganligi, ya'ni huquqdagi "bo'shliq" holati ayon bo'lib qoladi. Bu holda amaldagi qonunchilikka ko'ra, ushbu munosabat qonun yoki huquq analogiyasi (o'xshashligi) bilan tartibga solinadi.

Binobarin O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining "Fuqarolik qonunchiligini o'xshashlik bo'yicha qo'llash" deb nomlangan 5-moddasida mustahkamlanganidek, "Ushbu kodeks 2-moddasining birinchi, to'rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan munosabatlar qonunchilik yoki taraflarning kelishuvi bilan to'g'ridan to'g'ri tartibga solinmagan hollarda fuqarolik qonunchiligining o'xshash munosabatlarni tartibga soluvchi normasi qo'llanadi (qonun o'xshashligi).

Ayni paytda ko'rsatib o'tilgan hollarda qonun o'xshashligidan foydalanish mumkin bo'lmasa, *taraflarning huquq va burchlari fuqarolik qonunchiligining umumiy negizlari va mazmuniga (huquq o'xshashligiga) hamda halollik, oqillik va adolat talablariga amal qilgan holda belgilanadi.*

Fuqarolik huquqlarini cheklaydigan va javobgarlik belgilaydigan normalarning o'xshashlik bo'yicha qo'llanishiga yo'l qo'yilmaydi [10]. Mana shu misoldan huquqni qo'llovchi ayrim hollarda bevosita huquq prinsiplariga asoslangan holda huquqdagi "bo'shliq"ni yopishini, ya'ni ijtimoiy munosabatni tartibga solishini yaqqol ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Vaholanki, umumhuquqiy prinsiplarni huquq manbalarining bir turi deb bejiz aytishmaydi. Shu bois deyarli barcha huquq oilalarida, jumladan, romano-german, anglo-sakson huquqiy oilalariga mansub huquqiy tizimlarda muayyan ijtimoiy munosabatni tartibga soladigan tegishli huquqiy norma mavjud emasligi sharoitida *huquqning umumiy prinsiplari, qonunchilikning negizi va*

ruhidan kelib chiqqan holda ushbu munosabat tartibga solinishi nazarda tutilgan.

Endi *sohalararo huquqiy prinsiplar* mazmuniga e'tibor qaratamiz. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: sohalararo huquq prinsiplariga qanday prinsiplarni kiritish mumkin? Agarda muayyan huquq prinsiplari o'zida bir necha huquq sohalariga xos bo'lgan mohiyatni o'zida aks ettirsa, bunday prinsiplarni sohalararo huquq prinsiplariga qo'shish mumkin bo'ladi.

Quyidagilarni *sohalararo huquq prinsiplariga* kiritish mumkin:

1. Odil sudlovning faqat sudlar tomonidan amalga oshirilishi [2, 60-b.; 9, 104-b.].
2. Aybsizlik prezumpsiyasi.
3. Yuridik javobgarlikning muqarrarligi.
4. Sud ishlarini olib borishda tortishuvchanlik.
5. Sud qarorining haqiqiyligi prezumpsiyasi.
6. Taraflarning protsessual tengligi.
7. Shartnoma tuzish erkinligi.
8. Sud muhokamasining ochiqqligi.
9. Sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunish.

Ayni paytda *soha (tarmoq) prinsiplari* faqat bir huquq tarmog'i doirasida harakat qiladigan va ushbu huquq tarmog'ining asosiy xususiyatlarini ifoda etadigan prinsiplardir, misol uchun:

1. Mulkiy munosabatlarda taraflarning tengligi (Fuqarolik huquqi).
2. Mulk daxlsizligi prinsipi.
3. Er-xotinning mulkiy tengligi prinsipi (Oila huquqi).
4. Mehnat shartnomasini bekor qilish erkinligi.
5. Jinoyat ishlarini ko'rishda kollegiallik kabilardir.

Shu bilan birga, ilmiy manbalarda yana bir guruh prinsiplar ham ajratiladi. Bular huquq tarmog'i ichidagi prinsiplar yoki huquq institutlari prinsiplari bo'lib, ularning harakati o'zi tartibga soladigan predmet doirasida cheklangan, masalan, fuqarolik huquqidagi

mulk huquqi instituti prinsiplari aynan ushbu institut normalari tartibga soladigan munosabatlar doirasi bilan belgilangan bo'ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, huquq prinsiplari ko'pincha qonunlarda mustahkamlab qo'yiladi yoki huquq qo'llash jarayonida amaldagi qonunchilikning ma'no va mazmunidan keltirilib chiqariladi, yoinki yuridik amaliyot tomonidan shakllangan bo'ladi. Shu bilan birga, barcha huquq prinsiplari o'zining normativlik darajasidan qat'i nazar, huquq subyektlarining xulq-atvoriga muqarrar ravishda tartibga soluvchilik ta'sirini ko'rsatadi.

Ta'kidlash kerakki, huquq prinsiplari va huquq normalari bir-biridan muayyan jihatlari bilan farqlanadi. Aniq huquq normalaridan farq qilgan holda huquq prinsiplari "de facto" ikki yoqlama, ya'ni bilvosita va bevosita tarzda harakat qiladi. Huquq prinsiplari aniq qoidalar mazmunida jamlangan holda harakat qilsa, demak, bilvosita huquqiy munosabat ishtirokchilarining xulq-atvorini yo'naltiruvchi, mo'ljal ko'rsatuvchi sifatida maydonga chiqsa, bu holda huquq prinsipi bevosita harakat qilayotgan bo'ladi. Shu tariqa huquq prinsiplari muayyan jamiyat hayotini tashkil etishning o'ziga xos vositasi sifatida yaxlit huquqiy borliqning barcha yuridik hodisalari harakatiga o'z ta'sirini o'tkazadi [5, 84–85-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Aytish kerakki, huquq prinsiplari ichida umumhuquqiy prinsiplar katta ahamiyat kasb etadi. Zero, ushbu guruh prinsiplar huquq tizimining barcha huquq sohalariga ta'alluqli bo'ladi. Umumhuquqiy prinsiplarning muhimlariga to'xtalib o'tamiz.

1. *Qonuniylik prinsipi* barcha huquq subyektlari tomonidan qonunga so'zsiz va og'ishmay rioya etish talabida ifodalanadi. Asosiy qonunimizda mustahkamlanganidek, O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konsti-

tutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar (15-modda).

Qonuniylik prinsipi bir vaqtning o'zida huquqdan har qanday chetga chiqishlarga qarshi murosasiz kurashni talab etadi.

2. *Ijtimoiy adolat prinsipi* amaldagi qonunchilikning adolat tamoyillariga mos bo'lishini talab qiladi. Shu ma'noda huquq mustahkamlangan va ro'yobga chiqarilgan adolatdir. Shu bois har qanday yuridik faoliyat, har qanday yuridik qaror, buyruqlar avvalo ijtimoiy adolat prinsipiga mos kelishi kerak.

3. *Demokratizm prinsipi* qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, ularni muhokama qilish va qabul qilishda aholining, tegishli mutaxassislar, soha amaliyotchilarining, ekspertlarning, fuqarolik jamiyati institutlarining keng ishtirok etishi ta'minlanganida ifodalanadi. Masalan, mamlakatimizda regulation.uz, meningfikrim.uz va boshqa platformalarda normativ-huquqiy hujjatlar umumxalq muhokamasiga qo'yilishi demokratizm prinsipining zaruriy ifodasidir.

4. *Tenglik prinsipi* barcha huquq subyektlarining qonun oldida tengligi, bir xil imkoniyatlar berilganligi, ularning bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligida o'z ifodasini topadi. Asosiy qonunimizda mustahkamlab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar (18-modda). Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart (19-modda). Shu bilan birga, huquq subyektlarining qonun oldida birdek majburiyatlarga ega ekanligini ta'kidlash zarur.

5. *Huquq va majburiyatlar birligi prinsipi* har qanday subyektiv huquq mos yuridik majburiyatsiz amalga osha olmaydi. Zero, majburiyatsiz huquq, huquqsiz majburiyat bo'lmaydi. Huquq va majburiyatlarining uyg'unligi – munosib huquqiy munosabatning vujudga kelishi asosidir.

6. *Insonparvarlik prinsipi* insonni e'zozlash, insonni hurmat qilishga asoslanadi. Demokratik jamiyatda inson millatidan, irqidan, kelib chiqishidan, siyosiy qarashlaridan qat'i nazar munosib munosabatga loyiq. Asosiy qonunimizning 13-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi [2, 64-b.; 9, 104-b.].

Xulosalar

Shu tariqa huquq prinsiplari va ularning qonunchilikda va yuridik faoliyatda qo'llanishi haqidagi fikrlarimizni yakunlab quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

huquq prinsiplari norma ijodkorlik jarayoni, huquqni qo'llash jarayonining demokra-

tik va insonparvarlik mohiyatini ta'minlab beradi;

huquqiy tartibga solish mexanizmining samarali ishlashini muvofiqlashtiradi;

davlat organlari qarorlari va fuqarolarning xatti-harakatining qonuniyligini, huquqiy tabiatini baholash mezonini sifatida o'zini namoyon etadi;

fuqarolarning huquqiy madaniyati va huquqiy tafakkurini shakllantirishda va shu tariqa huquq tizimini mustahkamlaydi;

oxir-oqibatda huquq prinsiplari butun huquqiy borliqdagi mavjud huquqiy hodisalarning vujudga kelishi, harakatda bo'lishining g'oyaviy asoslarini tashkil etadigan, ularni bir-biri bilan bog'lab, birligini uyushtirib turadigan umumiy asosiy qoidalar sifatida maydonga chiqadi.

REFERENCES

1. Besson S. General principles in international law – Whose principles? P. 25. Available at: https://sonar.ch/documents/302433/files/BESSON_S._-_General_Principles_in_International_Law_-_Whose_Principles.pdf
2. Axmedshayeva M. Ijtimoiy munosabatlar va huquq [Social relations and law]. Tashkent, TSUL, 2023, p. 57.
3. Filosofskiy entsiklopedicheskiy slovar' [Philosophical Encyclopedic Dictionary]. 2010. Available at: <http://dic.academic.ru/dis.nsf/ens.philosophy/4044>
4. Principle Definition & Meaning. Britannica Dictionary. Available at: <https://www.britannica.com/dictionary/principle>
5. Lazarev V.V. Obshhaya teoriya prava i gosudarstva [General theory of law and state]. Ed. V.V. Lazarev. 3rd ed., revised. and additional. Moscow, Yurist Publ., 2001, p. 83.
6. Odilqoriev X.T. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, Adolat Publ., 2018, p. 189.
7. Pavčnik M. Interpretative Importance of Legal Principles for the Understanding of Legal Texts. *Archives for Philosophy of Law and Social Philosophy*, 2015, vol. 101, no. 1, pp. 52–59. Available at: <https://www.jstor.org/stable/24756729>
8. General Principles of Law. Available at: <https://www.oxfordbibliographies.com/display/document/obo-9780199796953/obo-9780199796953-0063.xml>
9. Saydullaev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, Yuridik adabiyotlar Publ., 2022, p. 104.
10. Jordan. DACI Legal Principles, Legal Values and Legal Norms: are they the same or different? *Academicus*. European School of Law and Governance, Prishtina. Available at: <https://www.academicus.edu.al/nr2/Academicus-MMX-2-109-115.pdf> 09-115/

11. Cankore T. Cognitive classification of legal principles: A new approach to international legal training). *Ankara Law Review*, 2008, vol. 5, no. 2, p. 154. Available at: <https://pdfs.semanticscholar.org/f19c/3b5f1d2749d207b82640ddd2daf0952871e0.pdf>
12. Lazarev V.V., Kornev A.V., Afanas'yev V.S. *Obshchaya teoriya prava i gosudarstva* [General theory of law and state.]. Moscow, Norma Publ., 2017, 592 p.
13. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Uzbekiston Publ., 2023.
14. Golovistikova A.N., Dmitriyev Yu.A. *Problemy teorii gosudarstva i prava* [Problems of the theory of state and law]. Moscow, EKSMO Publ., 2005, p. 374.
15. Azarkhin A.V., Karev D.A., Mikhaylova M.S. *Ponyatiye i klassifikatsiya pravovykh printsiptov* [Concept and classification of legal principles]. *Yevraziyskaya advokatura – Eurasian Bar*, 2020, no. 1 (44), pp. 99-103. DOI: 10.24412/FiNjGA6RLxY. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-klassifikatsiya-pravovykh-printsiptov>
16. Islomov Z. *Davlat va huquq nazariyasi* [Theory of state and law]. Tashkent, Adolat Publ., 2007, pp. 722, 727, 736.
17. Karev D.A. *Kriterii klassifikatsii pravovykh printsiptov: predmetnyy, normativnyy i funktsional'nyy podkhody* [Criteria for the classification of legal principles: substantive, normative and functional approaches]. *Izvestiya Saratovskogo universiteta. Novaya seriya. Seriya Ekonomika. Upravleniye. Pravo – News of Saratov University. New episode. Economics Series. Control. Law*, 2018, vol. 18, no. 3, pp. 357–361. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/kriterii-klassifikatsii-pravovykh-printsiptov-predmetnyy-normativnyy-i-funktsionalnyy-podhody>

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.3./NDJY1929>
UDC: 342.5(045)(575.1)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA SOHASIDAGI DAVLAT BOSHQARUVIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI QO'LLASHNING AYRIM MASALALARI

Axrorov Adxamjon Asrorkul o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası
katta o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-8193-167X
e-mail: adxam.axrorov@mail.ru

Annotatsiya. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish butun dunyoda, xususan, O'zbekistonda ham muhim vazifa hisoblanadi. So'nggi yillardagi eng muhim masalalardan biri O'zbekistondagi ekologik muammolarni hal qilishda xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisoblanadi. Buning uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish butun dunyoda eng istiqbolli vosita sifatida ko'rilmoqda. O'z navbatida, ushbu institutning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida samarali qo'llanishi ko'p jihatdan uning huquqiy tartibga solinganlik samaradorligiga bog'liq. Shu bilan birga, O'zbekiston qonunchiligidagi mavjud normalar hali ushbu shartga javob bermayapti. Chunki ekologiya sohasida davlat-xususiy sheriklikni tartibga soluvchi maxsus norma mavjud emas. Shuningdek, mavjud qonunchilik hujjatlari esa atrof-muhit maqsadlarida u yoki bu sabablarga ko'ra foydalanishni cheklaydigan normalarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat-xususiy sheriklikni huquqiy tartibga solishning eng maqbul modelini aniqlash uchun, avvalo, xorijiy mamlakatlarda bunday huquqiy tartibga solish tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq. Maqolada ekologiya sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo'llash tarmoqlari yuzasidan olimlarning qarashlari va xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra muallif tomonidan mazkur sohada davlat-xususiy sheriklikni qo'llash davlat budjetini tejab qolish, sohaga samarali boshqaruv tizimini joriy etish hamda ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati oshishiga olib kelishi xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: ekologiya, atrof-muhit, davlat-xususiy sheriklik, xususiy sherik, davlat sherigi, davlat-xususiy sheriklik loyihalari, konsessiya.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ В ОБЛАСТИ ЭКОЛОГИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Ахроров Адхамжон Асроркул угли,
старший преподаватель кафедры
«Административное и финансовое право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Экология и охрана окружающей среды – важная задача во всём мире, особенно в Узбекистане. Одним из важнейших вопросов последних лет является

привлечение частных инвестиций в решение экологических проблем Узбекистана. Для этого использование механизмов государственно-частного партнёрства рассматривается как наиболее перспективный инструмент в мире. В свою очередь, эффективное использование данного института в сфере охраны окружающей среды во многом зависит от эффективности его правового регулирования. В то же время действующие нормы законодательства Узбекистана пока не отвечают этому условию, потому что нет специальной нормы, регулирующей государственно-частное партнёрство в сфере экологии. Также действующие правовые документы содержат нормы, ограничивающие его использование в природоохранных целях по тем или иным причинам. Для определения оптимальной модели правового регулирования государственно-частного партнёрства в сфере охраны окружающей среды в Республике Узбекистан в первую очередь необходимо изучить опыт такого правового регулирования в зарубежных странах. Данная статья посвящена изучению этого вопроса. В статье анализируются мнения учёных и опыт зарубежных стран относительно использования государственно-частного партнёрства в сфере экологии. По результатам исследования автором сделан вывод, что использование государственно-частного партнёрства в данной сфере позволит сэкономить государственный бюджет, внедрить эффективную систему управления в сфере, повысить качество предоставляемых услуг.

Ключевые слова: экология, окружающая среда, государственно-частное партнёрство, частный партнёр, государственный партнёр, проекты государственно-частного партнёрства, концессия.

SOME ISSUES OF APPLICATION OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP IN STATE ADMINISTRATION IN THE FIELD OF ENVIRONMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Akhrorov Adkhamjon Asrorkul ugli,
Tashkent State University of Law,
Senior Lecturer of the Department of
Administrative and Financial Law

Abstract. Ecology and environmental protection is an important task all over the world, especially in Uzbekistan. One of the most important issues of recent years is the attraction of private investment in solving the environmental problems of Uzbekistan. For this, the use of public-private partnership mechanisms is considered as the most promising tool in the world. In turn, the effective use of this institution in the field of environmental protection largely depends on the effectiveness of its legal regulation. At the same time, the current norms of the legislation of Uzbekistan do not yet meet this condition. Because there is no special rule governing public-private partnerships in the field of ecology. Also, the current legal documents contain norms that restrict the use for one reason or another for environmental purposes. To determine the optimal model of legal regulation of public-private partnership in the field of environmental protection in the Republic of Uzbekistan, it is first necessary to study the experience of such legal regulation in foreign countries. This article is devoted to the study of this issue. The article analyzes the opinions of scientists and the experience of foreign countries regarding the use of public-private partnerships in the field of ecology. Based on the results of the study, the author concluded that the use of public-private partnerships in this area will save the state budget, introduce an effective management system in the field, and improve the quality of services provided.


Keywords: ecology, environment, public-private partnership, private partner, public partner, public-private partnership projects, concession.

Kirish

Davlat-xususiy sheriklik investitsiya loyihalarini amalga oshirish mexanizmi sifatida rivojlanib bormoqda. Davlat boshqaruvida davlat-xususiy sheriklikni qo'llash davlat budjeti taqchilligi o'rnini to'ldiradi va iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim strategik vazifalarini hal etadi. Davlat va xususiy sektorning hamkorligi ijtimoiy, iqtisodiy va infratuzilmaviy sohalarda amalga oshirilgan loyihalar, ishlab chiqariladigan tovarlar va ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlarning turlari va sifati oshishida, yangi ish o'rinlari yaratilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu sababli butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasida ham ijtimoiy va iqtisodiy sohalari rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etilmoqda. Xususan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi tomonidan Davlat-xususiy sheriklik loyihalari reyestriga 2020-yilda 51 ta, 2021-yilda 157 ta, 2022-yilda 178 ta loyiha kiritilgan. Quyidagi jadvalda 2019-2021-yillarda amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalari sonini ko'rishimiz mumkin (rasm).

2019–2021-yil DXSh asosida amalga oshirilayotgan loyihalar soni, jami 222 ta



Rasm. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari reeystiri ma'lumotlari

Davlat-xususiy sheriklik tizimini keng joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida xususiy sektorga o'tkaziladigan ayrim davlat funksiyalari sonini 3 barobarga oshirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish, suv xo'jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida boshqarish, Toshkent shahrida oqova suvni tozalash tizimini shahar hududidan tashqariga chiqarib, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi inshootlarni barpo etish kabi vazifalar belgilandi.

Farmondan kelib chiqqan holda aniq raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, 2022-2026-yillardagi vazifalardan kelib chiqqan holda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tamoyili asosida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq amalga oshiriladigan ustuvor islohotlar bo'yicha ekologiya va atrof-muhit sohasida quyidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini:

ekologiya sohasida DXSh qonunchiligi asosida jami summasi 338,4 mln AQSh dollariga teng bo'lgan 33 ta DXSh loyihalari;

suv xo'jaligi sohasida DXSh qonunchiligi asosida jami summasi 40,3 mln AQSh dollariga teng bo'lgan 31 ta DXSh loyihalarini amalga oshirish belgilandi.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqot doirasida milliy va xorijiy mamlakatlar tajribasi, huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari asosida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat-xususiy sheriklikni joriy etishning ba'zi jihatlarini tahlil qilindi.

Tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy-huquqiy, mantiqiylik, ilmiy manbalarni

kompleks tadqiq etish, statistik ma’lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

O‘zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlari 2019-yil 10-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi. Lekin ushbu qonun ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi bunday o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirmaydi. Ta’kidlash joizki, 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4845-son Prezident qaroriga asosan ekologiya sohasida faqatgina hududlarda maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik joriy etilgan.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat-xususiy sheriklikni joriy etish masalalari yuzasidan huquqshunos olimlar tomonidan bir qator qarashlar ilgari surilgan. Jumladan, rus huquqshunos olimi A. Rijkenovning fikricha, davlat-xususiy sheriklik jamiyat hayotining turli sohalari-da (jumladan, tabiatni muhofaza qilishda) asosan davlatning moliyaviy resurslari (yoki texnologiyalari) yetarli bo‘lmagan hollarda qo‘llanadi [1, 34-b.].

A. Rijkenovning ushbu fikrini qisman inkor qilgan holda aytishimiz mumkinki, davlat-xususiy sheriklik nafaqat davlat moliyaviy resurslari yetarli bo‘lmagan taqdirda, balki iqtisodiy jihatdan qudratli bo‘lganda ham jalb qilinadi. Chunki davlat-xususiy sheriklik faqatgina davlat mablag‘ini tejab qolmasdan, sohadagi boshqaruvning samaradorligini oshirishga hamda ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifat jihatdan oshishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli iqtisodiy jihatdan qudratli bo‘lgan AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ham davlat-xususiy sheriklik keng joriy qilinganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasiga muvofiq, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga binoan atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Ushbu norma tahlili davlatning ekologik sohadagi asosiy maqsadi fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini ta‘minlash, shu jumladan, ekologik zararli iqtisodiy faoliyatni taqiqlashdir, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Shu sababli davlat ushbu maqsadlarga erishish uchun ekologiya sohasida boshqaruvning zamonaviy samarali usullarini joriy etishi har jihatdan muhimdir.

Davlat-xususiy sheriklik shunday usullardan biri hisoblanadi. Shu bois mazkur sohadagi boshqaruvda davlat-xususiy sheriklikni keng joriy etish va uning nazariy va huquqiy asoslarini chuqur tahlil qilish muhim vazifalardandir. Davlat-xususiy sheriklik ishtirokchilarining maqsad va vazifalari bir-birini to‘ldiradi, shu bilan birgalikda, bir-biridan farqlanadi. Quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin [1, 26-b.].

Jadval

Davlat-xususiy sheriklik

DXSH ishtirokchisi	Maqsadlari	Vazifalari
Davlat hokimiyati organi	Davlatning iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini ta‘minlashda budjet xarajatlarini minimsallashtirish. Budjetni mustahkamlash va soliq tushumlarini oshirish	Ko‘proq qo‘shimcha qiymat yaratish va ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari va tovarlar sifatini oshirish
Tadbirkorlik tuzilmalari	Davlat sektori bilan qo‘shma biznes loyihalardan maksimal foyda olish. Bozorda mustahkam o‘rnashish, faoliyat ko‘lamini kengaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish	Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, tashkilot foydasining o‘shishi uchun sharoit yaratish

Ekologiya sohasidagi davlat-xususiy sheriklik borasida huquqshunos olimlar tomonidan turli fikr-mulohazalar bildirilgan. Xu-

susan, A. Babichning fikricha, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat-xususiy sheriklikni ommaviy va xususiy subyektlarning ekologik jihatdan foydali natijaga erishish (atrof-muhit sifatini yaxshilash, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash va b.) maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish vazifalarini hal qilishga yo'naltirilgan, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik obyektining o'ziga xos xususiyatlari va tavakkalchiliklarni teng ravishda taqsimlash bilan bog'liq holda amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan va nazarda tutilmagan davlat-xususiy sheriklik modellaridan foydalangan holda naf olishga qaratilgan hamkorlik sifatida ko'rib chiqish lozim [2, 8–9-b].

Ba'zi huquqshunoslar ekologiya sohasida davlat-xususiy sheriklik tushunchasi ostida bir tomondan ommaviy sherik, boshqa tomondan xususiy sherikning amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan shaklda (shartnomaviy va korporativ) ikki tomonlama foydali asosda atrof-muhitni muhofaza qilish, atrof-muhitni oqilona boshqarish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida sheriklarning tengligi, xususiy sherikning huquq va qonuniy manfaatlari kafolatini ta'minlash, xususiy sherikning tavakkalchiligini kamaytirish hamda mulkiy va moliyaviy manfaatlarini ta'minlash prinsiplariga asoslangan hamkorlikni tushunishni taklif etadilar [3, 33-b].

Ta'kidlash joizki, normativ-huquqiy hujjatlarda ekologiya sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo'llash tarmoqlari ro'yxati mavjud emas. Shuningdek, huquqshunos olimlar o'rtasida ham bu masala bo'yicha yagona fikr mavjud emas. Jumladan, N. Gavriush tuproqni muhofaza qilish sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga e'tibor qaratsa [4, 12–15-b.], A. Kritsula davlat-xususiy sheriklik yordamida tabiiy yodgorliklarni muhofaza qilishni istiqbolli yo'nalish deb hisoblaydi [5, 178-b.]. I. Panina esa davlat-xususiy sheriklikni chiqindilar bilan ishlashga nisbatan kengaytirishni taklif qiladi [6, 89–92-b.].

Yana bir huquqshunos olim I. Ignatyeva ekologik nochor hududlarni sog'lomlashtirish, o'tmishdagi iqtisodiy va boshqa faoliyat bilan bog'liq ekologik zararni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni davlat tomonidan moliyalashtirish (birgalikda moliyalashtirish) uchun davlat-xususiy sheriklikdan keng foydalanish zarurligi to'g'risida yozadi [7, 168-b.]. Shuningdek, A. Babich atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat-xususiy sheriklik obyektlari ro'yxatiga chiqindilar bilan ishlash, energetika obyektlari (asosan qayta tiklanuvchi energiya), meiorativ tizim, akvakultura va ekologik turizm obyektlari, to'plangan ekologik zararni bartaraf etish, oqova suvlarni tozalash va atmosfera havosini muhofaza qilish, kamyob va yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvon turlarini saqlash obyektlarini kiritishni taklif etadi [8, 9–10-b.]. Bizning fikrimizcha, A. Babich tomonidan keltirilgan ro'yxat nisbatan to'liqroq va ushbu ro'yxatga ekoturizm maskanlarini saqlash, kompensatsiya evaziga ekilgan daraxtlarni parvarishlash, muqobil energiyani ishlab chiqishni ham kiritish mumkin.

M. Maslova ekologiya sohasida davlat-xususiy sheriklikning quyidagi uchta istiqbolli sohasini ajratib ko'rsatadi. Birinchisi, tabiatni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi loyihalar (chiqindilarni boshqarish, o'tgan yillardagi iqtisodiy faoliyatdan zarar ko'rgan buzilgan hududlarni reabilitatsiya qilish; suv havzalariga zararli moddalar tushishini kamaytirish; shaharsozlik faoliyatini ko'kalamzorlashtirish). Ikkinchisi, tabiiy resurslardan (o'rmonlar, yerosti boyliklaridan) kompleks va oqilona foydalanish loyihalari. Uchinchisi, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va obyektlarni yaratish loyihalari [9, 64-b.].

M.P. Kurilovich esa butun ekologik sohani – atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy resurslarni tiklashda davlat-xususiy sheriklik imkoniyat-

larini qo'llashning mustaqil yo'nalishi sifatida ko'rib chiqishni taklif etadi [10, 122-b.].

Yuqorida keltirilgan huquqshunos olimlarning fikrlaridan kelib chiqib aytishimiz mumkin, huquqshunos olimlar o'rtasida ekologiya sohasida davlat-xususiy sheriklik obyektlarining tugal ro'yxati to'g'risida yagona yondashuv mavjud emas. Bizning fikrimizcha, ushbu holat normal hisoblanadi, chunki olimlar tomonidan keltirilgan fikrlar xilma-xilligi sohani yanda chuqurroq tahlil qilishga va ekologiya sohasidagi qaysi munosabatlarga nisbatan davlat-xususiy sheriklikni joriy etishning ijobiy va salbiy jihatlarini to'liq aniqlashga zamin yaratadi.

Ekologiya sohasiga xususiy sektorning kirib kelishi XX asrga to'g'ri keladi. Xususan, o'tgan asrning 80-yillaridan Luiziana shtatida (AQSh) neft va gaz konlarining rivojlanishi natijasida zarar ko'rgan Meksika ko'rfazining qirg'oq zonasi ekotizimini va suvlarining bir qismini saqlab qolish loyihasi mavjud [11, 57-b.]. Merilend shtatida (AQSh) Chesapik o'rmonlarini saqlash bo'yicha muvaffaqiyatli loyiha amalga oshirilmogda (Chesapeake Forest Project) [12]. Vankuverda (Kanada) poligon biogazini utilizatsiya qilish va undan elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun poligon qurilmogda [13, 15–28-b.]. 2007-yildan beri Buyuk Britaniyada (Shimoliy Irlandiya) 2035-yilgacha hisoblangan oqova suvlarni tozalash va oqova suvlarni utilizatsiya qilish loyihasini (Omega loyihasi) amalga oshirmogda, bu Buyuk Britaniyadagi eng yirik davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan biri hisoblanadi [14]. Filippinda, Puerto Galeroda sayyohlar sonining ko'payishi oqibatida yuzaga kelgan oqova suvlarni tozalash muammosi davlat-xususiy sheriklik mexanizmi orqali hal qilindi [15].

O'zbekistonda ekologiya sohasida davlat-xususiy sheriklikni joriy qilish 2020-yilda boshlandi va hozircha faqatgina hududlarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish bo'yicha qator loyihalar yo'lga qo'yildi. Xususan, Davlat-xususiy

shariklikni rivojlantirish agentligining ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunga qadar mamlakatimizda ekologiya sohasida jami 51 ta jumladan, Navoiy viloyatida 2 ta, Toshkent viloyatida 2 ta, Farg'ona viloyatida 10 ta, Namangan viloyatida 5 ta, Buxoro viloyatida 5 ta, Xorazm viloyatida 3 ta, Andijon viloyatida 7 ta, Samarqand viloyatida 4 ta, Qashqadaryo viloyatida 12 ta Surxondaryoda 1 ta davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar imzolandi. Mazkur imzolangan bitimlar doirasida xususiy sherik tomonidan jami 941 mlrd. so'm miqdoridagi investitsiya mablag'lari hisobiga 889 ta maxsus texnika, 5 717 ta konteyner xarid qilinadi, 650 ta chiqindi yig'ish maydoni, 50 ta qayta yuklash stansiyasi va 42 ta saralash hamda 41 ta qayta ishlash zavodi quriladi.

Yuqoridagi raqamlarda ko'rsatilgan misollar ekologiya sohasida davlat-xususiy sheriklikning rivojlanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Amalga oshiriladigan loyihalarning yildan yilga oshib borishi ekologiya sohasida davlat-xususiy sheriklikning qonunchilik asoslarini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekistonda ekologiya sohasida davlat-xususiy sheriklikni tartibga soladigan alohida norma mavjud emas. Mazkur toifadagi munosabatlar "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun va "Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4845-son Prezident qarori asosida tartibga solib kelinmogda. Shu bois sohani tartibga soluvchi milliy qonunchilikni takomillashtirish, maxsus normalarni ishlab chiqishda xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik turli sur'atlarda rivojlanmogda. Masalan, Yevropa davlatlarida ham bu institut turli darajada rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Ispaniyada bu institut allaqachon shakllangan

bo'lsa-da, boshqa davlatlarda endi rivojlanishni boshlayapti [16, 31-b.]. Ba'zi ekspertlar bunday notekis rivojlanish jarayonini ushbu mamlakatlarda infratuzilma tarmoqlarini qayta qurish jarayoni boshqalardan oldin va intensiv ravishda o'tganligi va qonunchilik ushbu maqsadli vazifalarga moslashtirilganligi bilan izohlashadi [17].

Ta'kidlash kerakki, rivojlanayotgan davlatlarda davlat-xususiy sheriklik iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilishning eng jozibali vositalaridan biri hisoblanadi. Ayrim mutaxassislar fikricha, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalangan holda investitsiyalarning sezilarli o'sishi Janubi-Sharqiy Osiyoda, shuningdek, Braziliya, Hindiston va Turkiyada sodir bo'lmoqda [17].

Davlat-xususiy sheriklik bo'yicha yuridik adabiyotlarni tahlil qilish xorijiy mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklikni huquqiy tartibga solishning uchta asosiy modelini ajratib ko'rsatishga imkon beradi [18, 149–371-b.; 19, 104-b.; 20, 82–202-b.].

1. Davlat-xususiy sheriklikni maxsus normativ-huquqiy tartibga soluvchi mamlakatlarda (maxsus huquqiy tartibga solish modeli). Ushbu model markaziy va (yoki) mintaqaviy darajada davlat-xususiy sheriklik sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi yagona maxsus normativ-huquqiy hujjat mavjudligini nazarda tutadi. Ushbu mamlakatlar sirasiga Argentina, Braziliya, Gretsiya, Zambiya, Keniya, Meksika, Qirg'iziston, Polsha, Yaponiya va boshqalar.

2. Davlat-xususiy sheriklikni qisman normativ-huquqiy tartibga soluvchi mamlakatlarda (qisman huquqiy tartibga solish modeli). Bunday mamlakatlarda tegishli huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus normativ-huquqiy hujjat mavjud emas, ammo davlat-xususiy sheriklikning ayrim jihatlari, turlari yoki aniq loyihalarini tartibga soluvchi maxsus qonunlar mavjud. Bunday mamlakatlar qatoriga Germaniya, Daniya, Yangi Zelandiya, Chexiya, Isroil va boshqa bir qator davlatlar kiradi.

3. Davlat-xususiy sheriklikning maxsus normativ-huquqiy tartibga solinmagan mamlakatlari (umumiy huquqiy tartibga solish modeli). Ushbu model davlat-xususiy sheriklik sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qonunlarning deyarli yo'qligi bilan tavsiflanadi. Misol tariqasida Avstraliya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Kanada, Singapur, Shveysariya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarni keltirish mumkin. Ushbu mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik shartnomaviy huquqning umumiy qoidalari, qonun hujjatlari, shu jumladan, xaridlar, majburiy bo'lmagan qo'llanmalar va namunaviy shartnomalar bilan tartibga solinadi.

Ushbu tahlildan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, O'zbekiston maxsus huquqiy tartibga solish modeliga kiradi. Shunday qilib, har bir mamlakatda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni huquqiy tartibga solish ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va ularni xorijiy mamlakatlarda huquqiy tartibga solishning ba'zilarini aniq misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

1. Collins D. Stabilization in investment contracts and changes of rules in host countries: tools for oil & gas investors. Association of International Petroleum Negotiators, 2013.
2. Yackee J. Conceptual difficulties in the empirical study of bilateral investment treaties. *Brooklyn Journal of International Law*, 2008, vol. 33 (2).

3. Schreuer C. The ICSID Convention: a commentary. Cambridge University Press, 2005.
4. Levine S. The intersection of international investment arbitration and the rights of indigenous peoples. *Transnational Dispute Management*, 2012, no. 1.
5. Sheppard A. Public participation in sustainability reporting. *Journal of Environmental Assessment Policy and Management*, 2005, no. 7 (1).
6. Energy Charter Treaty. 1998.
7. Heimann F. The OECD anti-bribery convention: changing the currents of trade. *Journal of Business Ethics*, 2009, no. 89 (1).
8. Mistelis L., Brekoulakis S. Arbitration: procedure and evidence. Kluwer Law International, 2009.
9. Gotanda J. Awarding interest in international arbitration. *American Journal of International Law*, 2008, vol. 112 (1), pp. 40–63.
10. Rudnick A. Enforcing international arbitration agreements in federal courts: Mead v. Oquendo. *Harvard International Law Journal*, 1989, no. 30 (1), pp. 198–206.
11. Akinsokeji Y. Reinsurance regulation in emerging markets - the Nigerian experience. International Association of Insurance Supervisors, 2012.
12. Gil N. Developing relational contracts - trust, opportunism and governance. *Construction Management and Economics*, 2009, vol. 27 (4), pp. 315–325.
13. Speidel R. The characteristics and challenges of relational contracts. *Northwestern University Law Review*, 2000, vol. 94 (3), pp. 823–834.
14. Woldesenbet A., Chileshe N., Haupt T. Critical success factors for the briefing process in construction. *Engineering, Construction and Architectural Management*, 2020, vol. 27 (2), pp. 447–473.
15. Hanna A., Lotfallah W., Aoun D. et al. Mathematical model for the allocation of construction contracts. *Journal of Management in Engineering*, 2013, vol. 29 (3), pp. 252–262.
16. Zou W., Kumaraswamy M., Chung J., Wong J. Identifying the critical success factors for relationship management in PPP projects. *International Journal of Project Management*, 2014, vol. 32 (2), pp. 265–274.
17. Wagner G. The Dispute Shipwreck: 15 Years of the BIT Saga. *Transnational Dispute Management*, 2014, vol. 11 (1).
18. Mahul O., Gurenko E. The macro financing of natural hazards in developing countries. *World Bank Policy Research Working Paper*, 2006, no. 4075.
19. Kirwan B. Disruption on global projects: Insurance perspective. *Managing the Consequences of Major Accidents*. Springer, Cham, 2021, pp. 61-76
20. Arentsen K. Allocation of risk in offshore wind energy contracts. *Offshore Wind Farms*. Elsevier, 2021.
21. Hallowell M., Hardison D., Desvignes M., Gillen M. Information technology and safety: The future of construction site monitoring. *Construction Research and Innovation*, 2013, vol. 4 (2), pp. 44–57.
22. Toole T.M. Construction Project Risk Identification Using Object-Based Image Analysis of Social Media Photographs. *Journal of Construction Engineering and Management*, 2020, vol. 146 (1), p. 04019049.
23. OECD Recommendation of the Council on Public Procurement. 2016.
24. Makstutis G. Public Procurement and Corruption: The Case for Reform. *European Procurement & Public Private Partnership Law Review*, 2017, vol. 2 (3).
25. Environmental and Social Framework. World Bank, Washington, DC, 2017.
26. Hoffman S.L. The law and business of international project finance. Cambridge University Press, 2008.
27. Esty B.C. Why study large projects? An introduction to research on project finance. *European Financial Management*, 2004, vol. 10 (2), pp. 213–224.
28. Webster J.B. Eastern European risks and international construction joint ventures. *Management International Review*, 1990, vol. 30 (2), pp. 125–139.

29. Cotula L. Foreign investment, law and sustainable development: A handbook on agriculture and extractive industries. International Institute for Environment and Development. *IIED Natural Resource*, 2014, iss. 31.
30. Jandhyala S. Three waves of BITs: The global diffusion of foreign investment policy. *Journal of Conflict Resolution*, 2011, vol. 55 (6), pp. 1047–1073.
31. Wellhausen R.L. Investor-state disputes: When can governments break contracts? *Journal of Conflict Resolution*, 2016, vol. 60 (2), pp. 239–261.
32. Uaytok P. Determinants of contract awards: Evidence from developing countries. *Public Procurement Law Review*, 2005, vol. 14 (5), pp. 215–241.
33. Moszoro M., Spiller P.T., Stolorz S. Rigidity of public contracts in Latin America: An empirical analysis. *Journal of Empirical Legal Studies*, 2014, vol. 11 (4), pp. 632–652.
34. Baloi D., Price A.D.F. Modelling global risk factors affecting construction cost performance. *International Journal of Project Management*, 2003, vol. 21 (4), pp. 261–269.
35. Hanna A.S., Camlic R., Peterson P.A., Nordheim E.V. Quantitative definition of projects impacted by change orders. *Journal of Construction Engineering and Management*, 2002, vol. 128 (1), pp. 57–64.
36. Hemanta D., Jollands M., Morris P., Ledbetter W. Global construction market opportunities: Analysis of world major infrastructure construction markets. Management and Innovation for a Sustainable Built Environment, Amsterdam, The Netherlands, 2013, June 19-21.
37. Wang J., Yuan H., Li B., Xue X. Critical factors for risk allocation of public-private partnership projects in China. *Journal of Management in Engineering*, 2013, vol. 31 (5), p. 04014060.
38. Li B., Akintoye A., Edwards P.J., Hardcastle C. Perceptions of positive and negative factors influencing the attractiveness of PPP/PFI procurement for construction projects in the UK. *Engineering, Construction and Architectural Management*, 2014, vol. 2 (2), pp. 125–148.
39. Hosseini M.R., Chileshe N., Zuo J., Baroudi B. Adopting global virtual engineering teams in delivered projects: A qualitative meta-analysis. *Engineering, Construction and Architectural Management*, 2021, vol. 28 (1), pp. 123–150.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.3./TAMW8465>
UDC: 343.23(045)(575.1)

JINOYATCHILIKNI PROGNOZ QILISH VA UNI AMALGA OSHIRISH METODLARI

Abdurasulova Qumrinisa Raimkulovna,

IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi
kafedrası professori, yuridik fanlar doktori
ORCID: 0009-0001-5642-2021
e-mail: professor.abdurasulova@gmail.com

Buranova Raziya Yermahamed qizi,

IIV Akademiyasi tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0000-2339-1372
e-mail: raziya_buranova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada prognoz qilishning rivojlanish tarixi, prognoz tushunchasi, ilmiy prognoz qilish, kriminologiyada, shu jumladan boshqa fanlarda prognoz qilishning ahamiyati, kriminologik prognozning mohiyati va xususiyatlari va differentsiatsiyasi, uning vazifalari, maqsadlari va turlari umuman jinoyat, balki individual jinoiy xulq-atvorni prognoz qilish tushunchasi, kriminologik vaziyat, prognozlash subyektlari va obyektlari, jinoyatni bashorat qilishda foydalaniladigan usulni tanlashda ularning roli, jinoyatni prognoz qilishning umumiy va maxsus usullari: sotsiologik so'rov, statistik usul, ekstrapolyatsiya usuli, ekspert baholash usuli, eng kichik kvadratchalar usuli, ilmiy gipoteza (gipoteza) usuli, misollar bilan ushbu usullarning tasnifi va tushunchasi, jinoyatchilik darajasining o'zgarishini prognoz qilishda uning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini, sabab va sharoitlarini o'rganish lozimligi haqida, inson xulq-atvorining xususiyatlari, shaxsning xulq-atvorini prognoz qilishda uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, jinoyatchilikka qarshi kurashni rejalashtirish tushunchasi, rejalar turlari, rejalarining tarkibiy qismlari, bashorat qilish va rejalashtirishning o'zaro bog'liqligi, jinoyatchilikka qarshi kurashishda va jinoyatchilik bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarning tashkil etilishida kriminologik prognoz qilishning jinoyatchilikka qarshi kurashishni rejalashtirishdagi o'rni haqida fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatchilik, miqdor va sifat ko'rsatkichlari, sabab va shart-sharoitlari, shahsning xulq-atvori, jinoyatchilikni prognoz qilish, sotsiologik so'rov, statistika metodi, ekstrapolyatsiya metodi, ekspert bahosi metodi, eng kichik kvadratlar metodi, ilmiy faraz (gipoteza) metodi, rejalashtirish.

ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ И МЕТОДЫ ЕЁ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ

Абдурасулова Кумриниса Раимкуловна,
доктор юридических наук, профессор кафедры
профилактики правонарушений
Академии МВД Республики Узбекистан

Буранова Разия Ермахамед кизи,
базовый докторант Академии МВД
Республики Узбекистан

Аннотация. В статье раскрываются история развития прогнозирования, понятие прогнозов, научного прогнозирования, значение прогнозирования в криминологии, в том числе и в других науках, сущность, особенности и дифференциация криминологического прогнозирования, его задачи, цели и виды, которые включают в себя преступность в целом, но также понятие прогнозирования индивидуального преступного поведения, криминологической обстановки, субъектов и объектов прогнозирования, их роль при выборе метода, который будет использован для прогнозирования преступности. Приведены общие и специальные методы осуществления прогнозирования преступности: социологический опрос, статистический метод, метод экстраполяции, метод экспертной оценки, метод наименьших квадратов, метод научной гипотезы, а также классификация и понятие данных методов с примерами. Выявлена необходимость изучения количественных и качественных показателей, а также причин и условий, способствующих совершению преступлений при прогнозировании изменения показателей преступности. Проанализированы особенности человеческого поведения, факторы, влияющие на формирование поведения человека, понятие планирования борьбы с преступностью, виды планов, составные части планов, связь прогнозирования и планирования, роль криминологического прогнозирования в планировании деятельности, направленной на устранение проблем в борьбе с преступностью и предупреждение преступности.

Ключевые слова: преступность, количественные и качественные показатели, причины и условия, поведение человека, прогноз преступности, социологический опрос, статистический метод, метод экстраполяции, метод экспертной оценки, метод наименьших квадратов, метод научной гипотезы, метод планирования.

CRIME FORECASTING AND METHODS OF IMPLEMENTATION

Abdurasulova Kumrinisa Raimkulovna,
Doctor of Law, Professor of the
Department Crime Prevention of the
Academy of the Ministry of Internal Affairs

Buranova Raziya Yermakhamed qizi
Doctoral Student of the Academy
of the Ministry of Internal Affairs

Abstract. The article reveals the history of the development of forecasting, the concept of forecasting, scientific forecasting, the importance of forecasting in criminology, including other sciences, the essence, features, and differentiation of criminological forecasting, its tasks, goals, and types, which include crime in general, but also the concept of forecasting individual criminal behavior, criminological situations, subjects and objects of forecasting, and their role in choosing the method to be used for forecasting crime. The general and special methods of realization of crime forecasting are given: sociological survey, statistical method, method of extrapolation, method of expert evaluation, method of least squares, method of scientific hypothesis (hypothesis), as well as the classification and concept of these methods with examples. The necessity of studying quantitative and qualitative indicators, as well as the causes and conditions contributing to the commission of crimes, in predicting changes in crime indicators is revealed. The peculiarities of human behavior, factors influencing the formation of human behavior, the concept of crime control planning, types of plans, components of plans, the relationship between forecasting and planning, and the role of criminological forecasting in planning activities aimed at eliminating problems in the fight against crime and crime prevention are analyzed.

Keywords: crime, quantitative and qualitative indicators, causes and conditions, behavior of a person, forecast of crime, sociological survey, statistical method, extrapolation method, expert assessment method, least squares method, scientific hypothesis method, planning method.

Kirish

Mohiyatiga ko'ra prognozlashtirish har bir shaxsning kundalik maishiy xatti-harakati hisoblanadi. Biz o'z harakatimizning oqibatlarini o'ylamay, ko'rmay qadam bosmaymiz. Yo'lni kesib o'tishdan avval avtomobil transportining harakatini chamalab, yo'lning nisbatan bo'sh bo'lgan vaqtini tanlaymiz. Bu qoidaga rioya qilishga bolalikdan o'rgatishadi, mana shu talablarga rioya qilmagan shaxs haydovchisi yo'l qoidasini buzmagani transport vositasining g'ildiraklari ostiga tushishi mumkin. Agar haydovchi ham yo'l harakati qoidalarini buzsa, falokat ro'y berishi muqarrardir. 2021-yilda respublikamizda 2426 nafar shaxs yo'l transport hodisasining qurboni bo'lgan. 1150 holatda haydovchilar piyodalar o'tish joyida odamlarni urib yuborgan, 10001 ta YTH rasman qayd qilingan, 9230 kishi tan jarohati olgan, ularning 84 % haydovchilarning, 13 % piyodalarning aybi bilan ro'y bergan[1]. Ushbu raqamlarning ancha yuqori ekanligida subyektiv sabab, ya'ni subyektlar bunday oqibatlarni prognoz qilmaganligi ustunlik qiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi

Biz tabiiy yoki ijtimoiy hodisalarning rivojlanish qonuniyatlari va tendensiyalarini qanchalik chuqur bilsak, ularning ehtimoliy o'zgarishlarini prognoz qilish uchun shunchalik ko'p imkoniyatlar ochiladi. Shu munosabat bilan kriminologik prognozlashning paydo bo'lishini ham hisobga olish kerak.

Ijtimoiy va tabiiy fanlarda ilmiy atama sifatida keng qo'llanadigan "prognoz" grek tilidagi «prognosis» so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida "prognoz", "oldindan bilish" degan ma'nolarni anglatadi. Kriminologiyada bu atama ilmiy maqsadlarda keng qo'llanadi va u o'z mazmun-mohiyatiga egadir.

Umuman olganda, oldindan bilish, ya'ni u yoki bu mavhum holatning yuz berishini oldindan prognoz qilish folbinlar, ekstrasenslar tomonidan qo'llanishi bizga yaxshi ma'lum. Zotan, dunyoviy fanlar nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda fikr yuritish

mavhumlik asosida emas, balki ilmiylik asosida bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham prognoz qilish ilmiy bilishning muhim belgisi hisoblanadi.

Kriminologiyaning asosiy predmeti jinoyatchilik bilan bog'liq muammolar bo'lganligi uchun ham bu ijtimoiy muammoning oldini olish va unga nisbatan o'z vaqtida zarur chora-tadbirlar belgilash katta ahamiyat kasb etadi. Jinoyatchilikning qanday turlari vujudga kelishi va qanday shaklda namoyon bo'lishini oldindan bilishda kriminologik prognoz juda muhimdir.

Shuningdek, kriminologik prognozlashtirish avvalgi tendensiyalar va qonuniyatlarga asoslanib, jinoyatchilikdagi asosiy o'zgarishlar yoki aniq shahslar tomonidan jinoyat sodir etish ehtimoli haqidagi ilmiy fikrlarni o'z ichiga oladi.

Har qanday ilmiy tadqiqot ishida bo'lga-nidek, kriminologiyada prognoz qilish ham voqea yoki hodisaning real mavjud bo'lishini talab etadi. Zero, mavjud holatni to'g'ri baholay olish ilmiy bilishning yana bir muhim shartidir. O'z navbatida, ilmiy prognoz natijalarini aniq ifodalash ham katta ahamiyatga ega. Prognoz qilishning shakli turlicha bo'ladi va u doimo o'zgarib turishi mumkin, chunki prognoz qilishning o'zi muntazam va o'ziga xos ravishda muvofiqlashtirilib boriladi.

Material va metodlar

Tadqiqotda jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish masalasi bo'yicha huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Adabiyotlarda kriminologik prognozlash qilishning uchta turi ko'rsatiladi: 1) jinoyatchilikni prognoz qilish; 2) individual jinoyat xulq-atvorni prognozlashtirish; 3) yangi ijtimoiy xavfli shaklga o'tuvchi insonlarning ayrim xulqi (ya'ni kriminal xulq)ning rivojlanishni prognoz qilish [2].

Prognozlashtirish bir tomondan, aniq, konkret prognozni ishlab chiqish; ikkinchi tomondan, prognozlashtirishga oid xulosalarga olib keluvchi maxsus tadqiqot jarayonini anglatadi. Adabiyotlarda “prognozlashtirish” atamasi bilan birga “avvaldan aytish” kabi atamalardan ham foydalanilgan [3, 260-b.]. Ularning barchasi axborotlar, usullar, hajmi va boshqa parametrlarga ko‘ra bir-biridan farq qilsa-da, ularning barchasi borlikdagi voqealarning o‘zgarishi haqida avvaldan prognoz qiladi. Shu sababdan ular sinonim sifatida ishlatiladi.

Prognostik operatsiyalar natijasida prognoz – jinoyatchilik ko‘rsatkichlarida ro‘y beradigan o‘zgarishlar, aniq shaxs (bir guruh shaxslar) tomonidan jinoyatning sodir etilishi (etilmasligi), ijtimoiy xavfli xulqning yangi shakllari vujudga kelishi haqidagi fikr-mulohazalar bildiriladi. Prognozlashtirish natijasi prognoz qilinayotgan jinoyatlar va ijtimoiy xavfli hodisalarga qarshi kurashni rejalashtirish bo‘yicha muayyan amaliy qarorlarni qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kriminologik prognozlashtirish ilmiy va odatiy bo‘lishi mumkin. Odatiy yoki emperik prognozlashtirish huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va boshqalarning kundalik amaliy tajribasiga asoslanadi, chunki bunday prognoz qilish ularning faoliyatlarida qo‘llanadi.

Ilmiy prognozda jinoyatchilik haqidagi tizimli bilimlar, alohida jinoyatlarning sabablari, jinoiy xulq motivatsiyasi, kriminogen va antikriminogen omillarning rivojlantirish qonuniyatlari o‘rganiladi. Ilmiy tahlil asosida u yoki bu voqelikni oldindan bilish va shu orqali yuzaga kelishi va rivojlanish jarayonlarini o‘rganish hamda hozirgi holatiga nisbatan kelgusida qanday shakl yoki holatga o‘tishi xususida prognoz qilish ilmiylik asosida kechmog‘i lozim. Binobarin, jinoyatchilikni prognoz qilishning asosiy sharti ilmiylikdir.

Sobiq Ittifoq davrida demografik, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa ma‘lumotlarning ro‘yxati

450 ga yaqin o‘ziga xos xususiyatlarni o‘z ichiga olgan [3, 262-b.]. Jamiyat isloh qilinayotgan hozirgi davrda ko‘plab belgilarning mazmuni jiddiy o‘zgarmoqda, ammo ularning soni kamaymayapti. Belgilarning har biri va ayniqsa, ularning o‘zaro bog‘liq kombinatsiyasi real bo‘lib, shuning uchun prognoz qilinayotgan jinoyatning darajasi, uning tuzilishiga u yoki bu tarzda ta‘sir qiladi. Bularning barchasi jinoyatchilikni prognoz qilish dastlabki nazariy tahlili va prognostik baholarda ifodalash imkoniyatlarini aniqlashtirishni talab qiladigan vazifa ekanligini ko‘rsatadi.

Kriminologik prognoz qilishning predmetini uning obyektidan farqlash kerak. Sotsiologiyaga oid adabiyotlarda qayd etilganidek, tadqiqot predmetini bevosita o‘lchash mumkin emas [4]. Obyekt haqida xulosalar olishning empirik asosi uning obyektini, ya‘ni o‘rganish jarayonida to‘plangan ijtimoiy voqelikning o‘sha qismidir.

Kriminologik prognoz qilishga ilmiy usullardan foydalanib, kriminologik vaziyatning kelajakdagi holati to‘g‘risida tizimli ravishda ma‘lumot olish deb ta‘rif beriladi [5]. Kriminologik vaziyat deganda jinoyatchilik holati (jinoyatchilikning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari tushuniladi), kriminologik vaziyatda esa jinoyatni belgilovchi omillar tizimi, jinoiy faoliyat esa tadbirkorlik faoliyatining turi va shaxsiy kriminogen potensial (jinoyatning kriminogenligining holati va rivojlanish dinamikasi sifatida tushuniladi).

Kriminologik prognoz qilish tadqiqot obyektidan kelib chiqqan holda o‘zining maqsad va vazifalariga egadir. Prognoz qilishdan asosiy maqsad jinoyatchilikning umumiy holati, miqyosi, tizimi, o‘ziga xos xususiyat lari va dinamikasining qanday bo‘lishi ularning bo‘layotgan o‘zgarishlarga ta‘sirini, shuningdek, jinoyatchi shaxsining yangi toifalarga xos ravishda shakllanishini bilishdir.

Maqsadiga ko‘ra va oldindan bilish muddatlarini belgilash bilan bog‘liq holda kriminologik prognozning maqsad va vazifalari mazmun-mohiyatiga ko‘ra turlicha bo‘li-

shi mumkin. Masalan, prognoz qilinayotgan muddat ko'p vaqtni o'z ichiga olsa, unda maqsad umumiy bo'ladi va, aksincha, qisqa muddatli prognoz qilish ishlarini olib borishda maqsad aniq hamda ma'lum bir holatni tadqiq etishga qaratilishi lozim. Ta'kidlash joizki, prognoz qilish muddati qancha vaqtga belgilanganidan qat'i nazar, ko'zlangan asosiy maqsad qaysi vaziyat yoki holat kelajakda qanday bo'lishi mumkinligini oldindan bilishdir. Buning uchun vaziyat yoki holat to'g'risida imkon darajasida ko'proq axborot to'plash hamda tegishli tahlil ishlarini amalga oshirish lozim. Chunki kriminologik prognozning aniqligi jinoyatchilikni o'rganishda katta ahamiyatga egadir.

Prognozning turlarini tasniflash o'z-o'zidan maqsad emas, uning funksional ahamiyati prognoz qiladigan subyektni prognoz qilish metodologiyasining boshlang'ich tarkibiy qismlari bilan tanishtirishdan iborat bo'lib, kriminologik prognozlashning asosiy turlari: qidiruv va normativ prognozlashtirishdir [6].

Qidiruv prognozlashtirish, deganda kriminologik vaziyatni o'tmishdagi va hozirgi rivojlanish tendensiyalarini shartli ravishda kelajakda davom ettirish orqali, prognozni o'z-o'zidan amalga oshirish yoki o'z-o'zini yo'q qilishga olib kelishi mumkin bo'lgan rejalar, dasturlar, loyihalar, qarorlarni o'rganish asosida prognoz qilish tushuniladi [7].

Jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida normativ prognozlash, birinchi navbatda, kriminologik va davlatning jinoyat-huquqiy siyosati maqsadlari tizimini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ularga erishish ijtimoiy-huquqiy vaziyatning yaxshilanishini kafolatlaydi [8].

Demak, prognozlarning jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi muammolarni hal etishdagi rolga qarab, kriminologik prognoz qilish quyidagi turlarga ajratiladi:

1) operativ (kundalik faoliyatda dolzarb masalalarni hal qilishda foydalaniladi);

2) taktik (o'rta bo'g'inni boshqarishda kriminologik siyosatning maqsad va vazifalarini aniqlash uchun foydalaniladi);

3) strategik (kriminologik siyosatdagi o'zgarishlar darajasi, ko'lami va tabiati jihatidan muhimligi bilan bog'liq);

Kriminologik prognoz qilishning masshtabi nuqtai nazaridan 3 turga bo'lish mumkin [9]:

1) mahalliy (hududiy, idoraviy jihatlarida minimal darajaga tushirilgan);

2) mintaqaviy (idoralararo yondashuv doirasida alohida ma'muriy-hududiy birliklarga nisbatan);

3) global (kompleks xarakterga ega bo'lgan MDH davlatlari miqyosida).

Prognoz qilishni maqsadiga ko'ra:

1) umumiy (prognozning hamma subyektlarga qaratilgan)

2) maxsus (jinoiy xurujlarga, masalan, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning ayrim jihatlarini prognoz qilishga qaratilgan)

3) xususiy (individual, muayyan kriminogen vaziyat va uni zararsizlantirish yoki yo'q qilishning mumkin bo'lgan usullari aniqlash) ga ajratishimiz mumkin:

Prognoz obyektining murakkabligidan kelib chiqib, kriminologik prognoz quyidagilarga bo'linadi:

1) singulyar (birlik) – oddiy, bitta obyektli, masalan, hududdagi ko'cha jinoyatchiligining prognozi;

2) multipl (faktorial) – murakkab, xilma-xil, bir nechta huquqiy va huquqiy bo'lmagan hodisalar tahlil qilinayotganda;

3) tizimli – prognoz qilinayotgan obyektlarning o'zaro bog'liqligining darajasi, yo'nalishi tahlili;

4) metatizimli – haqiqiy tizimning prognoz qilingan ko'rsatkichlari qo'yilgan vazifalarni hal qila olmaganligi, hamda loyihalashtirilgan tizimning faoliyatini prognoz qilishi ko'rsatilgan jarayondi.

Kriminologiyada ilmiy prognoz qilish va uni amaliyotga samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan omillarning o'ziga xos belgilari asosida klassifikatsiya qilish, tizimini yaratish katta ahamiyatga ega. Masalan, agar kriminologik prognoz umumiy bo'lsa, ushbu umumiylik bevosita kriminologiya fani va ji-

noyatchilikning ilmiy prognozidan iboratdir. Shuningdek, jinoyatchilikning prognoz qilish birlamchi va residiv jinoyatlarni prognoz qilish turlariga bo'linishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Aynan shu ikki holat u yoki bu jinoyatchilikning umumiy holatini, ya'ni uning tizimi, o'ziga xos xususiyatlari va dinamikasi bo'yicha prognoz ishlarini tashkil etishni o'z ichiga oladi. Demak, kriminologiyada ilmiy prognoz qilish o'zaro bog'liq tizimdan iborat bo'lib, jinoyatchilikni ilmiy prognoz qilish, yuqorida eslatib o'tilganidek, muddatlari bo'yicha ham farq qiladi. Shunga ko'ra jinoyatchilikni ilmiy prognoz qilish uzoq muddatli, o'rtacha va qisqa muddatlarda o'tkazilishi nazarda tutiladi.

Shaxsning individual xulq-atvorini prognoz qilishning mustaqil yo'nalish bo'lgan keyingi yo'nalish jinoyatchi shaxsini alohida o'rganish imkonini yaratadi. Individual xulq-atvorni prognoz qilish muqaddam jinoyat sodir etgan va qilmishi uchun javobgarlikka tortilgan shaxslarda o'ziga xos xususiyatlarning shakllanishini ilmiy prognoz qilishni o'z ichiga oladi. Yuqorida sanab o'tilgan prognoz qilish turlari umumiy tarzda jinoyatchilikni ilmiy prognoz qilish tushunchasini qamrab oladi.

Shu o'rinda har bir yo'nalishdagi prognoz qilish o'z mazmun mohiyatiga ega ekanligini ham yodda tutish lozim, jumladan, qisqa muddatli ilmiy prognoz jinoyatchilikka qarshi kurashning ma'lum bir qisqa davrini o'z ichiga oladi va shu davrda qanday faoliyat ko'rsatish lozimligi bo'yicha tavsiya beriladi. Qisqa muddatli prognoz orqali jinoyatchilikning o'ziga xos qonuniyatlar asosida qanday o'zgarishi mumkinligi ilmiy nuqtai nazaridan prognoz qilinadi, shu bilan birga, jinoyatchilikning ayrim ko'rsatkichlari bo'yicha yaqin kelajak qanday o'zgarishlar bo'lishi belgilab beriladi, ya'ni bir yildan besh yilgacha yoki shu davr mobaynida har bir yilda qanday o'zgarib borishi mumkinligi taxminiy aniqlanadi.

O'rta muddatga mo'ljallangan ilmiy prognoz qilish ham uzoq muddatli ilmiy prognoz singari jinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyasini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'lib, jinoyatchilikning o'ziga xos shakllanishi hamda o'zgarishi ma'lum bir muddatda qanday kechishi prognoz qilinadi. O'z xususiyatiga ko'ra o'rtacha muddatga mo'ljallangan prognoz qilish uzoq muddatli prognozning uzviy bosqichi hisoblanadi va olti yildan o'n yilgacha bo'lgan davrlarga mo'ljallanadi. Ushbu davr mobaynida jinoyatchilik bilan bog'liq barcha vaziyatlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi va tavsiyalar beriladi.

Qisqa va o'rta muddatli ilmiy prognozlardan farqli ravishda uzoq muddatga qaratilgan prognozlarda asosiy e'tibor ijtimoiy muammolarning eng zarur va dolzarb jihatlariga qaratiladi, ushbu ilmiy prognozlarda faqat bir holatni belgilashi mumkin emas, chunki ijtimoiy jarayon vaqti-vaqti bilan mazmunan va mohiyatan o'zgarib turishini oldindan belgilab berish juda ham murakkabdir. Shuning uchun ham jinoyatchilikni ilmiy prognoz qilishning uzoq muddatlari alohida yondashuvni, barcha tadqiqot ishlarini atroflicha ko'rib chiqilishini taqozo etadi.

Uzoq muddatli ilmiy prognoz ishlari o'n yildan o'n besh yilgacha, ba'zan yigirma yilgacha bo'lgan muddatlarga mo'ljallanishi mumkin. Shu orqali jamiyat hayotidagi barcha jarayonlarni atroflicha tahlil etish va jinoyatchilik sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash imkoniyatlari yuzaga keladi.

Kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar, tendensiyalar va jinoyat shakllarining sifat-miqdoriy prognozlarni amalga oshirishda ko'plab usullar foydalanish mumkin. Prognostika fanida ularning 150 dan ortiq usuli mavjud bo'lib, kriminologiyada prognoz qilish usullarining ulkan arsenalidan faqat jinoyatchilik tendensiyalarini prognoz qilish uchun qo'llanadiganlaridan foydalaniladi.

Umumiy qabul qilingan nuqtayi nazarlarga muvofiq, prognoz qilish usuli – jinoyatchilikni

prognoz qilish maqsadiga uni o'rganishda foydalaniladigan usullar, vositalar yig'indisidir [5, 10-b.]. Tadqiqotning funksional ahamiyati turlicha bo'lib, ularning ba'zilari axborot bazasini yaratish uchun, boshqalari esa ushbu asosiy ma'lumotlardan kelib chiqib, kelajak haqida tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

Zarur prognostik ma'lumotlarni olish jarayonida hujjatlarni yig'ish usuli va birinchi navbatda rasmiy statistik materiallarni o'rganish usullari muhim rol o'ynaydi. Chunki jinoyatchilikning har doim ham latent qismi mavjud bo'lgan va bo'ladi, ikkinchidan, kriminologik statistika faqat ro'yxatga olingan jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarning ko'rsatkichlari bilan cheklanmaydi, prognoz qilishning axborot manbayi matbuot materiallari ham bo'lishi mumkin.

Ko'pgina ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish uchun davlatning kriminologik siyosatiga oid so'rov o'tkazish usuli alohida ahamiyatga ega bo'lib, sotsiologik so'rov o'tkazish prognoz qilish uchun ma'lumotlarini olishning yagona usuli hisoblanadi.

Uslubiy nuqtayi nazardan, so'rovdan kriminologik prognoz qilish maqsadida foydalanishda:

- 1) muxbirlar qanday ma'lumotlarga ega, ushbu ma'lumotlarni qanday olish mumkin;
- 2) kimlarni muxbir sifatida tanlashning maqsadga muvofiqligi;
- 3) olingan ma'lumotlarning qay darajada ishonchli ekanligi;
- 4) respondentlarning malaka darajasi kabi savollarga javob berilishi kerak.

Prognoz qilish uchun:

- 1) jinoyat qonunini buzmagani fuqarolar (qonunga bo'ysunuvchi);
- 2) jinoyatchilar (jinoiy javobgarlikka tortilganlar va sudlanganlar);
- 3) huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari;
- 4) kriminologik siyosatni ishlab chiqishda ishtirok etuvchi mutaxassislarining fikrlari o'rganiladi va umumlashtiriladi [10].

Tadqiqotlarning mukammal bo'lishi uchun usullarni to'g'ri qo'llash katta ahamiyat kasb etadi, nazariy jihatdan qaralganda, ilmiy prognoz qilishning o'zi kriminologiya fanning metodi hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, ushbu metoddan foydalanib tadqiqot olib borish va ko'zda tutilgan maqsadga erishish ham o'ziga xos uslubiy yondashuvni talab etadi, ya'ni ilmiy prognozni amalga oshirish uchun maxsus ilmiy metodlardan foydalanish ehtiyoji mavjuddir.

To'g'ri, kriminologik ilmiy prognozni amalga oshirishda mavjud voqelikning sifati tahlil etiladi, sifat o'zgarishi esa bevosita miqdor o'zgarishlari bilan bog'liqdir.

Demak, jinoyatchilikning miqdor va sifat o'zgarishi doimo o'zaro bog'liq ekan, miqdor o'zgarishlarini o'rganish asosida umumiy xususiyatlar yoki farqlarni aniqlash mumkin. Buning uchun ko'plab jinoyatlar (jinoyatchilik) tadqiq etilib, o'rtacha ko'rsatkichlar topiladi. Bu esa o'ziga xos yondashuvni va aniqlikni talab etadi, jinoyatchilikni prognoz qilishda ko'proq quyidagi metodlardan foydalaniladi.

Statistika metodi ilmiy prognozning eng muhim metodlaridan biri bo'lib, umumlashtirish orqali ko'rsatkichlarni qayd etish ikkinchi darajali, ya'ni asosiy masalaga xos bo'lmagan holatlar inobatga olinmasligini taqozo etadi. Statistika metodida jinoyatchilikning kelgusi holatining miqdor ko'rsatkichlarini ifodalaydi hamda ma'lum bir jadval, diagramma va grafiklar orqali ilmiy prognoz qilishni ifodalaydi.

Kriminologiyada ilmiy prognozni amalga oshirishda qo'llanadigan yana bir metod *ekstrapolyatsiya metodidir*, bu usul ham statistika metodining o'ziga xos davomidir. Ushbu metoddan foydalanib, jinoyatchilikning miqyosi va tizimining oldingi hamda hozirgi holatini o'zaro solishtirish orqali uning o'ziga xos qonuniyatlari aniqlanadi.

Shu maqsadda ma'lum bir davr (yillar) bo'yicha statistik qatorlar tuziladi va prognoz qilinishi lozim bo'lgan davrda jinoyatchilik-

ning o'ziga xos xususiyatlari va oshish tezligining yo'nalishini bildiruvchi ko'rsatkichlar yuzaga chiqadi. Statistik qatorlar absolyut miqdorlar va koeffitsiyentlardan tashkil topgan bo'ladi.

Bunday metodlar orqali o'ziga xos va qat'iy jarayon yoki holatlar bo'yicha prognoz ishlarini amalga oshirish mumkin, ammo jinoyatchilikda hech qachon bir xil va o'zgarishlar bo'lmaydi, doimiy ravishda uning miqdor va sifat ko'rsatkichlari o'zgarib turishini unutmaslik lozim. Shuning uchun ham bu metodlardan faqat alohida turdagi yoki guruhlariga kiruvchi jinoyatlardagi bog'liq holatlarni prognoz qilishda foydalanish yaxshi samara beradi.

Oddiy va eng ko'p tavsiya etilgan usullardan yana biri eng kichik kvadratlar usuli bo'lib, undan foydalanish o'rganish tendensiyalarini bir necha daqiqada aniqlash imkonini beradi. Ushbu usul an'anaviy dasturiy ta'minotga kiritilgan va shuning uchun amalda hamma uchun mavjud bo'lgan Microsoft Excel dastur rejimida kompyuter yordamida prognoz qilish jarayonida qo'llanadi (funktsiyalar dialog oynasida "prognoz" funksiyasi) [11].

Kriminologiyada ilmiy prognozni amalga oshirishda *modellash* metodidan ham samarali foydalanib kelinmoqda. Ma'lumki, kelgusida jinoyatchilikda bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni, ya'ni bu jinoyatchilik hali mavjud emasligi tufayli oldindan tadqiq etish juda murakkab hisoblanadi. Ushbu mavhumlikdan chiqib ketish esa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatni shakllantirish, modelini yaratishni talab etadi va bu uslub esa kriminologiyada ilmiy prognozning o'zagini tashkil etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib tasavvur qilinsa, tadqiqotchida o'n yil avval alohida turdagi bir jinoyat qanday sodir etilgan uning sodir etilishiga ta'sir etgan muhit va jinoyatchi shaxsi to'g'risida yetarlicha axborot bo'lishi mumkin. Biroq aynan shu turdagi jinoyat o'n yildan so'ng qanday sodir etiladi va uning sodir etilishiga ta'sir etuvchi muhit

qanday bo'lishi mumkinligini avvaldan aytish murakkab vazifadir. Aynan shu holatdan kelib chiqqan holda alohida olingan jinoyatning modelini yaratishga ehtiyoj seziladi.

Kriminologiyada ilmiy prognoz qilish deb *ekspert bahosi metodini* joriy etish mumkin. Umuman olganda, u yoki bu yo'nalishda qilingan ishlar tegishli soha mutaxassislari tomonidan baholanishi lozim. Baholash metodining samarasi jinoyatchilik bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni hal etishda chuqur ilmiylikni talab etadi. Tegishli soha bo'yicha tajriba to'plagan malakali va yetuk mutaxassislar fikrini olish katta ahamiyatga ega. Shuningdek, tegishlicha ishlab chiqilgan xulosa varaqalarida to'plangan faktlar ekspert xulosalari asosida baholanishi diqqatga sazovordir. Biroq ushbu metod o'ziga xos kamchiliklardan ham xoli emas. Masalan, ekspertga hal etish uchun qo'yiladigan savollar ro'yxatini tuzish va bu savollar ma'lum bir holatni miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholanishini ta'minlanishiga ham imkon yaratishi zarur.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishda ishtirok etayotgan shaxslarni ekspertlar bilan tenglashtirib bo'lmaydi, chunki ikkinchisi malakali mutaxassislarning so'rovidir. Ko'p hollarda ma'lum bir vakolatga ega bo'lmagan ekspertlar tomonidan asl voqelik to'g'ri va xolis baholanmasligi hamda shu orqali olingan baho haqiqatdan uzoq bo'lishi mumkinligini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

Kriminologiyada ilmiy prognoz sifatida qo'llanadigan yana bir metod – *ilmiy faraz* (gipoteza) ham o'z mohiyatiga ega bo'lib, yuqorida ta'kidlaganimizdek, kriminologiyada ilmiy prognoz kelgusida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyatchilikni tub kompleks o'rganish hisoblanadi.

Tabiat va jamiyatda yuzaga keladigan har qanday voqelik dabdurustdan yuzaga keladi deb qarash to'g'ri bo'lmaydi. Hech bir voqelik o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Ijtimoiy salbiy hodisa, jinoyatchilik ham o'zaro bog'liq jarayon asosida shakllanadi. Demak, ilmiy farazda

muqaddam va hozirgi mavjud voqeliklar inobatga olinishi, albatta laboratoriya kuzatuvlari va tadqiqotlar asosida isbotlanishi darakor.

Ilmiy prognoz va uning biz sanab o'tgan metodlari kriminologiya fanida o'ziga xos maxsus metodlar jumlasiga kiradi va jinoyatchilikning oldini olishda zarur bo'lgan tadqiqotlarni o'tkazishga ijobiy yordam beradi. Eng muhimi, har bir metodning o'zaro bog'liqligini inobatga olish, ilmiy prognozni ishlab chiqish jinoyatchilikni atroflicha tadqiq etish bilan bog'liq ekanligini yodda tutish lozim.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishda ayrim jinoyatlarning sabablarini o'rganish bilan bir qatorda, aynan shu jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslarni jinoyat qilishga undovchi xatti-harakatlarning yuzaga kelishini ilmiy bilish ham katta ahamiyatga ega. Shaxs ruhiyatida jinoyat qilmish sodir etishga ta'sir etuvchi ilatlarning qanday va qachon yuzaga kelishini bilish fan ehtiyojlari uchun g'oyatda zarur. Demak, shaxslarda jinoyat xatti-harakatlarining yuzaga kelishini oldindan bilish va ilmiy prognoz qilish jinoyatchilikning oldini olishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Shuning uchun ham kriminologiyada muayyan shaxsning jinoyat sodir etishi mumkinligi va uni shu yo'lga kirishiga olib keluvchi muhit va, umuman, bu borada ham o'ziga xos qonuniyatlar mavjud ekanligi o'rganiladi va asosiy e'tibor jinoyatchi shaxsiga qaratiladi [12].

Kriminologiyada ushbu muammoni o'rganishda asosan ikki yo'nalishda tadqiqot ishlari olib boriladi. Birinchi yo'nalish muqaddam bir necha bor jinoyat sodir etgan shaxslar (residivistlarning xulq-atvorini prognoz qilish) va uning qanday qilmish sodir etishi mumkinligini tadqiq etilsa, ikkinchi yo'nalishda hali jinoyat sodir etmagan, biroq jinoyat sodir etishga moyil shaxslarni (prognoz qilish) o'rganiladi [13].

Shaxsning o'zini tutishi, xulqi va, umuman xatti-harakatlari ma'lum holatlar natijasida yuzaga keladigan harakatlar yig'indisidir.

Bunda shaxsning o'ziga xos xususiyatlari markaziy o'rinni egallaydi. Shaxsning xulq-atvori jamiyat va undagi mavjud yashash tarziga mos ravishda shakllanadi. Jamiyat a'zolarining o'zlarini tutishi, xulqi ham shaxsning individual shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Agar ushbu qonuniyatga asoslanadigan bo'lsak, shaxsning jinoyat yo'lga kirishidagi asosiy sabablarni oldindan aniqlash mumkin bo'ladi. Bunga shaxsni jinoyat yo'lga kirishiga sabab bo'luvchi ichki va tashqi omillar mavjudligini ilmiy tahlil qilish orqali erishish mumkin.

Shaxsning shakllanishi xususida darhol uzil-kesil xulosa chiqarish to'g'ri. Bo'lmaydi, chunki shaxsning o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishiga birinchi galda vaqt ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni shaxsning shakllanishi qisqa yoki uzoq vaqt davomida ro'y berishi mumkin. Shu bois shaxsning asosiy xislatlarini bilish hamda xulosa chiqarish o'ziga xos yondashuvni talab etadi [14].

Jazoni o'tayotgan mahkumning shaxsini o'rganish boshqa shaxslarga nisbatan osonroq kechadi. Chunki jazoni ijro etish muassasi rahbariyati va jamoasi uning o'ziga xos xususiyatlarini, qiziqishi, xohishi, maqsadlari yoki irodasi qandayligini doimiy ravishda kuzatib borish imkoniyatiga egadirlar. Shaxsning xatti-harakatlari va xulqida ro'y beradigan o'zgarishlarning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi vaziyatlarni aniqlashda ham aynan shu joylarda imkoniyat kengroq bo'ladi.

Shaxsning:

- mehnatga munosabati;
- intizomi;
- mahkumlar ishtirokida tashkil etiladigan jamoatchilik tashkilotlariga bo'lgan munosabati va ishtiroki;
- o'z ustida ishlashi va o'qishga munosabati;
- oilasi bor, yo'qligi hamda oila a'zolari bilan doimiy munosabati;
- qarindosh-urug'lari va do'stlari bilan o'zaro munosabatlari;

- o'zi tomondan sodir etilgan jinoyat va sud hukmiga bo'lgan munosabati;
- sudlanganligi va uning necha marta qaytarilganligi;
- sodir etgan jinoyatining og'ir yoki yengilligi;
- sud hukmi bilan belgilangan jazoning qanchasi o'talغانligi va umuman jazo muhlati;
- mahkum etilguniga qadar jinoyatga moyil va xulqi buzuvchi shaxslar bilan munosabati;
- yashash joyi (shahar, qishloq);
- jazoni o'tab bo'lganidan so'ng shug'ullandigan mehnat faoliyati va ish joyi;
- jazoni o'tab bo'lganidan so'ng o'qishga qiziqishi;
- ijtimoiy-foydali faoliyat yo'nalishlarini qaysi sohalarida davom ettirishi va hokazolar uning xulqiga ta'sir etuvchi holatlar hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar ko'proq jazoni o'tash muassasalari faoliyati bilan uzviy bog'liqligini e'tiborga olgan holda bir qator huquqiy adabiyotlarda "ilmiy prognoz" so'zi shaklan, ya'ni "shartli" degan ma'noda berilishini ko'rish mumkin [15], bu bilan mazmun o'zgarimaydi va shaxsning xulqidagi o'zgarishlarni prognoz qilish jarayoni aniq maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi.

Jinoyatchilar shaxsini ijtimoiy muhitda, ya'ni oila, maishiy hayot, ishlab chiqarish va, umuman, jamiyatda tadqiq etish esa bir qator qiyinchiliklar tug'diradi. Chunki har bir shaxs ustida tadqiqot olib borilishi mumkin emas. Demak, bunday vaziyatlarda jinoyatchining shaxsini o'rganishda, biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, sotsiologik so'rovlar o'tkazilishi maqsadga erishishda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari tahlili

So'nggi o'n yillik davomida ushbu muammo yuzasidan kriminologik tadqiqotlarning olib borilayotganligi aynan shu, ya'ni jinoyatchilarning shaxsini ma'lum bir sharoitda o'rganishning o'ziga xos dolzarbligandir.

Har qanday ilmiy tadqiqot xulosasi amaliyot ehtiyoji uchun xizmat qilmog'i lozim. Kriminologiyada ilmiy prognozni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad, birinchi galda, jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi, ikkinchidan, har qanday ish chuqur va atroflicha ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshirilmog'i lozim. Shunday ekan, ilmiy prognoz jinoyatchilikka qarshi kurashishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan rejalarni puxta ishlab chiqilishiga dastlabki manba bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, bunday rejalarga kriminologiya nuqtayi nazaridan ma'lum talablar qo'yiladi. Shunga ko'ra, kriminologiyada jinoyatchilikka qarshi kurashni rejalashtirish ma'lum bir davrga mo'ljallash (joriy yoki istiqbolli) asosida tashkil etiladigan maqsad va vazifalarni hal etishning vositalari hamda yo'nalishlarini ilmiy tahlil etish, shuningdek, o'tkazilishi lozim bo'lgan tadbirlarning uslubiy va sarfxarajatlar manbasini (moliyaviy, mutaxassislarni jalb etish, moddiy texnika ta'minoti kabilar) ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

Kriminologiyada rejalashtirish subyektlari sifatida jinoyatchilikka qarshi kurash olib boruvchi davlat organlarining xodimlari va ilmiy tadqiqot muassasalari hamda ushbu ilmiy muassasalarning olimlari, mutaxassislari e'tirof etilgan [16].

Rejalashtirish asosan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi [3, 265-b.]:

- ma'lum hudud yoki miqyosda - alohida bir ishlab chiqarish yoki sanoat obyekti, tuman, viloyat, biror-bir hududiy birlik yoki davlat miqyosida;
- ijrochilar va ishtirok etuvchi shaxslar hamda ularning u yoki bu vazifani bajarishlariga ko'ra - tarmoqlar bo'yicha, tarmoqlararo yoki umumdavlat tomonidan belgilanadigan tadbirlarni bajarish bo'yicha;
- rejalashtirish predmeti va bajariladigan vazifalarga ko'ra;
- muddatiga asosan uzoq muddatli (10-20 yil); o'rtacha muddatli (3-5 yil), qisqa muddatli (oy, chorak, yil, 1-2 yil).

Shu bilan birga, davlatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha (masalan, aholi migratsiyasi bilan bog'liq jarayonlar, ta'lim tizimi, maorif, madaniyat va sport kabi ijtimoiy yo'nalishlardagi rivojlantirish bilan bog'liq hollarda), huquqni muhofaza qilish organlarining aniq vazifalari belgilangan rejalarida (ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati, milliy gvardiya, prokuratura kabi idoralar), shuningdek, ularning hamkorlik ishlarini olib borishdagi o'zaro ishlab chiqilgan rejalarida yuzaga keladigan mavjud tadbirlarni rejalashtirilishi ham kriminologiya tavsiyalari asosida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Eng muhimi, jamiyat a'zolarining ayrim toifalari o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashishni yo'lga qo'yish va shu maqsadda aniq chora-tadbirlarning belgilanishi katta ahamiyatga ega (voyaga yetmaganlar, yoshlar, ayollar, residiv jinoyatchilar, guruhij jinoyatchilar yoki mastlik orqasida jinoyat sodir etganlar va h. k.).

Rejalashtirish qaysi yo'nalishda va qaysi shaklda bo'lmasin, mavjud holatga tayanish, aniqlik, muvofiqlashtirish (koordinatsiya), takrorlanmaslik, javobgar shaxslar tomonidan belgilangan vazifaning bajarilishi ta'minlash, rejalashtirish ishlarida uchraydigan kamchiliklar hisobini olib borish kabi prinsiplarga yondashgan holda ishlab chiqilmog'i lozim.

Rejani ishlab chiqish va uning tizimi rejalashtirilayotganda ishning mohiyati, hajmi va tadqiqot obyektlarining xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'lishi va ayni vaqtda jinoyatlarning oldini olish chora-tadbirlarining belgilanishini ham e'tiborga olish zarur. Bu borada hozirgi kunda ichki ishlar va boshqa huquqni muhofaza qilish organlarining rejalarida qo'llanayotgan tizim yaratilganligiga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Bu idoralarning tarmoq va tarmoqlararo rejaları umumiy, maxsus va yakuniy qismlardan iborat bo'lib, jinoyatchilikka qarshi kurashda rejalashtirish ishlari yuqorida biz sanab o'tgan prinsiplar asosida ishlab chiqiladi. Umumiy

qism asosan jinoyatchilik umumiy holatining tahlili, profilaktik chora-tadbirlarning maqsad va vazifalari (jinoyat turlari bo'yicha alohida chora-tadbir ko'rishni e'tiborga olmagan holda), aholi o'rtasida huquqni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish, hokimiyat organlarining turli bo'g'inlari va tarmoqlarida jinoyatchilikka qarshi kurashishni takomillashtirish bo'yicha taklif va mulohazalar berish, shuningdek, profilaktika ishlarini yuritishga mas'ul idoralarni tashkil etishni ham ko'zda tutishi lozim. Eng muhimi, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishga e'tibor umumiy qismda belgilanadigan chora-tadbirlar qatoriga kiritilishi va aniq vazifalar belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Rejaning maxsus qismida esa jinoyatchilikka qarshi kurashda ahamiyatga ega chora-tadbirlar belgilanishi va ularning amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan ishlar aniq ifodalanishi zarur. Nihoyat, yakuniy qismda, yuqorida ta'kidlanganidek, zarur moddiy-texnika, kuch va vositalar manbayi, belgilangan ishlarning yakunlanishi kabilar qayd etilmog'i lozim.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy muammolarni, shuningdek, jinoyatchilik bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarning tashkil etilishi ko'p tomondan rejalashtirishni yuqori darajada bo'lishiga bog'liq. Rejalashtirishda asosiy manba, yuqorida bayon etilganidek, chuqur ilmiylik asosida yaratilgan kriminologik prognozlar hisoblanishini yodda tutishimiz kerak [17].

Xulosalar

Xulosa qilib aytish mumkinki, ilmiy prognoz orqali ma'lum bir davr davomida jinoyatchilikning o'ziga xos shakllanishi va dinamikasini bilishda muhim bo'lgan ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Hozirgi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar jarayonida yuzaga kelayotgan kriminogen holatlarni bartaraf etishda ilmiy prognoz nuqtayi nazaridan yondashish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda jamiyat va davlat manfaatlariga qarshi qaratilgan turli jinoiy

faoliyatlarning yuzaga kelayotganligi kriminologiyada ilmiy prognozni yuqori bosqichga ko'tarilishini taqozo etmoqda. Jumladan, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, g'ayriqonuniy ravishda qurol-yarog', giyohvandlik vositalarining g'ayriqonuniy muomalasi kabi

sotish va o'tkazish kabi jinoiy faoliyatga avvaldan baho berish hamda ularning oldini olish uchun aynan qanday yo'l tutish lozimligini ilmiy prognoz orqali aniqlanishi kriminologiya fani zimmasiga katta vazifalarni yuklaydi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi IIV huquqiy statistika va tezkor ma'lumotlar boshqarmasidan olingan ma'lumotlar [Information obtained from the Department of Legal Statistics and Operational Information of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan].
2. Pankratov V.V. Metodologiya i metodika kriminologicheskikh issledovaniy [Methodology of criminological research]. Moscow, 2016, January, p. 101. DOI: 10.5281/zenodo.45338.
3. Kudryavtsev V.N. Kriminologiya [Criminology]. Moscow, Nauka, 2009, pp. 260, 262, 265.
4. Rabochaya kniga sotsiologa [Sociologist's workbook]. Moscow. 2010, pp. 129, 130.
5. Goryainov K.K. Kriminologicheskaya obstanovka (metodologicheskiye aspekty) [Criminological situation (methodological aspects)]. Moscow, 1991, pp. 7, 10.
6. Bestuzhev-Lada I.V. Problemy sotsial'nogo prognozirovaniya [Problems of social forecasting]. Moscow, 1978, p. 23.
7. Bestuzhev-Lada I.V. Poiskovoye sotsial'noye prognozirovaniye [Exploratory Social Prediction]. Moscow, 1984, p. 24.
8. Bestuzhev-Lada I.V. Normativnoye sotsial'noye prognozirovaniye: vozmozhnyye puti realizatsii tseley obshchestva. Opyt sistemizatsii [Normative social forecasting: possible ways of realizing mudflows in society. Experience of systematization]. Moscow, 1987, p. 27.
9. Avanesov G.A., Vitsin S.Ye. Prognozirovaniye i organizatsiya bor'by s prestupnostyu [Forecasting and organizing the fight against crime]. Moscow, 1972, p. 50.
10. Sheveleva S.V., Grebenkov A.A., Novichkov V.Ye. Kriminologiya [Criminology]. Moscow, Kursk, 2011, p. 45.
11. Magnus Ya.R., Katyshev P.K., Pereseskiy A.A. Ekonometrika. Nachal'nyy kurs [Econometrics. Starting Course]. Moscow, Delo Publ., 2007, p. 504.
12. Alekseev S.L., Salimzyanova R.R. Kriminologiya [Criminology]. Kazan, 2013, p. 53.
13. Prozumentov L.M., Shesler A.V. Kriminologiya [Criminology]. Tomsk, 2007, p. 35.
14. Kleymyonov M.P. Kriminologiya [Criminology]. Moscow, 2018, p. 48.
15. Lisichkin V.A. Teoriya i praktika prognostiki [Theory and practice of forecasting]. Moscow, 1972, pp. 88–111.
16. Pleteneva D.A. Kriminologiya [Criminology]. The Academy of Public Administration under the President of the Republic of Belarus, Minsk, 2005, p. 65.
17. Avanesov G.A. Teoriya i metodologiya kriminologicheskogo prognozirovaniya [Theory and methodology of criminological forecasting]. Moscow, 1972, p. 62.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.3./AJYR5282>

UDC: 343.228(045)(575.1)

ZARURIY MUDOFAA CHEGARASIDAN CHETGA CHIQUIB QASDDAN ODAM O'LDIRISH JINOYATI TARKIBINI ANIQLASH VA KVALIFIKATSIYA QILISH MASALALARI

Hakimov Komil Baxtiyarovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va
korrupsiyaga qarshi kurashish
kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0002-4785-3233
e-mail: hkb22@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish jinoyati tarkibini aniqlash va kvalifikatsiya qilish masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, JKning 100-moddasida nazarda tutilgan odam o'ldirishning obyektiv tomoni quyidagi belgilar mavjudligi bilan tavsiflanishi, ya'ni: mudofaalanuvchining ijtimoiy xavfli harakati; tajovuzchining o'limi ko'rinishidagi ijtimoiy xavfli oqibat; harakatlar va ko'rsatilgan oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish kabilar ham yoritib berilgan. Bundan tashqari, mudofaani qo'llash asosi sifatida tajovuz ijtimoiy xavfli harakat usuli bilan sodir etilishi hamda ijtimoiy xavfli tajovuzni harakatsizlik bilan qaytarish mumkin emasligi, ammo tajovuzchining salbiy ta'sirlaridan qochish, masalan, qochish, huquq-tartibot idoralariga yordam so'rab murojaat qilish orqali oqibatlar kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik bilan bog'liq fikrlar ham berilgan. Maqolada zaruriy mudofaa shart-sharoiti nafaqat jinoiy tajovuz, balki mudofaalanuvchining ushbu tajovuzni qaytarish kuchlari, vositalari va imkoniyatlari, shuningdek, tajovuzchi va mudofaalanuvchining kuchlari nisbatini belgilaydigan boshqa obyektiv omillarni ham o'z ichiga olishi hamda nisbatan qulay va noqulay himoya sharoitlari farqlanishi, bu zarar yetkazishning chegaralari va ulardan chetga chiqishga sezilarli ta'sir qilishi bayon etilgan.

Kalit so'zlari: ayb, zaruriy mudofaa, chegarasidan chetga chiqish, mudofaa, tajovuz, qasddan, odam o'ldirish, jinoyat, jazo, javobgarlik.

ВОПРОСЫ ВЫЯВЛЕНИЯ И КВАЛИФИКАЦИИ СОСТАВА ПРЕСТУПЛЕНИЯ УМЫШЛЕННОГО УБИЙСТВА С ПРЕВЫШЕНИЕМ НЕОБХОДИМОГО ПРЕДЕЛА ОБОРОНЫ

Хакимов Комил Бхтиярович,
доктор юридических наук, доцент кафедры
«Уголовное право, криминология и противодействие коррупции»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы определения и квалификации преступления умышленного убийства, выходящего за пределы необходимой обороны. Также в статье объективная сторона убийства, предусмотренного статьей 100 УК, характеризуется наличием следующих признаков, а именно: общественно опасного поведения подсудимого;

общественно опасного последствия в виде смерти агрессора; причинно-следственной связи между действиями и указанными последствиями. Кроме того, в статье необходимая защита указывается как отражение агрессии. Основанием для применения обороны является совершение агрессии посредством общественно опасных действий, при этом общественно опасная агрессия не может быть отражена бездействием, а последствия возникают в результате уклонения от негативного воздействия агрессора, например побега, обращения за помощью в правоохранительные органы. Есть авторское мнение о том, как этого не допустить. Также в статье к необходимым условиям защиты автор относит не только преступную агрессию, но и силы, средства и возможности обороняющегося для отражения этой агрессии, а также другие объективные факторы, определяющие соотношение сил агрессора и обороняющегося, различает относительно благоприятные и неблагоприятные условия обороны, указывает пределы ущерба, а также существенные последствия отклонений от них.

Ключевые слова: вина, самооборона, посягательство, оборона, посягательство, умышленное убийство, преступление, наказание, ответственность.

ISSUES OF IDENTIFICATION AND QUALIFICATION OF THE CRIME OF PREMEDITATED MURDER WITH EXCEEDING THE NECESSARY LIMIT OF DEFENSE

Khakimov Komil Bakhtiyarovich,

Tashkent State University of Law,
Associate Professor of the Department "Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption", Doctor of Law

Abstract. This article analyzes the issues of determining and qualifying the crime of intentional homicide, deviating from the limits of the necessary defense. Also, in the article, the objective side of murder, provided for in Article 100 of the Criminal Code, is characterized by the presence of the following signs: socially dangerous behavior of the defendant; a socially dangerous consequence in the form of the death of the aggressor; and the causal connection between the actions and the specified consequences are also highlighted. In addition, the necessary defense in the article is to repel aggression. As a basis for the use of defense, the aggression is committed by means of socially dangerous actions, and the socially dangerous aggression cannot be repelled by inaction, but the consequences arise by avoiding the negative effects of the aggressor, for example, running away or turning to law enforcement agencies for help. There are also ideas about not allowing it. Also, in the article, the necessary conditions of defense include not only criminal aggression but also the forces, means, and opportunities of the defender to repel this aggression, as well as other objective factors that determine the ratio of the forces of the aggressor and the defender and distinguish relatively favorable and unfavorable defense conditions. These damage limits, as well as significant implications for deviations from them, are also stated.

Keywords: guilt, self-defense, trespass, defense, assault, intentional homicide, crime, punishment, liability.

Kirish

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish uchun jinoiy javobgarlik masalasini to'g'ri hal qilishda odam o'ldirish belgilari to'liq va aniq ochib berilishi zarur. Bunda, eng avvalo, Jinoyat kodeksining 100-moddasida nazarda tutilgan ji-

noyat tarkibini aniqlash uni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda o'z samarasini beradi.

Jinoyat tarkibi va uning barcha belgilarini to'g'ri tushunish hamda tatbiq qilish JKning 100-moddasi normasini aniq qo'llashning kafolatidir. Hozirgacha odamni zo'rlik bilan hayotdan mahrum qilish qandaydir g'ayritabiiy,

normal idrok uchun qiyin bo'lgan holat sifatida qabul qilinadi.

Biroq majburiylikdan o'zgani hayotdan mahrum qilish holatlari ham mavjud bo'lib, odamlar bunday faktlarni tushungan holda qabul qilishadi, chunki bunda qonunni buzgan va turli subyektlarning qo'riqlanadigan manfaatlariga noqonuniy tajovuz qilgan odamning o'limi haqida so'z boradi. Ko'pincha bunday tajovuzlar inson hayoti uchun xavfli bo'lgan zo'rlik bilan bog'liq yoki mudofaalanuvchi uchun kutilmaganda sodir etiladi. Bu mezonlarni hisobga olgan holda, tajovuzchini hayotdan mahrum qilish qonuniy va javobgarlikni istisno qiluvchi holat deb tan olinadi.

Material va metodlar

Mazkur maqolada zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish jinoyati tarkibini aniqlash va kvalifikatsiya qilish masalalarini tahlil etishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, huquqni qo'llash amaliyoti usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish o'ziga xos xususiyatlarga ega va sinchkovlik bilan huquqiy baholashni talab qiladigan qilmish bo'lib, ularni qasddan o'lim yetkazishning boshqa faktlaridan farqlash kerak.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish jinoiy javobgarlikni istisno etmaydi, balki ushbu qilmishni sodir etish orqali shaxs o'zi yoki boshqa shaxslar yoxud jamiyat yoki davlatning qonuniy manfaatlarini jinoiy tajovuzdan himoya qilishga intilganligi sababli tayinlanadigan jazo yengilroq sanaladi.

Har bir huquqbuzarlikning g'ayriijtimoiy mohiyati, avvalambor, uning obyekti, boshqacha qilib aytganda, insonning hayotiy faoliyati, jamiyat va davlatdagi ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Jinoyatning obyekti nafaqat qilmishning xarakteri va ijtimoiy

xavflilik darajasi, balki ko'p jihatdan uni sodir etish usulini ham belgilab beradi. Boshqa shaxsning hayotiga tajovuz qilish usuli jinoyat obyektining xususiyati bilan belgilanadi [1, 16-20-b.].

Qonun chiqaruvchi sodir etish shakllari va usullaridan qat'i nazar, hayotdan mahrum qilishni odam o'ldirish deb tan oladi. Biroq ular vositasida insonni obyektiv ravishda hayotdan mahrum qilish mumkin bo'lgan xulq-atvor usullarigina nazarda tutiladi. Jinoyat har doim ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi. Jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning jami emas, balki aynan shu munosabatlar shaxsga qarshi jinoyatlarning obyekti hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Jinoyat huquqi fanida odam o'ldirishni o'z ichiga olgan hayotga qarshi jinoyatlarning obyektini aniqlashga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas [2].

Ayrim mualliflar odam o'ldirishning bevosita obyektini inson hayoti va sog'lig'ini qo'riqlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar deb hisoblashadi. Ular tomonidan yashash huquqiga har bir insonning obyektiv huquqi sifatida qaraladi. Bunga boshqa shaxslarning har qanday odam hayotiga tajovuz qilishdan tiyilish majburiyati qarshi turadi [3, 784-787-b.].

A.N. Krasikov fikriga ko'ra, "odam o'ldirishda, birinchi navbatda, ijtimoiy munosabatlarga emas, balki inson huquqlariga tajovuz qilinadi. U odam o'ldirishda tajovuzning bevosita obyekti sifatida yashash huquqini ko'radi" [4, 76-77-b.]. N.I. Zagorodnikov "inson hayoti" va hayotni qo'riqlash hamda unga bog'liq ijtimoiy munosabatlarni bir tushuncha sifatida baholaydi: "Hayot, sog'liq deganda biz fiziologik ma'nodagi "hayot"ni nazarda tutmaymiz, balki ushbu atamalarini shaxsni qo'riqlashga oid ijtimoiy munosabatlarning jami sifatida tushunamiz" [5, 56-62-b.]. Bir qator mualliflar ijtimoiy munosabatlar bilan birga inson hayotini ham tajovuz obyekti deb hisoblashadi [6, 318-323-b.].

K.I. Popov yondashuviga ko'ra, "hayot va sog'liqning qimmatini tajovuz qilinaotgan ijtimoiy munosabatlar yig'indisidan ko'ra ancha yuqori. Bir tomondan, ushbu jinoyat sodir etish natijasida zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni, ikkinchi tomondan, mazkur jinoyatning obyekti sifatida odam o'ldirish vaqtida inson hayoti va sog'lig'i hamda tan jarohati yetkazishda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni kiritadi. Ushbu masalaning yana bir nazariy yechimi faqat ijtimoiy munosabatlarning qo'riqlanadigan obyekti sifatida tan olinishi insonning qimmatiga oid axloqiy qoidalar va jinoyat qonunining bevosita ko'rsatmalariga ziddir" [7].

Yakuniy nuqtayi nazar yanada ishonchliroq bo'lib, bunda inson hayoti nafaqat huquqiy normalar bilan qo'riqlanadigan subyektiv huquq, balki mustaqil ijtimoiy, ma'naviy qadriyat hamdir. Zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib odam o'ldirishning obyekti boshqa odam hayoti hisoblanadi. Jinoyat huquqida inson hayoti faqatgina biologik, tabiiy jarayon emas, balki ijtimoiy guruh sifatida ham ko'rib chiqiladi, chunki inson jamiyat a'zosi va ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchisi sanaladi.

Shaxsga qarshi jinoyatlarning turdosh obyekti ma'lum bir ijtimoiy munosabatlar, muayyan manfaatlar va ne'matlar, masalan, hayot, sog'liq va h.k. Ko'rib chiqilgan jinoyat tarkibining bevosita obyekti sifatida ham ijtimoiy, ham biofizik mazmunini nazarda tutgan holda tajovuzchining hayoti tan olinishi kerak.

Jinoyatning bevosita obyekti – hayot uning biologik namoyon bo'lishida bevosita idrok etilishi mumkin. Uning mavjudligi yoki yo'qligi tibbiyot fanining zamonaviy yutuqlari asosida aniqlanadi.

JKning 100-moddasida keltirilgan odam o'ldirish deganda mudofaalanuvchi, uchinchi shaxslar, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sodir etilgan qilmish nazarda tutiladi.

Tajovuzchini hayotidan bunday qasddan mahrum qilish so'zsiz tajovuzning xarakteri va ijtimoiy xavflilik darajasiga mutanosib emas. Bu turdagi odam o'ldirishning aynan tajovuz obyekti jinoyatning ijtimoiy xavfliligini belgilaydi. Bu, avvalo, insonning eng qimmatli ne'mati – hayotini yo'qotishida ifodalanaadi.

Mudofaa holatida odam o'ldirishning bevosita obyekti tajovuzchining hayoti bo'lib, bunda jabrlanuvchining biror-bir tavsifi rol o'ynamaydi. Har qanday odamning hayoti har doim bebaho ne'mat bo'lib, jabrlanuvchining u yoki bu tavsifiga bog'liq emas. Odam o'ldirish obyekti qimmatini va ahamiyatini odam o'ldirish turiga qarab hech qanday o'zgarishlarni boshdan kechirmaydi.

Tajovuz obyekti jinoyatning obyektiv tomonini, ya'ni ijtimoiy xavfli harakatning xarakteri va zararli oqibatlar turi, mazmuni va o'ziga xosligini aniqlash uchun katta ahamiyatga ega. Bu qaysidir ma'noda qilmishning xavflilik darajasini belgilaydi.

JKning 100-moddasida nazarda tutilgan odam o'ldirishning obyektiv tomoni quyidagi belgilar mavjudligi bilan tavsiflanadi: mudofaalanuvchining ijtimoiy xavfli harakati; tajovuzchining o'limi ko'rinishidagi ijtimoiy xavfli oqibat; harakatlar va ko'rsatilgan oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish.

Zaruriy mudofaa tajovuzni qaytarishdan iborat. Mudofaani qo'llash asosi sifatida tajovuz ijtimoiy xavfli harakat usuli bilan sodir etiladi.

Ijtimoiy xavfli tajovuzni harakatsizlik bilan qaytarish mumkin emas. Ammo tajovuzchining salbiy ta'sirlaridan qochish, masalan, qochish, huquq-tartibot idoralari yordam so'rab murojaat qilish orqali oqibatlar kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik mumkin. Biroq ijtimoiy xavfli tajovuzlardan qochish yoki boshqa shaxslardan yordam so'rash imkoniyatidan qat'i nazar, o'zini himoya qilish huquqi subyektga tegishlidir.

Mudofaalanuvchining manfaatlariga tajovuz qilgan shaxsga faqat faol harakatlar orqa-

li zarar yetkazish mumkin. Faqatgina faol mudofaa ijtimoiy munosabatlarga nisbatan oqibatlarining bartaraf etilishini ta'minlaydi. Faol mudofaani zarar yetkazmasdan qarshi turish deb tushunish xatodir. Bu fikr zaruriy mudofaa mazmuniga mos kelmaydi. Ya'ni uning noqonuniy shakli sifatida mudofaadan chetga chiqish ruxsat etilgan chegaradan tashqariga chiquvchi harakat natijasida imkonlidir.

Ushbu qilmish uchun zaruriy shart mavjud bo'lib, bu sodir etish shart-sharoiti, ya'ni huquq bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga ijtimoiy xavfli tajovuz yoki to'g'ridan to'g'ri tajovuz tahdididir [8, 62-b.].

Zaruriy mudofaa shart-sharoiti nafaqat jinoiy tajovuz, balki mudofaalanuvchining ushbu tajovuzni qaytarish kuchlari, vositalari va imkoniyatlari, shuningdek, tajovuzchi va mudofaalanuvchining kuchlari nisbatini belgilaydigan boshqa obyektiv omillarni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, nisbatan qulay va noqulay himoya sharoitlari farqlanadi. Bu zarar yetkazishning chegaralari, shuningdek, ulardan chetga chiqishga sezilarli ta'sir qiladi.

Mudofaa holati haqida so'z ketganda, zaruriy mudofaa yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan barcha qilmishlar, shu jumladan, tarkibiga vaqt, joy, vositalar va obyektiv tomonning boshqa fakultativ belgilarini o'z ichiga olishini nazarda tutish lozim.

Bunday belgilar ko'rib chiqilayotgan jinoyatning zaruriy belgilariga tegishli emas. Bu, shubhasiz, ular o'zlari tajovuzning ichki mazmunini o'zgartirmasliklari va shuning uchun JKning 100-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning shart-sharoitiga taalluqli emasligi bilan bog'liq. Ular ushbu tarkibdan tashqarida joylashgan. A.V. Naumovning fikricha, "Shu bilan birga, jinoiy tajovuz sodir etilgan joy, vaqt va vaziyat mudofaalanuvchining tajovuz xarakteri va xavfliligini baholashda xato yuzaga kelishiga hissa qo'shganda, ular mudofaa holati jinoiy bo'lmagan qilmish deb tan olish uchun asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi" [9, 73-b.].

Qonun o'rganilayotgan tarkibning zaruriy belgisi sifatida obyektiv tomonga taalluqli bo'lgan na usul va na qurollarni kiritgan. Bundan kelib chiqadiki, harakat har qanday vositalar yordamida har qaysi usulda amalga oshirilishi mumkin. Biroq bu harakatlar ruxsat etilgan zaruriy mudofaa chegaralaridan tashqariga chiqadi.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish obyektiv tomonining ikkinchi belgisi ijtimoiy xavfli oqibat – tajovuzchining o'limi hisoblanadi. Ushbu natija JKning 100-moddasi dispozitsiyasida nazarda tutilgan. Binobarin, mazkur jinoyat faqat tajovuzchining o'limi kelib chiqqan taqdirda, tugallangan deb tan olinishi mumkin, chunki ushbu modda tuzilishiga ko'ra moddiy tarkibli jinoyat sanaladi.

Ko'rsatilgan oqibatlar bo'lmagan taqdirda, aybdorning to'g'ri qasd bilan sodir etilgan va tajovuzchini hayotdan mahrum qilishga qaratilgan harakatlari jinoyatga suiqasd sifatida ko'rib chiqilishi va JKning 25-moddasi orqali 100-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish obyektiv tomonining uchinchi zaruriy belgisi mudofaalanuvchining ijtimoiy xavfli harakati va yetkazilgan zarar o'rtasida sababiy bog'lanishdir [10, 74-b.].

Bunda bir jinoyat – odam o'ldirishning og'irroq (JK 97-modda) va xavfliligi kamroq (JK 100-modda) tarkiblari uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonuni normalarining raqobatlashuvi vaziyati yuzaga keladi. Bunday holda jinoiy qilmishlar ikkita raqobatlashuvchi huquqiy normalar bilan qamrab olinadi, ammo ulardan faqat bittasining belgilariga to'g'ri keladi.

Ushbu turdagi raqobatning umumiy qoidalariga tayanib, yengillashtiruvchi holatlarga ega jinoyat tarkibini nazarda tutuvchi norma, ya'ni JKning 100-moddasi dispozitsiyasida belgilangan yengillashtiruvchi tarkib qo'llaniladi.

Jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun uning subyektiv tomonini to'g'ri aniqlash muhim rol o'ynaydi. Subyektiv tomon qilmishning kvalifikatsiyasi to'g'risida to'g'ri qaror qabul qilish uchun muhim bo'lgan asosiy belgidir.

JKning 100-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning subyektiv tomoni masalasi zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish tushunchasi masalasi bilan birga tahlil qilinadigan eng murakkab jihatlardan hisoblanadi. Muayyan ishlar bo'yicha tegishli organlar tomonidan qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi va asosliliigi ushbu masala bo'yicha to'g'ri xulosaga kelish bilan bog'liq.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirishning subyektiv tomoni subyektivning o'z harakatlari va ularning sodir etilishi natijasida kelib chiqqan jabrlanuvchining o'limiga bo'lgan ruhiy munosabati bilan ifodalanadi [11, 252–256-b.]. Mudofaadan chetga chiqishda hayotga qarshi jinoyatning muayyan tarkibini himoyaning tajovuz usuli va ijtimoiy xavfliligi darajasiga nomutanosibliigi bilangina aniqlash imkonsizdir. Ushbu obyektiv faktlarga nisbatan shaxsning ruhiy pozitsiyasini aniqlash va asoslash ham talab qilinadi.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirishning obyektiv tomoni tajovuzning xarakteri va ijtimoiy xavflilik darajasiga aloqador bo'lmagan qasddan qilingan harakatlar va tajovuzchiga ortiqcha zarar yetkazishda, boshqacha qilib aytganda, bilaturib mudofaa zaruriyligini keltirib chiqarmagan zarar yoki sodir etilgan tajovuz tahdidiga nomutanosib bo'lgan zararda ifodalanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, vaziyatlarining katta qismida zaruriy mudofaa chegaralaridan chetga chiqib odam o'ldirish egri qasd bilan sodir etiladi. Bunda aybdor himoyani amalga oshirgan holda ijtimoiy xavfli harakat qilayotganini angelaydi, qilmish natijasida tajovuz qilgan shaxsga jabrlanuvchi xohlaganidan ortiqcha va shart-sharoit ham-

da himoya usuliga mutanosib kelmaydigan zarar yetkazilishini taxmin qiladi. Shunga qaramay, aybdor bu zararining kelib chiqishini istamaydi, lekin ongli ravishda bunga yo'l qo'yadi.

Shu bilan birga, odam o'ldirish to'g'ri qasd bilan ham sodir etilishi mumkin. Biroq to'g'ri qasd bilan himoyadan chetga chiqishga doir jinoyatlar amaliyotda egri qasd bilan sodir etiladiganlariga qaraganda kamroq uchraydi [12, 96-b.].

Bu tajovuzni qaytarishda hujum qiluvchining o'limi mudofaalanuvchi harakatlarining yakuniy maqsadi hisoblanmasligi bilan izohlanadi. O'zini himoya qilib, u ongli ravishda nomutanosib zararining kelib chiqishiga yo'l qo'yadi.

Mudofaalanuvchi, qoida tariqasida, chegaralari buzilgan mudofaa tezkor va juda ham hissiy darajada o'tishi sababli tashvishli, hayajonlangan holatda bo'ladi. Shunday qilib, umumiy qoidaga ko'ra, mudofaalanuvchida jabrlanuvchining o'limi shaklida ijtimoiy xavfli oqibatning kelib chiqishi istagi bo'lmaydi.

Tajovuzchiga zarar faqat mudofaa vositasida yetkazilishi sababli mudofaalanuvchini ko'pincha aniq bir zarar bilan emas, balki qonun bilan muhofaza qilinuvchi manfaatlarini xavfdan himoya qilishi mumkin bo'lgan har qanday zarar qoniqtiradi.

To'g'ri qasd jabrlanuvchi o'zining tajovuzkor qilmishlari bilan, asta-sekin, aksariyat hollarda, ma'lum bir yopiq makonda salbiy, toqat qilib bo'lmaydigan vaziyatni keltirib chiqaradigan holatlarga xosdir va hujum qiluvchini hayotdan mahrum qilishga intilib, jabrlanuvchining harakatlarini tahdid, kaltaklash bilan ogohlantirib, o'zini himoya qilishga harakat qiladi.

To'g'ri qasd uchinchi shaxslarning hayotiy ahamiyatga ega manfaatlarini o'ta xavfli hujumdan mudofaa qilishda mudofaalanuvchi hujumchiga ongli ravishda og'ir zarar yetkazgan holatga ham xos.

JKning 100-moddasida javobgarlik nazarda tutilgan huquqbuzarlik ijtimoiy xavfli

tajovuz yoki jabrlanuvchi tomonidan bunday tajovuzning haqiqiy xavfi yaratilishi ta'siri ostida sodir etiladi. Tajovuz boshlanishigacha, jinoyatchi jinoyat sodir etishni rejalashtirmaydi va unga tayyorgarlik ko'rmaydi.

Shunday qilib, ushbu huquqbuzarlik hujumga sabab bo'lgan ichki qo'zg'alish paytida sodir etiladi, bu esa unga tayyorgarlikni istisno qiladi. Ushbu qoida jinoyat huquqi nazariyasi va sud amaliyotida umum tan olingan.

JKning 100-moddasi dispozitsiyasida vazifa ham, motiv ham subyektiv tomonning ajralmas belgilari sifatida nomlanmaydi. Shunga qaramay, *sud amaliyoti materiallarini tahlil qilar ekanmiz, mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilishda uning motiv va maqsadini o'ziga o'xshash jihatlarini aniqlovchi belgisi sifatida ko'rsatib o'tadi*, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Maqsad va motiv JKning 100-moddasi dispozitsiyasida belgilanmagan bo'lsa-da, JKning 37-moddasida maxsus maqsad keltirilgan bo'lib, u huquq bilan muhofaza qilinuvchi manfaatlarni himoya qilishdir.

Jabrlanuvchining ijtimoiy xavfli harakati tufayli kelib chiqqan harakatlarni sodir etishda bunday maqsadning yo'qligi ushbu harakatni JKning 100-moddasiga muvofiq tavsiflash imkoniyatini istisno qiladi. Mudofaa chegaralaridan chetga chiqib qasddan odam o'ldirishda maqsad tarkibning zaruriy belgisidir.

Jinoyatning motivi – jinoyat sodir etish orqali maqsadga erishish uchun ongli ichki istakdir. Insonning har qanday harakati, aslida, ongli va irodaviy xulq-atvor sanaladi. Inson o'zi uchun maqsadni belgilaydi, so'ngra unga erishish uchun vositalarni topadi [13].

JKning 37-moddasiga binoan, mudofaa-lanuvchining maqsadi shaxs, uchinchi shaxslar, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishdir. Himoya chegarasidan atayin chetga chiqqanning maqsadi tajovuzchiga zarar yetkazish orqali bir vaqtning o'zida shaxsiy, uchinchi shaxslar, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Biroq bu zarar

ruxsat etilgan chegaralardan obyektiv ravishda chetga chiqadi.

Aybdor JKning 100-moddasida nazarda tutilgan jinoyat sodir etgan holda, tajovuzga chek qo'yish maqsadida harakat qiladi, lekin maqsadni ijtimoiy xavfli tarzda amalga oshirayotganini angelaydi. Shunday qilib, harakatlarning maqsadi huquq bilan muhofaza qilinuvchi manfaatlarni tajovuzdan himoya qilish va uni bostirish hisoblanadi, bunda maqsadga erishish usuli ijtimoiy xavfli ekanligi anglanadi. *Motiv maqsad bilan bevosita bog'liqdir.*

Motiv va maqsadning o'zaro aloqasi harakat asosini tashkil qiladi, unga muayyan mantiqiy ma'no beradi. Motiv va maqsad o'zaro bog'liq tushunchalar hisoblanadi. Harakat istagi sifatida motiv o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. JKning 100-moddasida nazarda tutilgan jinoyatda motiv tajovuz bilan bog'liq. Jinoiy tajovuz har doim ijtimoiy munosabatlar uchun tahdidni yuzaga keltiradi [14, 3-15-b.].

Ushbu tahdid uni yo'q qilishni talab qiladi. O'z-o'zini himoya qilishdan chetga chiqishda aybdor ijtimoiy xavfli harakatlar bilan hujumni bartaraf etayotganligini angelaydi. Ma'lumki, harakat motivi harakat jinoyat qonuni bilan taqiqlangan taqdirdagina jinoyat motiviga aylanadi [15, 3962-b.]. Ya'ni zaruriy himoya chegarasidan chetga chiqib odam o'ldirish g'ayriijtimoiy motivga ega.

Xulosalar

Xulosa qilish mumkinki, huquqni qo'llash amaliyotida qonunni bir xil va aniq qo'llash bo'yicha eng muhim tamoyillardan biri buzilmoqda, chunki sudlar JKning 37-moddasi 1-qismidagi normani turlicha qo'llamoqda va talqin qilmoqda. Jinoiy va qonuniy himoyani farqlash muammolari qonunchilik va sud amaliyotida to'liq hal qilinmagan. Ushbu farqlashning yo'qligi xato va qarama-qarshi amaliyot ehtimolini keltirib chiqarmoqda. Bu esa zaruriy mudofaa to'g'risidagi qonunchilikni yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Nazarimizda, JKning 37-moddasi 1-qismi quyidagi tahrirda bayon etilishi kerak: “Zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya’ni mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlari, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog’ida har qanday zarar yetkazish, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmagan bo’lsa va bunday tajovuz mudofaalanuvchi yoki boshqa shaxsning hayoti uchun xavfli bo’lgan zo’rlik yoki shunday zo’rlik bilan bevosita tahdid qilish bilan bog’liq bo’lgan bo’lsa, jinoyat deb topilmaydi”.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Birinchi, zaruriy mudofaa – tajovuz qiluvchi shaxsga zarar yetkazish yo’li bilan amalga oshiriladigan ijtimoiy xavfli tajovuzdan qonuniy himoyadir. Zarar mudofaalanuvchi yoki boshqa shaxslarning shaxsi va huquqlari, jamiyat yoki davlatning qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini ijtimoiy xavfli tajovuzdan himoya qilishda yetkaziladi. Bunda tajovuz mudofaalanuvchi yoki boshqa shaxsning hayoti uchun xavfli bo’lgan zo’rlik yoki bunday zo’rlikning bevosita tahdidi bilan bog’liq bo’lishi, shu bilan birga, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishga yo’l qo’yilmagan bo’lishi kerak.

Ikkinchi, qonuniy zaruriy mudofaa mudofaa harakatlarining jinoyat huquqi nazariyasida zaruriy mudofaaning qonuniylik shartlari, deb ataladigan muayyan talablarga muvofiqligini anglatadi. An’anaga ko’ra, jinoyat huquqi nazariyasida zaruriy mudofaaning qonuniyligi shartlari ijtimoiy xavfli tajovuz va himoya bilan bog’liq ikki guruhga bo’linadi.

Uchinchi, davlat yoki jamoat manfaatlari yoki mudofaalanuvchining o’zi va boshqa har qanday shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tahdid soladigan ijtimoiy xavfli qilmishlardan zaruriy mudofaaga yo’l qo’yiladi. Shaxs qasddan hujum qo’zg’atgan hollarda zaruriy mudofaa holati tan olinmaydi.

To’rtinchi, qonuniylikning tajovuzga tegishli shartlari sifatida quyidagilar taklif qilinadi:

- tajovuzning ijtimoiy xavfliligi uni sodir etish paytida u hayot uchun real xavf tug’dirganligi yoki xavfli usulda sodir etilganligini anglatadi;

- tajovuz – bu har doim faol harakatdir;

- tajovuzning mavjudligi (allaqachon boshlangan, ammo hali tugamagan) – bu ma’lum bir vaqt oralig’i bo’lib, uning davomida shaxs tajovuzdan himoya qilish huquqiga ega bo’ladi. Har bir vaziyatda boshlang’ich va tugash paytlari aniqlanishi kerak;

- tajovuzning haqiqiyliigi. Bu shuni anglatadiki, tajovuz real mavjud bo’ladi, boshqacha qilib aytganda, bu mudofaalanuvchining tasavvuri mahsuli emas. Agar shaxs o’zini tasavvur qilingan hujumdan (xayoliy mudofaa) mudofaa qilgan bo’lsa, jinoiy javobgarlik masalasi faktik xato ahamiyati to’g’risidagi qoidalarga muvofiq hal etiladi.

Beshinchi, qonuniylikning tajovuzdan himoya qilishga oid shartlari:

- zararining uchinchi shaxslarga emas, balki faqat tajovuzga yetkazilishi. Bu zaruriy mudofaani oxirgi zaruratdan ajratib turadigan belgilardan biridir;

- mudofaaning o’z vaqtidaligi – mudofaaga tajovuzning boshlangan va hali tugamagan bo’lishiga yo’l qo’yiladi;

- javob harakatlarining maqsadi – ijtimoiy munosabatlarni ularga zarar yetkazishdan himoya qilishdir;

- himoyaning mutanosibligi – kelib chiqqan zarar tajovuzning xususiyati va ijtimoiy xavfli darajasiga mos keladi.

Oltinchi, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deganda tajovuzning xarakteri va xavfliligiga yaqqol mos kelmaydigan qasddan qilingan harakatlar tushuniladi. Qonuniy va zaruriy mudofaani uning chegaralaridan chetga chiqishdan ajratib turadigan chegara tajovuzchiga qasddan zarar yetkazishdan iborat bo’lib, bu zarar tajovuzni qaytarish yoki chek

qo'yish zarurati tufayli obyektiv ravishda kelib chiqmaydi.

Yettinchi, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- jinoyat obyekti inson hayoti hisoblanadi. Shu bilan birga, "maxsus" jabrlanuvchining mavjudligi zarur. Bu obyektiv ijtimoiy xavfli tajovuzni sodir etgan shaxsdir;

- jinoyatning obyektiv tomoni faqat faol harakatlarda ifodalanadi. Ularning natijasi tajovuzkorning o'limidir. Bu yerda zaruriy

mudofaa chegarasidan chetga chiqish faktini aniqlash kerak;

- jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, u bevosita tajovuz amalga oshirilayotgan shaxs yoki boshqa shaxslar hujumini bartaraf etishga yordam beruvchi shaxs;

- jinoyatning subyektiv tomoni aybning qasddan qilingan shakli bilan tavsiflanadi. Aksariyat hollarda qasd egri bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs tajovuzchining o'limi kelib chiqishini istamaydi, biroq unga yo'l qo'yadi yoki befarq munosabatda bo'ladi.

REFERENCES

1. Avdeyeva Ye.V. Neobkhodimaya oborona: aktual'nyye voprosy zakonodatel'noy reglamentatsii i pravoprimeneniya [Necessary defense: current issues of legislative regulation and law enforcement]. *Rossiyskiy sud'ya – Russian Judge*, 2019, no. 1, pp. 16–20.
2. Merkur'yev V.V. Ugolovnoye pravo: neobkhodimaya oborona [Criminal law: necessary defense]. 2019.
3. Shaymardanova A.A. Zhizn' kak ob'yekt ugolovno-pravovoy okhrany [Life as an object of criminal legal protection]. *Alleya nauki – Alley of Science*, 2018, vol. 1, no. 4, pp. 784–787.
4. Tomin V.T. et al. Kommentariy k ugolovnomu kodeksu RF [Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation]. In 3 vols. 2016, vol. 1, general part.
5. Zagorodnikov N.I., Naumov A.V. Teoreticheskiye osnovy klassifikatsii prestupleniy v ugolovnom prave [Theoretical foundations of the classification of crimes in criminal law]. *Izvestiya vysshikh uchebnykh zavedeniy. Pravovedeniye – News of Higher Educational Institutions. Jurisprudence*, 1983, no. 2, pp. 56–62.
6. Kharabara I. V. Ob'yekt prestupleniya i yego vidy [Object of crime and its types]. *Obrazovaniye i pravo – Education and Law*, 2020, no. 6, pp. 318–323.
7. Popov K.I. Aktual'nyye voprosy obstoyatel'stv, isklyuchayushchikh prestupnost' deyaniya [Current issues of circumstances excluding the criminality of an act]. *Yuridicheskaya nauka – Legal Science*, 2015, no. 3.
8. Mikhaylov V.I. Vypolneniye professional'nykh funktsiy kak obstoyatel'stvo, isklyuchayushcheye prestupnost' deyaniya [Performance of professional functions as a circumstance excluding the criminality of the act]. *Ugolovnoye pravo – Criminal law*, 2013, p. 62.
9. Naumov A.V. Rossiyskoye ugolovnoye pravo [Russian criminal law]. General part. Moscow, Prospekt Publ., 2014, p. 11.
10. Mikhaylov V.I. Vypolneniye professional'nykh funktsiy kak obstoyatel'stvo, isklyuchayushcheye prestupnost' deyaniya [Performance of professional functions as a circumstance excluding the criminality of an act]. *Ugolovnoye pravo – Criminal Law*, 2013, p. 74.
11. Musina R.R. K voprosu ob effektivnosti instituta neobkhodimoy oborony [On the issue of the effectiveness of the institution of necessary defense]. *Tatishchevskiy chteniye: aktualnyye problemy nauki i praktiki – Tatishchev Readings: Current Problems of Science and Practice*, 2018, pp. 252–256.
12. Naumov A.V. Rossiyskoye ugolovnoye pravo [Russian criminal law]. General part. Moscow, Prospekt Publ., 2014, p. 96.

13. Revin V. et al. Ugolovnoye pravo Rossii [Criminal law of Russia]. Special part. Moscow, Litres Publ., 2022.

14. Niyozova S.S. Strong Emotional Arousal (Effect) as a Criminal Law Norm. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, March 31, pp. 96–102. ISSN 2693-0803. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume03Issuep.03-15.

15. Niyozova S.S. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 2020, vol. 29, no. 3, p. 3962.

16. Niyozova S.S. Reasons for Suicide and the Issue of Responsibility. *International Journal of Pharmaceutical Research*, 2020, December, vol. 12, Suppl. iss. 3, p. 528.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.3./HDOC9975>
UDC: 343.34(045)(575.1)

JAMOAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLARNING SABABLARIGA DOIR ILMIY YONDASHUVLAR

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich,

O'zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0008-2776-7830
e-mail: fuzail1107@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning sabablariga doir ilmiy yondashuvlar tahlil etilgan. Bundan tashqari, maqolada jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlar tushunchasi, mazmun-mohiyati, tasnifi va ahamiyati o'rganilib, jinoyatchilik sabablari atrof-muhitda kechayotgan o'ziga xos jarayonlar tizimi bo'lib muayyan ijtimoiy-psixologik voqeliklar o'rtasidagi sababiy bog'lanish asosida jinoiy oqibatni keltirib chiqarishi; jinoyatchilik sabablari ma'lum davr oralig'ida shakllangan, rivojlangan, yetilgan ko'p omilli, ya'ni sabablar zanjiri sifatida yoxud qisqa vaqt oralig'ida ma'lum bir aniq voqelik ta'sirida paydo bo'lgan bir omil ekanligi; jinoyat sodir bo'lishiga imkon yaratgan sharoitlar uning sabablari yuzaga kelishini jadallashtiradi yoxud jinoyatning sabablari yuzaga chiqib faol harakatga kelishi uchun qulay fursat, qulay vaqt omili sifatida namoyon bo'lishi; jinoyatning sabab va shart-sharoitlarini tasniflash profilaktik faoliyatni zarur axborotlar bilan ta'minlashning birlamchi vositasi, bu esa ushbu faoliyatni samarali rejalashtirish, jinoyatlarning barvaqt oldini olish imkoniyatlarini yaratishi; jinoyatning sabablari va shart-sharoitlarining qayd etib o'tilgan tasniflari asosida o'rganish, tizimlashtirish profilaktik subyektlar faoliyati yo'nalishtirish, mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etishi bilan bog'liq masalalar ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlari: jamoat, tartibi, qarshi, jinoyatlar, jinoyatchilik, sabablar, omillar, xulq-atvor, psixologiya, ijtimoiy.

НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ К ПРИЧИНАМ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПРОТИВ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА

Бердиалиев Бахтиёр Эркинович,

самостоятельный соискатель
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье анализируются научные подходы к причинам преступлений против общественного порядка. Кроме того, в статье исследуются понятие, сущность, классификация и значение причин и условий, способствующих совершению преступлений против общественного порядка. Причины преступности представляют собой систему конкретных процессов, происходящих в окружающей среде, которые приводят к преступным последствиям, основанным на причинно-следственной связи между определёнными социальными и психологическими реалиями. Причины преступности многофакторны, формируются, развиваются и созревают в определённый период времени, то есть как цепочка причин, или же под влиянием одного фактора, появившегося внезапно под влиянием конкретной действительности. Ускоряют возникновение, способствуют активным действиям при

совершении преступления возникшие условия, сделавшие возможным совершение преступления и (или) выступающие для него благоприятным временным фактором. Классификация причин и условий преступления является основным средством обеспечения профилактической деятельности необходимой информацией, что создаёт возможности для эффективного планирования этой деятельности и раннего предупреждения преступлений. На основе определённых классификаций причин и условий совершения преступления анализируются также вопросы, связанные с изучением, систематизацией направлений и механизмов деятельности субъектов профилактики преступлений, требующих дальнейшей разработки.

Ключевые слова: сообщество, порядок, против, преступления, преступность, причины, факторы, поведение, психология, социальное.

SCIENTIFIC APPROACHES TO THE CAUSES OF CRIMES AGAINST PUBLIC ORDER

Berdiyaliyev Bakhtiyor Erkinovich,

Independent Researcher of
University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *This article analyzes scientific approaches to the causes of crimes against public order. In addition, the article examines the concept, essence, classification, and importance of the reasons and conditions that enable crimes against public order. The causes of crime are a system of specific processes taking place in the environment that lead to criminal consequences based on the causal connection between certain social and psychological realities. release; the fact that the causes of crime are multi-factorial, formed, developed, and formed in a certain period of time, that is, as a chain of causes, or one factor that appeared in a short period of time under the influence of a certain concrete reality; the conditions that made it possible for the crime to occur accelerate the occurrence of its causes or appear as a favorable opportunity, favorable time factor for the causes of the crime to emerge and take active action; classification of the causes and conditions of the crime is the primary means of providing preventive activities with the necessary information, which creates opportunities for effective planning of these activities and early prevention of crimes; Based on the noted classifications of the causes and conditions of crime, issues related to the fact that systematization requires the development of directions and mechanisms for the activities of preventive entities are also analyzed.*

Keywords: *community, order, against, crimes, criminality, causes, factors, behavior, psychology, social.*

Kirish

Jinoyatlar profilaktikasi bugungi kunda har bir jamiyat va davlat oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Jinoyatchilikka qarshi kurash, jinoyatlar profilaktikasi amaliyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, keyingi davrda jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan subyektlarning sodir etilgan jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning sabablari, unga imkon bergan shart-sharoitlar hamda oqibatlarini bartaraf qilish, unga qarshi kurashish vazifalari bilan birga, jinoyatlarning barvaqt oldini olish borasidagi faoliyatini ham takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Davlatimiz rahbari bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va sharoitlarni bartaraf etish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda.

Albatta, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar profilaktikasining samaradorligi jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash

hamda ularni bartaraf etish faoliyatiga bevosita bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, jinoyatlarining sabablari va ularni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni tizimli o'rganish, ularni tadqiq etish, tadqiqotlar asosida profilaktik faoliyatni takomillashtirib borishni taqozo qiladi.

Shu nuqtayi nazardan jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlarini batafsil o'rganish, ularni tadqiq etish ham huquqiy, ham psixologik, ham falsafiy, shuningdek, ijtimoiy yondashuvlarni talab qiladi.

Material va metodlar

Mazkur maqolada jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning sabablariga doir ilmiy yondashuvlarni tahlil etishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, huquqni qo'llash amaliyoti kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni tadqiq etishda eng avvalo "sabab" hamda "sharoit" so'zlarining lug'aviy ma'nolariga to'xtalib o'tish lozim. "Sabab" so'zi o'zbek tilida bir qator ma'nolarda qo'llanadi, ya'ni biror ish-harakat, voqea-hodisaning yuzaga kelishida, sodir bo'lishida omil bo'lgan boshqa voqea; biror ish-harakat yoki holat uchun asos bo'lgan narsa; biron-bir vaqt mobaynida bo'lgan o'zgarishdan so'ng ikkinchi boshqa bir natijaning zaruratan kelib chiqishini ta'minlovchi asosiy hodisa [1, 408-b.]. "Sharoit" so'zi esa obyektiv holdagi muayyan vaziyat, biror narsaning bo'lishiga ta'sir etuvchi holat, imkoniyat sifatida izohlanadi [2, 549-b.]. Mazkur tushunchalar lug'aviy ma'nolariga ko'ra ham o'zaro uzviy bog'liq. Qayd etish joizki, jinoyatning sodir etilishiga asos bo'lgan sabablar, o'z navbatida, muayyan sharoitlarda ma'lum bir oqibatlarini keltirib chiqaradi. Sabab va oqibatning o'zaro bog'liqligi, bu ikki voqelikning esa sharoit bilan uzviy aloqada ekanligi qo-

nuniyati jinoyatchilikni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Professor Z. Zaripov jinoyatning sabablari va shart-sharoitlarini quyidagicha tavsiflagan, ya'ni "jinoyatchilik sabablari ijtimoiy-psixologik voqelik sifatida jinoyatchilik hamda jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi o'ziga xos jarayonlar tizimidir, jinoyatchilikning sharoitlari esa o'ziga xos ravishda uning sabablari yuzaga kelishini jadallashtiruvchi holatlarni o'z ichiga oladi" [3, 65-b.].

Ushbu o'rinda muallif jinoyatchilikning kelib chiqishida muhim rol o'ynaydigan sabab va sharoitning o'zaro chambarchas bog'liqligini, har qanday sharoitning o'zi mustaqil jinoyatchilik va jinoyatni keltirib chiqarmasligini, sharoit mavjud bo'lgan holda biron-bir jinoyat sababsiz sodir bo'lmasligini aniq va ravshan ifodalab bergan. Qayd etish joizki, jinoyatlarning sabablari o'rganilganda, ularning sodir etilishiga ba'zan birgina sabab yoxud davomiy sabablar asos bo'lgan.

Muayyan bir jinoyatga olib kelgan sabablar ketma-ketligi ayniqsa jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyat, ya'ni bezorilikda yaqqol namoyon bo'ladi.

Masalan, bezorilikning asosiy qismi (70 %dan ortig'i) quroldan foydalanmasdan sodir etilgan. Ushbu jinoyat oqibatida yetkazilgan tan jarohatlarining aksariyati aybdorning qo'lga tushgan voqea joyidagi tasodifiy ashyo yoki vositalardan foydalanib sodir etilgan. Boshqa jinoyatlarga nisbatan bezorilik guruh bo'lib kamroq (85 % – yakka shaxs; 15 % – bir guruh shaxslar) sodir etilgan.

Bezorilik va uning oqibatida sodir etilgan jinoyatlarning kriminologik mohiyatini aniqlash ularga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan bilishning kriminologik usullari u yoki bu jinoyat nima uchun sodir etilgan, ularning sabablari nimada, ularning oldini olish maqsadida qanday huquqiy, tashkiliy yoki boshqa choralarni qo'llash lozim, degan savollarga javob beradi. Fikrimizcha, hozirgi kunda jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi jinoyatlarning

kriminologik ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarga oid ilmiy farazlarni tizimlashtirish zarurati mavjuddir. Ushbu bilimlar o'rganilayotgan jinoyatlarga xulosalar, taklif va tavsiyalarni tashkil etib, kelajakda ularga qarshi kurashni rejalashtirish imkonini beradi.

Bezorilikning hozirgi holati ushbu qilmishning jamiyatga ta'siri, buzg'unchilik jarayoniga ta'sir ko'rsatishi nuqtayi nazaridan o'rganilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining statistik ma'lumotlari tahliliga ko'ra, bugungi kunda bezorilik juda ko'p sodir etilgan jinoyatlar sirasiga kiradi va uning oqibatida jamoat tartibidan tashqari fuqarolarning hayoti, sog'lig'i yoki mulkiga zarar yetkazilmoqda.

Tadqiqot natijalari tahlili

V. Malkova jinoyatning sabab va sharoitlarini o'ziga xos tarzda talqin qilgan, uning fikricha, jinoyatning sababi deganda shunday voqea yoki hodisa tushuniladiki, bunday hodisalar muayyan sharoitlarda oqibatni keltirib chiqaradigan boshqa hodisalarni paydo qiladi. Jinoyatning sharoitlari esa ijtimoiy hayotdagi turli holatlar bo'lib, ular mustaqil jinoyatlarni keltirib chiqarmaydi, balki uning kelib chiqishiga, sodir bo'lishiga ko'maklashadi, imkon yaratadi [4, 44-b.].

V. Malkovanning mazkur ta'rifida muayyan bir jinoyatning kelib chiqishida sabab birlamchi, sababning oqibatni keltirib chiqarishida esa sharoit muhim o'rin tutishi qayd etilgan. Qayd etib o'tilgan ta'riflarda jinoyatning sabablari va shart-sharoitlari "sabab", "sharoit" hamda "oqibat" tushunchalari o'zaro biri ikkinchisiga uzviy bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, hodisalarning sababiy bog'lanishi odatda bir hodisaning boshqa bir hodisani keltirib chiqarishida namoyon bo'ladi. Har qanday hodisa zamirida muayyan sabab yotadi, bu esa sababsiz hodisalar bo'lmasligini anglatadi. Oqibatni keltirib chiqargan sabab oqibat kelib chiqishi uchun zarur bo'lgan hodisaning muayyan tarzda rivojlanishini ta'minlaydi. Bunda sababning vaqt nuqtayi

nazaridan oqibatdan doimo oldinda bo'lishini ta'kidlash lozim. Albatta jinoyatga imkon bergan sabab va sharoitning muayyan vaqtda harakatga keltirilishi jinoiy oqibatni yuzaga chiqaradi. Jinoyat sodir etilishiga imkon bergan sabab va shart-sharoitlar, S. Danilovanning fikricha, obyektiv va muqarrar ravishda jinoyatning sodir etilishiga olib keladigan, huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar majmuidir [6, 37-b.]. Muallifning mazkur ta'rifi, bizningcha, jinoyat-protsessual nuqtayi nazardan yondashilganda o'rinlidir.

Chunki jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning sabablar zanjiri uzun yoxud qisqa bo'lishi mumkin, ya'ni bir jinoyatning sabablari ma'lum bir shart-sharoitlarda jinoiy oqibat keltirib chiqarguniga qadar uzoq vaqt davomida yetilib, takrorlanib kelgan bo'lishi yoxud kelib chiqqan jinoiy oqibatga o'sha onda imkon bergan va yuzaga keltirgan bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan jinoiy oqibatni avvalgi hodisalarning sababiy zanjiri natijasi deb baholashimiz maqsadga muvofiq.

Fikrimizcha, ushbu holatda ikki bir-biriga bog'liq bo'lgan muhim masalaga e'tibor qaratish lozim, ya'ni birinchidan, jinoyat sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarning tergov qilinayotgan ijtimoiy xavfli qilmish bilan bevosita bog'liqligi, ikkinchidan, jinoyat sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish jinoyat protsessining bevosita vazifasini bajarishga yordam berishi kerak.

Darhaqiqat, jinoyat belgilari, mavjud holatlar jinoyat ishi qo'zg'atilishiga sabab bo'ladi, shunga muvofiq, uning sabab va sharoitlari o'rganiladi. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarning o'ziga xos psixologik jihatlari ham mavjud bo'lib, bu shaxs hamda uning irodasi, iroda erkinligi bilan bog'liq. Ma'lumki, inson atrofida kechayotgan hodisalar, jarayonlar unga ta'sir etadi, ayni vaqtda bunday hodisa va jarayonlarga uning o'zi ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Albatta,

bunday vaziyat har ikki holat o'rtasidagi sababiy bog'liqlikka asoslanadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, huquqbuzarliklarning barcha sabab va sharoitlari inson psixologiyasi va ongiga ta'sir ko'rsatib, unda g'ayriijtimoiy qarashlarni, xulq-atvorni shakllantiradi yoki ularni oziqlantiradi, kuchaytiradi.

Shuning uchun ham jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning sabab va sharoitlari hamma vaqt ijtimoiy psixologik xususiyatga ega bo'ladi. R. Dushanovning ta'kidlashicha, jinoyatchi shaxsning ichki dunyosini anglash uchun uning hayotda tutgan o'rni, atrof-muhitdagi voqelik, insonlar, jamiyat, davlat, qonun, mehnat va hokazolarga munosabatini bilish lozim. Chunki har qanday jinoyat faoliyat ko'p jihatdan jinoyat sodir etgan shaxsning o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlariga uzviy bog'liq. Qonunga itoat etadigan va o'zini o'zi yuksak darajada boshqara oladigan halol inson uchun "jinoiy" vaziyatlar yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Vaziyat o'z-o'zicha jinoyatni keltirib chiqara olmaydi, u faqat g'ayriijtimoiy fe'lga ega bo'lgan shaxsning muayyan qarashlari va maqsadlarini amalga oshirishi uchun mos bo'lishi mumkin [6, 15-b.].

Jamiyatda huquqbuzarliklarning ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlarini ijtimoiy hayotning barcha sohalarida mavjud bo'lgan salbiy hodisa, voqea, jarayonlar keltirib chiqaradi. Har qanday jamiyatda uning rivojlanishining barcha bosqichlarida ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlarni keltirib chiqaradigan obyektiv va subyektiv sabab va sharoitlar mavjud, lekin ular turli darajada bo'ladi. Har qanday muayyan jinoyat sodir etilishi asosida yotgan ijtimoiy-psixologik hodisalar, ya'ni g'ayriijtimoiy qarashlar, odatlar, ko'nikmalar, niyatlar va xulq-atvor subyektiv sabab va sharoitlar deb ataladi. Shaxsdan tashqarida bo'lgan hamda uning psixologiyasiga ta'sir qilib, unda g'ayriijtimoiy qarash, odat va xulq-atvorni shakllantiradigan, uni mustahkamlaydigan hodisa, voqea, jarayonlar esa obyektiv sabab va sharoitlar deb ataladi.

O'rganilayotgan qilmishning sabablari uning motivi bilan bevosita bog'liqdir. Jinoyat ishlarining tahliliga ko'ra, bezorilikning sodir etilishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatayotganligi aniqlandi: 1) aybdorning o'z kuchini ko'rsatib qo'yishga intilishi (36 %); 2) xulq-atvori jamiyatda yurish-turish qoidalari va qonun normalarini mensimasligi (22,5 %); 3) ilgari jinoyat sodir etganlarning ta'siri ostiga tushib qolishi (5,5 %); 4) turmushidan norozilik va boshqalardan nafratlanish (4 %); 5) boshqa motivlar – o'ch olish, rashk, nafratlanish va b.q. (32 %). Yuqoridagilardan tashqari shaxsning, ayniqsa, voyaga yetmaganlarning o'rtoqlariga, katalarga taqlid qilishi (7,5 %) kuzatildi.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan sabab va sharoitlarni tasniflash jinoyatlar profilaktikasida, jinoyatlarning barvaqt oldini olishda muhim o'rin tutadi. Bunday tasniflash profilaktik faoliyatning yo'nalishlarini belgilash, aniq vazifalar ishlab chiqish, profilaktik faoliyatning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shundan kelib chiqqan holda jinoyatning sabablari va sharoitlari yuzasidan olim va mutaxassislar tomonidan tizimli o'rganishlar olib boriladi. Professor Z. Zaripov jinoyatga imkon bergan sabab va sharoitlarni miqyosiga ko'ra, mazmunan hamda o'z tabiati va ba'zi xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratilishini qayd etgan.

Muallif jinoyatning sabab va sharoitlarini miqyosiga ko'ra jinoyatchilikning umumiy holati, jinoyatlarning turlari va alohida olingan jinoyatlar bo'yicha tasniflagan [3, 67-b.]. Shu bilan birga, professor Z. Zaripov jinoyatlarni yuzaga keltiruvchi kriminogen-determinantlar, o'z mazmuniga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy, siyosiy, ijtimoiy-ruhiy, tarbiyaviy, ijtimoiy boshqaruv yo'nalishidagi sabab va sharoitlardan iborat bo'lishi mumkinligini qayd etgan. Bilishning kriminologik usullari jinoyat-huquqiy fanlarning murakkab savollariga, masalan, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maq-

sadida qanday choralarni qo'llash lozim degan savolga javob topishga xizmat qiladi [7, 4-b.]. Ta'kidlash joizki, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bezorilikning oldini olish bo'yicha faoliyati ilmiy asoslangan usullarga tayanganida kutilgan natijalarni beradi [8, 67-b.].

Tadqiqotlarda o'tkazilgan so'rovlar natijalariga asoslanib, OAVda zo'ravonlik targ'ib qilinishi ijtimoiy ongga salbiy ta'sir ko'rsatishi atrofda gilara agressiv xulq-atvorni yoki ma'naviy qoloqlik, o'zganing dardiga beparvolikni shakllantiradi [9, 66-76-b.; 10, 199-200-b.].

Kriminologiyaga oid adabiyotlarda har qanday jinoyatchilikning sabablarini tahlil etishda umumiy omillar va aniq jinoyatlarga imkon bergan shart-sharoitlar ajratiladi [11, 88-b.].

Biz tadqiq etayotgan jinoyatlarni tahlil etishda ham aprobatsiyadan o'tgan yondashuvga tayanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Shu bilan birga, umumiy tusdagi omillar va u yoki bu jinoyatga imkon bergan shart-sharoitlar orasidagi aniq farqlarni ko'rsatish juda murakkab va ba'zan buning imkoni ham yo'q. "Aniq ijtimoiy hodisa ba'zi holatlarda umumiy tusdagi omil, boshqa vaziyatlarda jinoyatga imkon bergan shart-sharoit sifatida bo'lishi mumkin" [12, 75-b.].

Shuning uchun sabablar majmuini umumiy va maxsusga ajratish shartli hisoblanadi. Bezorilik va uning oqibatida sodir etilgan jinoyatlarning bizningcha ahamiyatga ega bo'lgan omillariga to'xtalmoqchimiz. Bezorilikning sabablari (omillari)ni tahlil etishda avvalo ushbu qilmishning sodir etilishini taqozo qiladigan, ularni oziqlantiradigan, ko'payishini ta'minlaydigan hodisa, voqea va jarayonlar yig'indisini o'rganish zarurdir [13, 48-56-b.].

Q. Abdurasulova, S. Niyozovalarning jinoyatchilik sabablari tasnifi yuqoridagi tasniflashga juda yaqin. Ular jinoyat sabablarining tasnifini jami olti guruhga ajratishgan. Birinchi guruhga ko'ra, umuman jinoyatchilik

sabablari (barcha jinoyatlarning umumiy sabablari); jinoyatlar turli toifalarining sabablari (maxsus sabablar); muayyan jinoyatlarining sabablari kiritilgan.

Jinoyatchilik sabablarining ikkinchi tasnifi muayyan sabablar namoyon bo'ladigan ijtimoiy hodisalarning mazmuni va xususiyatiga asoslanib unda to'rt yo'nalish mavjud, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy sabablar; mafkuraviy sabablar (ushbu guruhga madaniy-tarbiyaviy sabablar ham kiradi); tashkiliy-boshqaruv sabablari; ijtimoiy-psixologik sabablar. Jinoyatchilik sabablarining uchinchi tasnifi sabablarni to'liqlik va o'ziga xoslik belgilariga qarab guruhlashning maqsadga muvofiqligiga asoslanadi. Bunda jinoyatchilikning "to'liq sababi"ni quyidagilar tavsiflaydi, ya'ni barcha ijtimoiy hodisalar va faktlar majmui; ular har xil xususiyatga egaligi (ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, tashkiliy-boshqaruv, huquqiy, ijtimoiy-psixologik hodisalar va omillar); hodisalar va omillar jinoyatchilikda har xil tarzda namoyon bo'lishi (ya'ni asosiy, ikkinchi darajali, bevosita va bilvosita hodisalar va omillar). Jinoyatchilik sabablarining to'rtinchi tasnifi jinoyatchilikka ijtimoiy omillarning "ta'sir mexanizmi"ga asoslanadi. Bu yerda jinoyatchilik sabablari va unga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar farqlanadi. Sabablar asosan shaxs sohasida yotadi. Masalan, g'ayriijtimoiy qarashlar va odatlar jinoyatchilik sabablariga kiradi. Bunda sabab va oqibat bog'lanishi quyidagi ketma-ketlikda namoyon bo'ladi: hayot va tarbiya tafsilotlari – shaxsning o'ziga xos xususiyatlari – muayyan vaziyatdagi xulq-atvor xususiyatlari. Jinoyatchilik sabablarining beshinchi tasnifi sabablarni obyektiv, obyektiv-subyektiv va subyektivga ajratishga asoslanadi.

Mavjudligi shaxsning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan sabablar obyektiv sabablar hisoblanadi. Subyektiv sabablar odamlar, ularning birlashmalari xohish-irodasi va faoliyati bilan belgilanadi. Jinoyatchilik sabablarining oltinchi tasnifi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning, jamiyatning o'ziga xos xususi-

yatlariga asoslanadi. Mualliflar jinoyatchilik sabablarini boshqa bir qancha mezonlarga ko'ra ham tasniflashgan, ya'ni jinoyatchilik sabablarining manbalari soniga ko'ra, bir omilli va ko'p omilli sabablar; jinoiy xulq-atvor turlari va xususiyatiga ko'ra; jinoyatlarining oqibatlari xususiyatiga ko'ra (o'ta og'ir, og'ir, uncha og'ir bo'lmagan, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar va h.k.); ular namoyon bo'lgan sohalarga ko'ra, jinoyat sodir etgan shaxslarning belgilariga qarab tasniflash mumkin (masalan, mahkumlar orasidagi jinoyatchilik, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, retsidiv jinoyatchilik, mansabdorlik jinoyatlari va h.k.); jinoyat sodir etgan shaxslarning ayb shakliga ko'ra shular jumlasidan [14, 40-b.].

Ta'kidlash joizki, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni yuqorida qayd etilgan yo'nalishlarga muvofiq tasniflash nazariy hamda amaliy jihatdan profilaktik faoliyatning mexanizmlarini yanada aniqroq va mufassalroq ishlab chiqishga yordam berishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizningcha, mazkur tasniflar sirasiga jinoyatchilikka sabab bo'ladigan nazoratsizlik, loqaydlik, sovuqqonlik kabi omillarni ham kiritish maqsadga muvofiq.

Xulosalar

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarning tushunchasi, mazmun-mohiyati, tasnifi va ahamiyati xususida o'rganilgan muhim ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

birinchidan, jamoat tartibiga qarshi jinoyatchilik sabablari atrof-muhitda kechayotgan o'ziga xos jarayonlar tizimi bo'lib muayyan ijtimoiy-psixologik voqeliklar o'rtasidagi sababiy bog'lanish asosida jinoiy oqibatni keltirib chiqaradi;

ikkinchidan, jamoat tartibiga qarshi jinoyatchilik sabablari ma'lum davr oralig'ida shakllangan, rivojlangan, yetilgan ko'p omilli, ya'ni sabablar zanjiri sifatida yoxud qisqa vaqt oralig'ida ma'lum bir aniq voqelik ta'siri-

da paydo bo'lgan bir omilli sabablardan iborat bo'ladi;

uchinchidan, jamoat tartibiga qarshi jinoyat sodir bo'lishiga imkon yaratgan sharoitlar uning sabablari yuzaga kelishini jadallashtiradi yoxud jinoyatning sabablari yuzaga chiqib faol harakatga kelishi uchun qulay fursat, qulay vaqt omili sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar faollashuviga olib kelayotgan sharoitlarni o'rganish, tahlil qilish, bartaraf qilish vazifalarini taqozo qiladi. Bu orqali muayyan hududda jinoyatlarning o'sish dinamikasi asosida jinoyat sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish chora-tadbirlari ko'riladi. Bunday profilaktik faoliyat takroriy jinoyatlar, shuningdek, bir turdagi jinoyatlarga yo'l qo'ymaslikda samarali hisoblanadi. Masalan, jamoat joylarida sodir etiladigan bezorilikning oldini olish uchun aholi gavjum bo'lgan joylarda kuzatuv kameralarini o'rnatish, o'z navbatida, bunday turdagi jinoyatlarning barvaqt oldini olish, jinoyatni sodir etish uchun imkon beradigan mavjud sharoitlarni oldindan bartaraf etishni ta'minlaydi.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning barvaqt oldini olish da ushbu yo'nalishining muhim jihati har bir jinoyat uchun o'ziga xos bo'lgan sharoitlarning mavjudligida namoyon bo'ladi. Jumladan, jamoat joylarida aholining ko'pligi, bezorilik jinoyatlari hamda insonda qaramlikni vujudga kelishi qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar uchun qulay sharoitni yuzaga keltirishi mumkin;

to'rtinchidan, jamoat tartibiga qarshi jinoyatchilikning sabab va shart-sharoitlarini tasniflash profilaktik faoliyatni zarur axborotlar bilan ta'minlashning birlamchi vositasi, bu esa ushbu faoliyatni samarali rejalashtirish, jinoyatlarning barvaqt oldini olish imkoniyatlarini yaratadi;

beshinchidan, jamoat tartibiga qarshi jinoyatchilikning sabablari va shart-sharoitlarining qayd etib o'tilgan tasniflari asosida o'rganish, tizimlashtirish profilaktik faoliyat, xususan, jinoyatlarning barvaqt oldini olish

faoliyatida davlat va nodavlat-notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikning samarali yo'nalishlarini, mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda jinoyatlar profilaktikasi, xususan jinoyat sodir etilishiga

imkon berayotgan sabablar hamda shart-sharoitlar to'g'risida maxsus dasturlar ishlab chiqish, fuqarolarning huquqiy bilimlarini yuksaltirish, ogohlikka chorlash orqali viktimologik profilaktikani tashkil etishda asos sifatida xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbek tilining izohli lug'ati [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. Tashkent, National encyclopedia of Uzbekistan Publ., 2007, vol. 3, p. 408.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. Tashkent, National encyclopedia of Uzbekistan Publ., 2008, vol. 4, p. 549.
3. Zaripov Z.S., Pulatov Yu.S., Avanesov G.A. et al. Kriminologiya [Criminology]. Ed. Z. Zaripov. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2006, p. 65.
4. Kriminologiya [Criminology]. Ed. V.D. Malkov. Moscow, 2004, p. 44.
5. Danilova S.I. Ustanovleniye i ustraneniye prichin i usloviy, sposobstvovavshikh soversheniyu prestupleniya, v stadii predvaritel'nogo rassledovaniya [Establishment and elimination of the causes and conditions that contributed to the committing of the crime at the stage of preliminary investigation]. PhD thesis. Moscow, 2001, p. 37.
6. Dushanov R.X. Jinoyatchi shaxs psixologiyasi [Psychology of a criminal]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2011, p. 15.
7. Kudryavtsev V.N. Prichinnost' v kriminologii (o strukture individual'nogo prestupnogo povedeniya) [Causality in criminology (about the structure of individual criminal behavior)]. Moscow, TK Welby, Prospekt Publ., 2007, p. 4.
8. Kudryavtsev V.N., Eminov V.Ye. Prichiny prestupnosti v Rossii: Kriminologicheskiy analiz [Causes of crime in Russia: Criminological analysis]. Moscow, Norma Publ., 2006, p. 23.
9. Sredstva massovoy informatsii i prestupnost'. Kriminologiya [Media and crime. Criminology]. Ed. D.F. Sheley. St. Petersburg, 2003, pp. 66-76.
10. Kriminologiya [Criminology]. Ed. Yu.F. Kvashin. Rostov-on-Don, 2020. pp. 199-200.
11. Ustinov V.S., Aref'yev A.Yu. Kriminologicheskiye aspekty ekonomicheskoy prestupnosti [Criminological aspects of economic crime]. Nyzhny Novgorod, New Scientific Research Institute of the Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation, 2000, p. 88.
12. Ovchinskiy A.S., Chebotareva S.O. Matritsa prestupnosti [Crime matrix]. Moscow, Norma, 2006, p. 75.
13. Anvarovich O.A. Characteristics of criminal responsibility for complicity and prospects for improvement. *International Journal of Law and Criminology*, 2023, vol. 3, no. 04, pp. 48-56.
14. Abdurasulova Q., Niyozova S. Jinoyatchilik va jinoyatchi shaxsi muammolari: magistratura yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma [Crime and personality problems of a criminal]. TSIL Publ., 2005, p. 40.
15. Niyozova S.S. Strong Emotional Arousal (Effect) as a Criminal Law Norm. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, March 31, pp. 96-102. ISSN 2693-0803. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume 03 Issue p. 03-15.
16. Niyozova S.S. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 2020, vol. 29, no. 3, p. 3962.
17. Niyozova S.S. Reasons for Suicide and the Issue of Responsibility. *International Journal of Pharmaceutical Research*, 2020, December, vol. 12, Suppl. iss. 3, p. 528.
18. Otajonov A.A. Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari [Problems of ensuring public safety and combating crime]. 2016.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.3./IGWL8197>

UDC: 343.221.5+343.231(045)(575.1)

VOYAGA YETMAGANLARNI O'Z JONIGA QASD QILISH DARAJASIGA YETKAZISH JINOYATINI SODIR ETGAN SHAXSLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI

Ismailov Ahmad Ismailovich,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0009-8886-9934

e-mail: forishim@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish jinoyatini sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifiga doir masalalar bayon etilgan. Bundan tashqari, voyaga yetmaganning o'z joniga qasd qilishdagi jinoyatchi shaxs tushunchasi, uning ijtimoiy-demografik, biofiziologik va ma'naviy-ruhiy tavsifi tahlil etilib, olimlarning bu boradagi fikrlari o'rganilgan. Muallif maqolada o'z fikrlarini bayon etish orqali voyaga yetmaganning o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazgan jinoyatchining shaxsiga "Shaxs, ijtimoiylashuv jarayonida o'ziga jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq normalari va qoidalarini mensimaydigan, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga bepisand, o'z xatti-harakatining jamoat xavfliligiga zid ekanligini bilishiga qaramay, ularga rioya qilmaslik va buzishga moyil bo'lgan xulq-atvorga ega shaxs", degan ta'rifni ham berib o'tadi. Bundan tashqari, maqolada muallif jinoyatchilarni "zo'ravon", "g'arazgo'y", "mansabparast", "o'ynoqi" va "qasoskor" hamda "himoyachi" kabi tasniflarga bo'lib o'rganadi. Tadqiqotda voyaga yetmaganning o'z joniga qasd qilishda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishi materiallarini o'rganish natijasida aksariyat hollarda ushbu jinoyatdan jabrlangan shaxslarga nisbatan ruhiy tazyiq o'tkazish bilan bog'liq zo'ravonlik oqibatida sodir etilganligi aniqlangan.

Kalit so'zlari: voyaga yetmaganlar, o'z joniga qasd qilish, sabablar, omillar, jinoyatchi shaxsi, tasnif, javobgarlik, jazo, oilaviy nizolar, xulq-atvor.

КРИМИНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЛИЦ, СОВЕРШИВШИХ ПРЕСТУПЛЕНИЕ ПО ДОВЕДЕНИЮ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ ДО САМОУБИЙСТВА

Исмаилов Ахмад Исмаилович,

самостоятельный соискатель

Университета общественной безопасности

Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с криминологической характеристикой лиц, совершивших преступление по доведению несовершеннолетних до самоубийства. Кроме того, в статье анализируется понятие преступника в самоубийстве несовершеннолетнего, его социально-демографическая, биофизиологическая и духовно-нравственная характеристика, а также изучаются мнения учёных по этому поводу. В статье автор характеризует преступника, доведшего несовершеннолетнего до самоубийства в результате выражения своих мыслей, как лицо, пренебрегающее установленными в обществе нормами и правилами этикета в процессе социализации; имеющее склонность к неповиновению и нарушению интересов человека, общества, государства, хотя и знает,

что его поведение нарушает общественную безопасность. Кроме того, в статье автор классифицирует преступников по таким характеристикам, как «жестокие», «злонамеренные», «амбициозные», «смешливые», «мстительные» и «защитники». В статье в результате изучения материалов уголовного дела, возбуждённого в отношении лиц, виновных в самоубийстве несовершеннолетнего, сделан вывод, что в большинстве случаев оно было совершено в результате насилия, связанного с психологическим давлением на потерпевших от данного преступления.

Ключевые слова: несовершеннолетние, самоубийство, причины, факторы, личность преступника, классификация, ответственность, наказание, семейные конфликты, поведение.

CRIMINOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PERSONS WHO COMMITTED THE CRIME OF DRIVING MINORS TO SUICIDE

Ismailov Ahmad Ismailovich,

Independent Applicant of the University of
Public Security of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article describes the issues related to the criminological description of the criminal in the suicide of a minor. In addition, the article analyzes the concept of a criminal person in the suicide of a minor, his socio-demographic, biophysiological, and spiritual description, and studies the opinions of scientists in this regard. In the author's article, he describes the criminal who caused the suicide of a minor to the point of suicide as a result of expressing his opinion: «a person who disregards the norms and rules of etiquette established for him in society in the process of socialization, disregards the interests of the individual, society, and the state, and is contrary to the public danger of his behavior despite knowing that they are, a person with a behavior that tends to violate and not comply with them. In addition, in the article, the author studies criminals by classifications such as «violent», «malicious», «career», «playful» «vindictive» and «protective». In the article, as a result of the study of the materials of the criminal case filed against the persons guilty of the suicide of a minor, it was found that in most cases, it was committed as a result of violence related to psychological pressure on the victims of this crime.

Keywords: juveniles, suicide, causes, factors, criminal identity, classification, responsibility, punishment, family conflicts, behavior.

Kirish

Mamlakatda qonunchilikni yanada mustahkamlash, qonunbuzarlikning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishni kuchaytirish, umuman hozirgi iqtisodiy islohotlar davrida qonun ustuvorligini ta'minlash har bir mutasaddi rahbar, ayniqsa, huquq-tartibot idoralarining dolzarb vazifasi bo'lib qolishi kerak.

Umuman olganda, salbiy hodisalarning barchasi, jumladan, jinoyatchilik ham ma'naviy qashshoqlik, ma'rifiy kemptiklik sharoitida vujudga keladi. Ana shu xulosadan kelib chiqib aytish mumkinki, qonunbuzarlikning oldini olish, tartibbuzarlikka qarshi kurashishni kuchaytirish, hozirgi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish davrida qonun ustuvorligini ta'minlash faqat huquqni muhofaza qilish idoralarininggina emas, balki har bir rahbar, mahalla va jamoatchilikning muhim vazifasiga aylanishi kerak.

Jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxsini tasniflash muhim analitik va profilaktik ahamiyatga egadir. U jinoyatchilik sabablarini yanada chuqurroq va har tomonlama o'rganish, jinoyatlarning oldini olish va prognoz qilish tizimini ishlab chiqishga yordam beradi. Shu sababli jinoyatchi va jinoyat jabrlanuvchilarini tasniflash kriminologiyaning dolzarb muammolaridan biridir.

Material va metodlar

Maqolada voyaga yetmaganning o'z joni-ga qasd qilishda jinoyatchi shaxsning krimi-

nologik tavsifiga doir masalalarni tahlil etishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, huquqni qo'llash amaliyoti usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

“Shaxs” tushunchasi insonning ijtimoiy foydali mehnatga munosabatini, inson ijtimoiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan xossalarni shakllantirish uchun o'zi ustida qanday ishlashini muqarrar tarzda qamrab oladi [1, 61-b.].

Shaxs tarkibi to'g'risidagi masala muhim metodologik muammolardan biridir.

Sotsiologiyada shaxsning kamida uch muhim tarkibiy elementi farqlanadi [2, 157-b.]:

1) shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy holati avvalo uning ishlab chiqarishga munosabati – ishlab chiqarish munosabatlari tizimida shaxsning o'rni, qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligi;

2) shaxs qaysi funksiya va rollarni bajarishi;

3) shaxs hayoti va faoliyati motivlarining, manfaatlar (ijtimoiy, shaxsiy), ehtiyojlar (moddiy, ma'naviy) tizimining xususiyati, ya'ni shaxsning moyilliklari.

Jinoyat subyekti shaxsini o'rganish zahirida yuqorida qayd etilgan umumiy asosiy qoidalar yotishi lozim.

Jinoyatchi shaxsi – avvalo jinoyat subyekting shaxsidir. Jinoyat qonunchiligiga binoan, jinoyat subyekti uni aynan subyek deb topish uchun zarur ko'rsatkichlarga ega bo'lishi lozim. Bunday ko'rsatkichlar uchta: jismoniy shaxs (jahonning ba'zi bir mamlakatlarida yuridik shaxslarni ham jinoyat subyekti deb topish imkoniyati nazarda tutilganki, bunga qo'shilish qiyin), shaxsning muayyan yoshga to'lganligi (MDHning bir qancha mamlakatlari qonunchiligiga ko'ra 14, 16, 18 yosh, jahonning ba'zi bir mamlakatlari jinoyat kodekslariga binoan esa bundan ham kichikroq yosh) va aqli rasolik [1, 68-b.].

Ammo jinoyatchi shaxsini tavsiflash uchun jinoyat subyekting faqat jinoyat-huquqiy belgilari yetarli emas. Muayyan subyektning jinoyat sodir etishi faqat jinoyat

sodir etgan odam shaxsi mavjudligini e'tirof etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Jinoyat subyekting shaxsi odamning asosan jinoiy xulq-atvor xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa har xil ko'rsatkichlarini ham qamrab oladi. Jinoiy xulq-atvor eng avvalo odamni qurshagan borliq, muhit bilan belgilanadi.

Lekin ayni vaqtda u shaxsning muayyan mayllari, intilishlari, xulq-atvor motivlari va maqsadlarini ham aks ettiradi. Tabiiyki, odamga qanday salbiy xususiyatlar xos bo'lmasin, agar u jinoyat sodir etmagan bo'lsa, uni jinoyatchi deb hisoblash mumkin emas. Jinoyat sodir etganlik holati muayyan odamni g'ayriijtimoiy shaxs sifatida tavsiflaydi, lekin uning mazmun-mohiyatini to'liq tushuntirib bermoqchi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shaxsning xulq-atvori buzilishi (deviant) uni salbiy holatlarni sodir etishga undaydi.

Jamiyat a'zolarining xulq-atvorining shu jamiyatda qabul qilingan axloqiy va huquqiy me'yorlarga muvofiq kelishi kishilarning farovon turmushining muhim omillaridan bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun har qanday jamiyatda insonlarning nomaqbul xulq-atvorini pasaytirishga harakat qilib kelinadi. Chunki bu holat ijtimoiy hayotning barcha sohalariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi muqarrardir.

Shuni qayd etish joizki, voyaga yetmaganining o'z joniga qasd qilishida aybdor shaxs va jabrlanuvchi shaxsini tavsiflashning o'ziga xos xususiyati shundaki, jinoyat qonunchiligida belgilangan boshqa hayotga qarshi jinoyatlardan farqli ravishda ushbu jinoyatda o'lim aybdor emas, balki jabrlanuvchining o'zi tomonidan amalga oshiriladi. Biroq ushbu jinoyat, aybdorning zo'ravon xatti-harakatlari natijasida sodir etiladi.

Ma'lumki, zo'ravonlik bilan inson hayotidan mahrum qilish har doim eng og'ir jinoyatlardan biri bo'lib kelgan. “Jinoyat sodir etishda zo'ravonlik tashqi dunyoda o'z ifodasini topgan erkinlikning mavjud bo'lishiga

qarshi zo'rlik ishlatishda namoyon bo'ladi. Xuddi shunday, jazoni qo'llash faqat shaxsning tashqi qilmishiga nisbatan qo'llanishi mumkin".

S.S. Niyozova zo'ravonlikka quyidagicha ta'rif beradi: "Zo'ravonlik – jabrlanuvchi xavfsizligiga qasddan, qonunga xilof ravishda jinoiy tajovuz qilish, uning organizmiga (organlari, to'qimalari va ularning fiziologik funksiyalari) irodasiga qarshi (yoki undan tashqari) jismoniy (energetik) yoki ruhiy (informatsion) ta'sir etish yo'li bilan jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazish" [3, 26-b.].

Bizningcha ham zo'ravonlik deganda aynan jabrlanuvchining huquqlarini qasddan mensimasdan, uning xohishiga zid ravishda aybdor shaxsning o'tkazadigan jismoniy, ruhiy va jinsiy xatti-harakatlarini tushunish lozim.

Ta'kidlash kerakki, jinoyatchi shaxsi tushunchasi har doim ham tom ma'noda emas, balki jinoyat qonunida to'liq shartli ravishda o'z aksini topgan. Bu holat muayyan harakatlarni jinoyat deb tasniflash butunlay qonun chiqaruvchiga bog'liqligi bilan aloqador deyish mumkin.

Jinoiy xulq-atvor shaxsda uning jismoniy va aqliy imkoniyatlari doirasida shakllanadi. Jinoiy xulq-atvor va qonunga bo'ysunuvchi fuqaroning xatti-harakati o'rtasidagi asosiy farq, uning xohish-irodasi va ruxsat etilgan narsalar doirasini belgilashdir. Qadriyat va axloqiy tarbiyaning yo'qligi, o'z ehtiyojlarini qondirish istagi jamiyat tomonidan o'rnatilgan xatti-harakatlar normalari va qoidalariga rioya etishga toqatsizligiga olib keladi. Boshqacha aytganda, shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzuvchi turmush tarzi shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuridik adabiyotlarda jinoyatchilarning quyidagi turlari ajratiladi [4; 5, 87-b.].

"zo'ravon" – maqsadi tazyiq va jabr-zulm keltirish;

"g'arazgo'y" – maqsadi o'zganing mulkini yoki pul mablag'larini egallash;

"mansabparast" – maqsadi o'zini qadrlash hissi yuqoriligi (ya'ni hurmattalab) va yuqori ijtimoiy mavqeni egallash;

"o'ynoqi" – qonun chegarasini kesib o'tish va insonning belgilangan me'yorlarini buzishga moyilligi bilan ajralib turadi;

"qasoskor" – o'ziga nisbatan qilingan nohaqlikdan kek saqlab, uni qaytarmaguncha ko'ngli tinchimasligi bilan ajralib turadi;

"himoyachi" – jinoyat sodir etishning haqiqiy yoki xayoliy xavfining oldini olish istagi yuqoriligi bilan ajralib turadi [6, 38-b.].

Albatta ushbu toifalar jinoyatchi shaxsi ro'yxatini to'liq qamrab olmaydi, lekin fikrimizcha, u jinoiy kontingent turlari haqida umumiy tushunchani shakllantirish uchun yetarli tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi JK 103-moddasida o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish, shaxsni qo'rqitish, unga rahmsiz muomala qilish yoki uning sha'ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitish yo'li bilan amalga oshiriladi, bu aslida jinoyat sodir etgan shaxslarning asosiy kriminologik xususiyatlarini aks ettiradi deyilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, milliy qonunchilik normasida ham, respublika huquqshunoslik bilim yurtlarida o'qitiladigan adabiyotlarda ham (shu jumladan, respublika huquqshunos olimlari tomonidan ham) o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyatini sodir etgan jinoyatchi shaxsini tavsiflash masalasiga yetarlicha e'tibor berilmagan. Shu sababli biz o'rganilayotgan qilmishni sodir etgan jinoyatchi shaxsiga nafaqat kriminologik baho berish, balki uning jinoiy xulq-atvor turlarini ham ajratib ko'rsatamiz.

Voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilishda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishi materiallarini o'rganish natijasida aksariyat hollarda ushbu jinoyatdan jabrlangan shaxslarga nisbatan ruhiy tazyiq o'tkazish bilan bog'liq zo'ravonlik sodir etilganini ko'rish mumkin.

O'rganilayotgan normaning obyektiv tomoni odatda kishining sog'lig'i uchun amalda

shikast yetkazishi mumkin bo'lgan narsalar va uy-ro'zg'or buyumlari yordamida amalga oshiriladigan badanga turli darajadagi shikast yetkazish, boshqa xarakterdagi zarbalar berish, shuningdek, jabrlanuvchiga uyatsiz so'zlarni aytish orqali ma'naviy azob berish, inson qadr-qimmatini kamsitish, tahdid va shunga o'xshash shantajliklar, shu jumladan, jabrlanuvchi o'z joniga qasd qilmasa qiynoqlarni to'xtatmaslik tahdididan iborat.

Mazkur tadqiqot doirasida 200 dan ortiq sud hukmlarini o'rganish voyaga yetmaganlarning o'z joniga qasd qilishida aybdor bo'lgan jinoyatchi shaxslarning kriminologik tavsifini tuzish imkonini berdi.

Tahlillar voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilishda aybdor bo'lgan jinoyatchi shaxslar asosan erkaklar tomonidan sodir etilganligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich 89,6 foizni tashkil etadi. Shuningdek, o'rganishlar huquqbuzarning shaxsi umumiy qabul qilingan xatti-harakatlar normalarini e'tiborsiz qoldiradigan, salbiy axloqiy va psixologik xususiyatlarga ega zo'ravonlik sifatida qaralishi kerakligini taqozo etadi.

Bundan tashqari, sudning ayblov hukmlari bilan tanishish jinoyatchining xulq-atvoriga quyidagi tavsiflarni berish imkonini beradi, ya'ni despotizm muhitini yaratish, jabrlanuvchida uning hayoti va sog'lig'i uchun doimiy qo'rquvni uyg'otish, kaltaklashdan qo'rqitish, bezorilik qilish, shaxsni ma'naviy tahqirlash, ruhiy jarohatlash; tajovuzkor psixologik ta'sir (og'zaki haqoratlar, qo'pol talablar, ayblovlar, doimiy ravishdagi g'azablar va h. k.).

Sud-tergov amaliyotini o'rganish bizga jabrlanuvchiga nisbatan sodir etilgan tahdidlar, badanga turli darajadagi shikast yetkazish va inson qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitish oqibatida unda psixologik tushkunlik paydo bo'lishi o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyatini sodir etgan shaxsning o'z jismoniy va ruhiy holatini bilishi bilan bog'liq, u jabrlanuvchiga nisbatan psixologik ustunlikdan foydalanadi, degan

xulosaga kelishga imkon beradi. Bunga jabrlanuvchiga nisbatan sodir etilgan bunday harakatlarning doimiy takrorlanishi (to'xtatilmaligi) sababli asosli deyish mumkin.

Bundan tashqari, jabrlanuvchi uyalgani, andisha qilgani yoki qo'rqqanidan hech kimga bu haqda xabar bermasligi va bu tabiiy ravishda aybdorga aybdorning javobgarlikka tortilmasligiga ishonchi komil bo'lib, tajovuzkorlikning kuchayishiga va tazyiqlar kabi jirkanch harakatlarni davom ettirishiga olib keladi. Bularni inobatga olib, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazishda jabrlanuvchiga nisbatan jinoiy tajovuzlar zo'ravonlik ta'sirini qo'llash orqali sodir etiladi hamda bunda aybdor tajovuzning javobi yo'qligiga asossiz ishonishi sabab bo'ladi, degan fikrga kelishimiz mumkin [7, 528-b.].

A.I. Lojkin jinoiy tajovuz, uning paydo bo'lishi va shaxsda kechishi borasida batafsil to'xtalib o'tgan. Muallif tajovuz hodisasini o'rganar ekan, muayyan harakat shakli orqali ifodalangan jinoiy tajovuzkor zo'ravonlik xatti-harakati shaxsning jabrlanuvchiga nisbatan qilingan dushmanlik niyatini amalga oshirishini aniqlaydi. Bunday xatti-harakatlar jabrlanuvchining hayotiga so'zsiz zarar yetkazishga qaratilgan bo'ladi [8, 136-b.].

Bizning fikrimizcha, o'rganilayotgan hodisa kontekstida tajovuzkorlikning paydo bo'lishiga ko'pincha jabrlanuvchining o'zi sababchi bo'lishi, ya'ni ushbu holatlarni yashirishi va bu o'z-o'zidan zo'ravonlik va ruhiy tazyiq uchun aybdorga turtki bo'lishi, boshqacha aytganda, jabrlanuvchining bu holatidan foydalanib o'z harakatlarining javobi yo'qligiga ishonch hosil qilgan holda zo'ravonligini davom ettirishiga olib keladi.

Bir qator olimlar zo'ravonlik harakatlari sodir bo'ladigan bunday omilni ijtimoiy muhitning ta'siri sifatida qayd etishadi. Agressiv tendensiyalarning namoyon bo'lishiga butun jamiyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy sharoitlar yordam beradi. Har bir inson shaxsining shakllanishi eng avvalo jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy munosa-

batlar bilan belgilanadi. Olimlarning fikriga ko'ra, aynan ushbu ijtimoiy munosabatlar insonning ayrim fazilatlarining ma'lum darajada rivojlanishiga yoki tanazzuliga yordam beradi [9, 383-b.; 10; 11].

Tadqiqot davomida o'rganilgan ayrim sud hukmlari yuqoridagi fikrlarning tasdig'idir. Jumladan, B. fuqaro N. bilan birga yashab, muntazam ravishda mast holda o'zi bilan birga yashovchi o'n yoshli qizi K.ga nisbatan nojo'ya harakatlar qilib kelgan. K.ga jismoniy og'riq keltiruvchi, shuningdek, salbiy ruhiy ta'sir ko'rsatadigan zo'ravonlik xarakteridagi harakatlarni amalga oshirgan, ya'ni jabrlanuvchining bo'ynidan ushlab, qo'llari bilan sochlarini silagan va qochib ketishiga to'sqinlik qilganida, jismoniy ustunligidan foydalanib, uni ko'chaga haydash bilan tahdid qilgan holda ochiq derazaga sudrab olib borgan. Bundan tashqari, u jabrlanuvchining yuziga va tanasining turli joylariga qo'llari va kishining sog'lig'i uchun amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan narsalar bilan muntazam ravishda kaltaklagan, voyaga yetmagan K.ga nisbatan qo'rqitish va behayo so'zlarni ishlatgan, natijada u o'z joniga qasd qilgan [12].

Shuningdek, tahlilda voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish jinoyatini sodir etgan shaxslarning 50 foizini spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga ruju qo'yganlar yoki jinoyat sodir etilgan vaqtda mast holda, ko'pincha vaqtincha mehnat faoliyati bilan shug'ullanmayotgan (ishsiz)lar tashkil etadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 103-moddasi bo'yicha gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchilarning 37,5 foizini ilgari sudlangan shaxslar tashkil etadi.

Bunday omillar davlat organlari tomonidan huquqiy ta'sirning (masalan, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari) yetarli darajada olib borilmayotganligi, jamoatchilik nazorati yo'qligi kabilar natijasida yuzaga keladi, deyish mumkin [7, 528-b.].

Voyaga yetmaganning o'z joniga qasd qilishida aybdor bo'lgan shaxsning xususiyatini

tavsiflashda jinoyatchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi munosabatlarga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

Tahlillar voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish jinoyatini sodir etgan aybdorlarning 89,7 foizi ushbu jinoyatdan jabrlangan shaxslarning yaqin qarindosh (qarindoshi, farzandlari (ko'pincha o'gay) va h.k.)lari tashkil etishini ko'rsatadi.

Oila turmush doirasida voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazishda, jinoyatchining shafqatsizligi jabrlanuvchining qaramlik holatiga bog'liq hisoblanadi. Boshqacha aytganda, aybdor "xudbin" xulq-atvori va "jirkanch" illatga egaligi bois jabrlanuvchining alohida yashash imkoniyati mavjud bo'lmaganidan foydalangan holda jabr-zulmni to'xtatmaydi.

Bu borada A.Sh. Murodov ta'kidlaganidek, oilada zo'ravonlik sodir etayotgan shaxslarning o'ziga xos xususiyati shundaki, shaxs oilaning boshqa a'zolariga nisbatan o'zining ruhiy (psixologik) ta'sirini ko'rsatishi jabrlanuvchining o'z joniga qasd qilishiga olib keladi [13, 85-b.].

Voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish jinoyatini sodir etgan shaxslarning ma'lumoti borasidagi tahlillar ushbu jinoyatni sodir etgan shaxslarning aksariyati (63,7 foizi) o'rta va o'rta maxsus ma'lumotga ega ekanliklarini ko'rsatadi.

Shu o'rinda qayd etish joizki, voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish jinoyatini sodir etish biryo'la shaxsga qarshi boshqa jinoyatlar sodir etish bilan ham tavsiflanadi. Tahlillar mazkur jinoyatni sodir etgan shaxslarga nisbatan Jinoyat kodeksining boshqa bir qator moddalari bo'yicha ham ayblov qo'yilganini ko'rsatadi.

Voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish jinoyatini sodir etgan shaxslarning xususiyatiga oid tavsifga yanada aniqlik kiritish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tergov xizmatlari tergovchilari o'rtasida o'tkazilgan anketa so'roviga ko'ra, "Voyaga yetmaganlarni o'z

joniga qasd qilish darajasiga yetkazish jinoyatini sodir etgan shaxslarning o'ziga xos xususiyatlari nimada (bir nechta variant tanlash mumkin)?" degan savolga respondentlarning 54,2 foizi "ruhiy holatida muammo borligi", 46,1 foizi "oliy ma'lumotga ega emasligi", 68,8 foizi "huquqiy ongi va huquqiy madaniyati pastligi", 48,2 foizi "ma'naviyati past ekanligi", 55,4 foizi "shafqatsizligi", 39,7 foizi "xudbinligi", 64,3 foizi "o'z harakatlarining jazosiz qolishiga ishonch" deya javob berishgan.

So'rovnoma asosida olingan javoblar voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish jinoyatini sodir etgan shaxsni shafqatsizlikka moyil, salbiy xulq-atvoriga ega ruhiy beqaror xususiyat egasi deyishimiz mumkin.

Xulosalar

Shularni inobatga olib voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazishda aybdor bo'lgan jinoyatchining shaxsi tavsifini shakllantirishni dolzarb ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz va quyidagi mualliflik ta'rifini taqdim etamiz.

Voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazishni sodir etgan jinoyatchi shaxsi – shaxs, ijtimoiylashuv jarayonida o'ziga jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq normalari va qoidalarini mensimaydigan, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga bepisand, o'z xatti-harakatining jamoat xavfliligiga zid ekanligini bilishiga qaramay, ularga rioya qilmaslik va buzishga moyil bo'lgan xulq-atvoriga egaligi bilan tavsiflanadi.

Bundan tashqari, mazkur shaxsning odobsiz, shafqatsiz, tajovuzkor, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga moyil, boshqalarga g'amxo'rlik qila olmaydigan, noodatiy ehtiyojlari bo'lgan va shunday xohish-istaklarga ega, odamlarni ma'naviy va jismoniy azob-uqubatlarga duchor qilishga moyil, bunga erishish natijasida esa go'yoki boshqalardan ustunligini bildirib qo'yishdek xulq-atvoriga ega xususiyatlarini sanab o'tish lozimdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga

yetkazishni sodir etgan jinoyatchi shaxsini o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi muayyan turlarga ajratish mumkin:

1. "Zo'ravon" – bu mavjud hayotiy sharoitlar tufayli tajovuzkor va zo'ravon xulq-atvoriga ega bo'lgan, jabrlanuvchini qasddan, asossiz va muntazam ravishda qiynoqqa solib, uni o'z joniga qasd qilishga jismoniy va ruhiy majburlaydigan shaxs. Bunday xatti-harakatlar ular o'z harakatlarining jazosiz qolishiga ishonishlari va boshqalarga bo'lgan shafqatsiz ehtiyojlarini qondirishga moyilligining yuqoriligi hisoblanadi.

2. "Lider" – maqsadi doimo boshqalardan har taraflama ustun bo'lish, o'zga shaxslarga past nazar bilan qaraydigan, shuningdek, o'z fikri, harakatlari hamda ichki munosabatlarning to'g'riligiga ishonadigan va buni boshqalar ham tan olishlarini xohlaydigan, shu bilan birga, jabrlanuvchining "qaram"ligidan foydalanadiganlardir.

3. "Hasadgo'y" – o'zgalarning yutuqlari va ustunliklarini hazm qila olmaydi va doimo bunga qarshi kurashadi, ya'ni o'zidan qaysidir sifati bilan ajralib turgan insonga yomonlik qilish payida bo'ladi yoki uni xohlashi bilan tavsiflanadi.

4. "Shantaj" – o'zgedan nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan harakatni sodir etishga yoki sodir etishdan o'zini tiyishga majbur qilish maqsadida jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish oqibatida ushbu jinoyatni sodir etishi bilan tavsiflanadi.

Shu o'rinda qayd etish joizki, voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazishni to'liq tushunish uchun ushbu jinoyat jabrlanuvchisining shaxsini o'rganish joizdir.

Tadqiqot olib borilayotgan normaning o'ziga xos xususiyati ushbu jinoyatda o'lim jabrlanuvchining o'zi tomonidan sodir etilishidir. Shu bois ham boshqa jinoyat jabrlanuvchilaridan farqli ravishda ushbu jinoyat

jabrlanuvchisiga ko'proq e'tibor qaratish va o'rganish lozim.

Hozirda ko'p hollarda voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish jinoyati tufayli oilaning ayrim (ko'pincha ayollar) a'zolari, shuningdek, ba'zi kasb egalari, alohida turdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchilar jinoyat qurboniga yoki jabrlanuvchisiga aylanib qolmoqda [14, 39-b., 62-b.].

Shu bois endilikda o'zining salbiy xulqi, turmush-tarzi va yurish-turishi bilan birga ijtimoiy mavqeyi va jismoniy holati, bajarayotgan mehnat faoliyati bilan bog'liq holda jinoyat qurboniga aylanishi mumkin bo'lgan shaxslarga nisbatan profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

REFERENCES

1. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya [Criminology]. Ed. M.Kh. Rustamboev. Tashkent, TSIL Publ., 2008, p. 61, 68.
2. Kriminologiya [Criminology]. General part. Ed. F.K. Zinnurov. Kazan, KYI MIA of Russia, 2019, 157 p.
3. Niyozova S.S. Shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi [Victimological prevention of violent crimes against the person]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, TSUL, 2020, p. 26.
4. Burlakov V.N. Ugolovnoye pravo i lichnost' prestupnika [Criminal law and the personality of the criminal]. St. Petersburg: Publishing House of St. Petersburg State University, 2006, 238 p.
5. Kriminologiya [Criminology]. Ed. V.E. Eminov. Moscow, Prospekt Publ., 2015, pp. 87–88.
6. Niyozova S.S. Shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi [Victimological prevention of violent crimes against the person]. Tashkent, TSUL, 2020, p. 38.
7. Niyozova S.S. Reasons for Suicide and the Issue of Responsibility. *International Journal of Pharmaceutical Research*, 2020, December, vol. 12, Suppl. iss. 3, p. 528.
8. Niyozova S.S. Reasons for Suicide and the Issue of Responsibility. *International Journal of Pharmaceutical Research* | Dec 2020 | Vol 12 | Supplementary Issue 3 p. 528.
9. Lozhkin A.I. Psikhologiya lichnosti agressivno-nasilstvennogo prestupnika (motivatsionno-smyslovoy aspekt) [Personality psychology of an aggressive and violent criminal (motivational and semantic aspect)]. Ekaterinburg, Ural legal Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia, 2002, 136 p.
10. Antonyan Yu.M. Psikhologiya ubiystva [Psychology of murder]. Moscow, Yurist, 1997, 304 p.
11. Kudryavtsev V.N. Genezis prestupleniya. Opyt kriminologicheskogo modelirovaniya [Genesis of the crime. Experience in criminological modeling]. Moscow, 1998, 220 p.
12. Luneyev V.V. Motivatsiya prestupnogo povedeniya [Motivation for criminal behavior]. Ed. V.N. Kudryavsev. Moscow, Nauka Publ., 1991, 383 p.
13. Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent viloyati sudi arxivi materiallari [Archive materials of the Tashkent regional court on criminal cases]. Dated 08.11.2021.
14. Murodov A.Sh. Ichki ishlar organlarining oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish [Improving the prevention of crimes related to domestic violence by internal affairs bodies]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2019, p. 85.
15. Niyozova S.S. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 2020, vol. 29, no. 3, p. 3962.
16. Niyozova S.S. Strong Emotional Arousal (Effect) as a Criminal Law Norm. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, March 31, pp. 96–102. ISSN 2693-0803. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume 03 Issue p. 03-15.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.3./PDZH5441>
UDC:347.934(045)(575.1)

HUJJATLARNI QALBAKILASHTIRISH VA QIMMATLI QOG‘OZLARNI SOXTALASHTIRISH, KO‘CHIRILGAN DASTXATLAR, HUJJATLARNING O‘ZGARTIRILGANLIGI BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI ANIQLASH

Shonazarov Abduvali Shonazarovich,

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi
ORCID: 0000-0003-2729-526X
e-mail: abduvalitogayev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli qog‘ozlarni soxtalashtirish bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda xorij amaliyotining muhim jihatlari yoritilgan. Hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli qog‘ozlarni soxtalashtirish bilan bog‘liq jinoyatlar hozirgi zamonda eng keng tarqalgan jinoyatlar sirasiga kiradi. Texnologiya yangiliklari ko‘paygan sari undan foydalanish imkoniyatlari oshib boradi. Ayniqsa, hozirgi zamonda hujjatlarning haqiqiyiligini saqlovchi xavfsizlik baland bo‘lishiga qaramay ularni qalbakilashtirish yo‘llari texnologiya sababli hali ham mavjuddir. Ushbu jinoyatning dolzarbligi shundaki, hujjatlarni soxtalashtirish faqatgina ijtimoiy xavfliligi bilangina dolzarb emas, balki uning zarari ham shaxsga, ham davlatga birdek zarar yetkazadi. Shuningdek, ko‘chirilgan dastxatlar va hujjatlarning o‘zgartirilganligi yoki yaratilgan elementlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bu turdagi jinoyatlar tobora shiddat bilan o‘sib bormoqda. Ya‘ni insonlar uchun joriy etilayotgan yangi turdagi qulayliklarni “uchar jinoyatchilar” o‘zlashtirib (QR kod va muhrlar) o‘zlarining maqsadlari yo‘lida foydalanishmoqda. Maqolada xorijlik mutaxassislarining yuqoridagi mavzuga oid fikr mulohazalarini ko‘rish mumkin. Ayni vaqtda jamiyatning har bir a‘zosi o‘z xatti-harakatini qonuniyligini ta‘minlash uchun hujjatlarga murojaat qilishi odatiy holdir. Hujjatlardan bunday keng usulda foydalanish jinoyatchilarning e‘tiborini tortishi tabiiy holdir.

Kalit so‘zlar: QR kod, muhr, shtamp, fotosensitiv imzo muhri, Image processing, Mikrospektrofotometriya, CNN modellar.

ВЫЯВЛЕНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПОДДЕЛКОЙ ДОКУМЕНТОВ И ЦЕННЫХ БУМАГ, КОПИРОВАНИЕМ ПОДПИСИ И ИЗМЕНЕНИЕМ ДОКУМЕНТОВ

Шоназаров Абдували Шоназарович,
преподаватель Кашкадарьинского областного
юридического техникума

Аннотация. В данной статье освещены важные аспекты зарубежной практики расследования преступлений, связанных с подделкой документов и ценных бумаг. Преступления, связанные с подделкой документов и ценных бумаг, относятся к числу наиболее распространённых преступлений современности. По мере развития технологий расширяются и возможности их использования. Несмотря на высокий уровень безопасности, защищающий подлинность документов, особенно в наше время, всё ещё существуют способы их подделки вследствие развития

современных технологий. Актуальность данного преступления заключается в том, что фальсификация документов актуальна не только в силу своей общественной опасности, но и в силу причинения вреда личности и государству. Также важно выявить изменённые или созданные элементы скопированных подписей и документов, так как этот вид преступлений становится всё более жестоким. То есть находчивые преступники внедряют и используют новые типы инструментов (QR-коды и печати) для достижения своих целей. В статье приведены мнения зарубежных специалистов по рассматриваемой теме. При этом отмечено, что каждому члену общества свойственно обращаться к документам для обеспечения законности своих действий. Вполне естественно, что такое широкое использование документов привлекает внимание преступников.

Ключевые слова: QR-код, печать, штамп, светочувствительная подпись, Image processing (обработка изображений), микроспектрофотометрия, модели CNN.

DETECTION OF OFFENCES RELATED TO FORGERY OF DOCUMENTS AND SECURITIES, COPYING OF SIGNATURES, AND ALTERATION OF DOCUMENTS

Shonazarov Abduvali Shonazarovich,

Teacher of Kashkadarya Regional Legal Technique

Abstract. This article highlights important aspects of the foreign practice of investigating crimes related to the forgery of documents and securities. Crimes related to the forgery of documents and securities are among the most widespread crimes of our time. With the development of technologies, the possibilities of their use are expanding. Despite the high level of security protecting the authenticity of documents, especially nowadays, there are still ways to forge them thanks to modern technology. The relevance of this offense lies in the fact that falsification of documents is relevant not only because of its public danger but also because of the harm caused to the individual and the state. It is also important to identify altered or created elements of copied signatures and documents, as this type of crime is becoming more and more violent. That is, resourceful criminals introduce and use new types of devices (QR codes and stamps) to achieve their goals. In the article, the opinions of foreign specialists on the considered theme are given. It is noted that it is peculiar for every member of society to address the documents to ensure the legality of their actions. It is quite natural that such a wide use of documents attracts the attention of criminals.

Keywords: QR code, seal, stamp, photosensitive signature, image processing, microspectrophotometry, CNN models.

Kirish

Insonlar jamiyat sifatida o'zaro ijtimoiy munosabatlar o'rnata boshlaganlaridan boshlab ushbu munosabatlarning vositasi o'laroq yozuvni, shu bilan birga, hujjatlarni ham yaratib boshlaganlar. Yuridik jihatdan muayyan munosabatlarda hujjatlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Hujjatlar jamiyatda muhim o'rin egallaydi. Shu boisdan hujjatlar bilan bog'liq munosabatlar keng va murakkabdir. Shunday ekan, hujjatlar bilan bog'liq munosabatlarda hujjatlarni tayyorlash va g'ayriqonuniy ravishda soxtalashtirish va qalbakilashtirish institutini o'rganish muhim ahamiyat kasb eta-

di. Shuning uchun, avvalambor, "hujjatlar" va "hujjatlarni qalbakilashtirish" tushunchasini bilib olishimiz lozim.

Ingliz yozuvchisi, olim Katirina Kopenhaver "Forensic documents examination: Practice and Principle" asarida bayon qilganidek, soxtalashtirish san'ati xuddi alifbo kabi qadimiydir [1].

Olim V.S. Postnikovning fikriga ko'ra, soxta hujjatlarni tayyorlash – ma'lum bir turdagi rasmiy hujjatlar (ishlab chiqarish, o'zgartirish)ni yaratib, buzib, zararli yoki noto'g'ri ma'lumot (berish, tarqatish, foydalanish)lardan iborat bo'lgan axborotlarni o'z ichiga ol-

gan hujjatlarni noqonuniy tayyorlash orqali amalga oshiriladigan jinoiy qalloblikning bir shaklidir [2]. Hujjatlarni tayyorlash ma'lum protsessni qamrab oladi. Bu harakatni qamrab oluvchi tushuncha bo'lmaganligi uchun ham hujjat haqida aniq ta'rif yuridik adabiyotlarda uchramaydi. Hujjatlarni tayyorlash, jinoiy-huquqiy nuqtayi nazardan soxta hujjatlarni ishlab chiqishni qamrab oladi. Qonunchilikda jinoiy motiv, maqsaddan kelib chiqqan holda belgilangan tartib va normalar asosida ishlab chiqilmagan, tayyorlanmagan hujjatlar qalbaki hujjatlarni tayyorlash hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 228-moddasi birinchi qismiga ham e'tibor beradigan bo'lsak, bu moddada "soxtalashtiruvchining o'zi yoki boshqa shaxs foydalanishi maqsadida muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatdan ozod etadigan rasmiy hujjatlar tayyorlashi" tarzida bayon etilgan.

Hujjatlarni soxtalashtirish – hujjatlarga qalbaki ma'lumotlar kiritish va undan foydalanishdir. Shuningdek, hujjatlarni soxtalashtirish deganda hujjatlarga o'zgartirish kiritish, qo'shimchalar kiritish va yolg'on ma'lumotlar kiritish hamda ularni tayyorlash tushuniladi. Jismoniy va yuridik shaxs hujjatni taqdim etib yoki ko'rsatib, o'zining har qanday maqsadini (o'z vakolati va hujjatda yo'l qo'yilgan vakolat doirasida) amalga oshirishi mumkin, bu muayyan huquq beradigan hujjatlar sanaladi. Muayyan majburiyatdan ozod etadigan hujjat deganda esa davlat, yuridik yoki jismoniy shaxs oldidagi hamma uchun bajarilishi shart bo'lgan majburiyatlardan ozod qilinishi mumkinligi tushuniladi. Masalan, transportda yo'l haqi to'lashdan, soliq to'lashdan va hokazo majburiyatlarni bajarishda to'la yoki qisman ozod etadigan hujjatlarni tushunish mumkin [3].

Material va metodlar

Nega metodlar turlicha va nega ular davlatlarda va mutaxassislar tomonidan bir xil yo'sinda foydalanilmaydi? Chunki mutaxassislar turli bilim va ko'nikmalarga ega. Har bir

mutaxassis bitta metoddan foydalana olmadi. Shuning uchun metodlar ko'p va ularni qo'llash usullari ham har xil. Ingliz yozuvchisi Jeyn Lewis o'zining "*Foresic Document Examination*" asarida mana shu metodlardan ko'plarini misol qilib keltirib o'tgan [4]. Ulardan biri ACE metodi. Bu metod kanadalik ekspert Roy Huber tomonidan ishlab chiqilgan metod bo'lib, ACE metodi quyidagilarni qamrab oladi: 1) analiz, 2) taqqoslash, 3) baholash.

Bu metodni Roy Huber 1959-yilda "Criminal Law Quarterly" jurnalida chop qilingan o'zining maqolasida batafsil bayon qilgan. U mazkur metodni quyidagicha ta'riflaydi:

1. *Analiz*. Noma'lum manba uning xarakteristikasi va boshqa xususiyatlari bilan klassifikatsiya qilinishi lozim. Bu xususiyatlar ko'rib, ushlab va his qilib bo'ladigan bo'lishi lozim. Lekin bu xususiyatlar butunning bir qismi bo'lishi lozim.

2. *Taqqoslash*. Uning tasviriy effektlari, subyektiv illyuziyalari va hujjatda mavjud belgilarni bir-biriga solishtirish orqali individual xarakterga ega elementlar aniqlanadi.

3. *Baholash*. Doim ham analiz va taqqoslash aniq javob olish uchun yetarli bo'lmaydi. Shunda hujjatdagi har bir xususiyat uning ko'p takrorlanganligi va tartibi alohida tahlil qilinishi lozim.

Tadqiqot natijalari

Shuningdek, imzo va QR kodlarni qalbakilashtirish va soxtalashtirish bilan bog'liq jinoyatlarni quyidagicha tahlil qilamiz.

Sud-xatshunoslik ekspertizasi tomonidan qabul qilinadigan eng keng tarqalgan tergov bu imzo tahlilidir. Chunki hujjatlar imzo va muhr bilan yuridik kuchga ega bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda soxtalashtirishlarning eng keng tarqalgan va oddiy usuli o'zganing imzosini soxtalashtirish orqali hujjatlarga o'zgartirish kiritishdir. Kaleforniyalik olim hujjatlar bo'yicha ekspert Ketil Karlson shaxsiy veb-saytida hujjatlarni tekshirishda nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida tajribalarini bo'lishadi: "Hujjatni tekshiruvchi uchun imzolarni tahlil qilish va taqqoslash


tartib-qoidalari hujjat turi masalasidan qat'i nazar, izchil bo'ladi. Mening birinchi qadamim muammoli hujjatning asl nusxasini talab qilishdir. Siz tasavvur qilganingizdek, imzolar barmoq izi kabi noyobdir. Ular o'xshash bo'lishi mumkin, ammo ikkitasi mutlaqo bir xil bo'lmaydi. Imzolarni tahlil qilish jarayonini yakunlash uchun hujjat tekshiruvchisiga ma'lum imzolarning bir nechta misollari kerak bo'ladi. Masalan, o'zingizning imzolaringizni ko'rib chiqing; ular bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, ularning tashqi ko'rinishi bir-biridan farq qilishini sezasiz. Shu sababli hujjatni tekshiruvchiga yozuvchi uchun o'zgaruvchanlik diapazoni va agar tekshirilayotgan imzo shu diapazonga to'g'ri kelsa, aniqlashga yordam beradigan bir nechta imzo namunalari kerak bo'ladi. Eng yaxshi natijalarga erishish uchun hujjat ekspertizasi imzolangan vaqtga yaqin sanasi bo'lgan hujjatlar so'ralishi tavsiya etiladi" [5].

Fotosensitiv imzo muhri yordamida imzolarni soxtalashtirish. Imzolar tekshiruvchi har qanday hujjatlar tekshiruvchisi tomonidan o'tkaziladigan eng keng tarqalgan ishdir. Tahlil qilinayotgan hujjatdagi qo'lda yozilgan imzoning haqiqiylikni aniqlash sud ekspertizasi sohasidagi sud hujjatlari ekspertlari uchun muhim vazifadir. Texnologiyaning uzluksiz rivojlanishi natijasida endi qo'lda yozilgan imzoni ko'paytirishni ta'minlash uchun fotosensitiv muhr yordamida imzo muhri yaratilishi mumkin. Ushbu markalar odatda Xitoy va boshqa bir qator mamlakatlarda qo'llanadi. Bundan tashqari, Mikroskopik tahlil, infraqizil (IQ) va lyuminessensiya tahlillari va Mikrospektrofotometriya (MSP) texnikasi bosma qog'ozlarga, yozuv qog'ozlariga va hisob-faktura qog'ozlariga qo'llanganda olingan fotosensitiv imzo muhri tekshirish uchun ishlatilgan. Tahlil qilingan hujjatda qo'lda yozilgan imzoning haqiqiylikni aniqlash sud-xatshunoslik ekspertizasining muhim jihati hisoblanadi va birinchi qadam imzo yozuv siyohi yordamida yaratilganligini aniqlashdir. Imzoni aniqlash yoki uning haqiqiylikni isbot-

lash ko'plab huquqiy qarama-qarshiliklarning muhim jihati bo'lgan. Ba'zan fotosensitiv imzo muhrlari shunchalik puxtalik bilan yaratiladiki, ular ko'picha insonlar ilg'ay olmaydigan darajada aniq qilib ko'chiriladi (1-, 2-rasmlar).



1-rasm. Idishchada saqlanadigan fotosensitiv shtamp siyohi (A), fotosensitiv imzo shtampining ostki yuza qismi (B), fotosensitiv shtampning to'liq ko'rinishi (C)



2-rasm. Fotosensitiv shtamp tomonidan yaratilgan imzo (A), qo'lda yaratilgan imzo (B)

Fotosensitiv imzo muhri yaratish uchun avval qo'lda yozilgan imzoni tashqi kirish moslamasi orqali kompyuterga skanerlash kerak. "Image processing" dasturidan kerak bo'lganda imzo tasvirini tahrirlash va sozlash uchun foydalanish mumkin. Keyin tahrirlangan imzo shtampi naqshlari monoxromatik lazer yordamida yozilgan qog'ozga yoki shaffof plyonkaga bosiladi. Yozilgan qog'ozga yoki shaffof plyonkaga bosilgan imzoning plitasi fotosensitiv shtamp yostig'iga joylashtirildi va ular fotografik tasma yaratish uchun birlashtiriladi. Ushbu ta'sirdan so'ng tasvirning noaniq qismi mikro teshiklarni to'sib qo'yadigan va yog'ning unga kira olmasligini ta'minlaydigan o'ziga xos qalinligi va kuchiga ega qora plyonka hosil qiladi. Imzo qismidagi fotosensitiv material fotosensitivlikni bosh-

dan kechirmagan va shuning uchun asl holatida qoladi.

Nihoyat, ochiq fotosensitiv yostiqliq maxsus siyoh bilan to'ldiriladi. Shtamplash jarayonida yostiqlikdagi siyoh mikroporlar orqali o'tib, imzo hosil qilinadi.

QR kodlarni soxtalashtirish. QR kodlari (tezkor javob kodlarining qisqartmasi) dastlab avtomobilsozlik sanoatida zavod zaxiralari va logistikasini kuzatish uchun ishlab chiqilgan, ammo so'nggi bir necha yil ichida smartfonlar va mobil telefon kameralarining keng qo'llanishi tufayli ularning mashhurligi sezilarli darajada kengaygan. QR kodlari inventarizatsiya, reklama, elektron chiptalar va mobil to'lovlarini kuzatish kabi turli maqsadlarda ishlatilishi mumkin. QR kodlari ma'lum vaqt davomida ma'lumotlarni, shu jumladan, URL manzillarini saqlash va almashishning mashhur hamda qulay usuli bo'lib kelgan. Ular osongina ishlab chiqarilishi mumkin, shuningdek, ular ishonchli va ulardan foydalanish arzon. Smartfon kamerasi yordamida skanerlashda QR kod foydalanuvchini klaviatura yordamida URL manzilini qo'lda kiritmasdan tezda ma'lum bir veb-saytga yoki veb-sahifaga yo'naltirishi mumkin. Bu QR kodlarini marketing, reklama va elektron chiptalarni o'z ichiga olgan turli xil ilovalar uchun qulay vositaga aylantiradi. Garchi ular ma'lumotni saqlash va almashish uchun qulay va keng qo'llansa-da, ularning mavjudligi ularni osonlikcha soxtalashtirish mumkinligini anglatadi.

AQShda raqamli sud ekspertizasi bosma hujjatlarning to'g'ridan to'g'ri aloqalarini, shu jumladan, QR kodlarini tanib olish uchun ishlatilishi mumkin, bu soxta hujjatlarni tekshirish va qalbakilashtiruvchilarni ta'qib qilish uchun muhimdir. Jarayon manba printerlari va dublikatlar o'rtasidagi munosabatni aniqlash uchun optik mexanizmlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Kompyuterni ko'rish va mashinani o'rganish texnikasi, masalan, konvolutsion neyron tarmoqlar (CNN), identifikatsiyalashning aniqligini oshirish uchun statistik xususiyatlarni o'rganish va umumlashti-

rish uchun amalga oshirilishi mumkin. Ushbu tadqiqot ALEXNET, DenseNet201, GoogleNet, MobileNetv2, ResNet, VGG16 va boshqa CNN modellarini QR kodlarining printer manbalarini yuqori aniqlik bilan aniqlay olish qobiliyatini oshirdi. Ular orasida moslashtirilgan CNN modeli kamroq hisoblash kuchi va mashg'ulot vaqti bilan kulrang va rangli QR kodlarining bosma manbalarini aniqlashda yaxshiroq natijalarni ko'rsatdi.



3-rasm.

QR kod – matritsa kodi sifatida tasniflangan ikki o'lchovli shtrix-kod belgisi. U "modullar" deb nomlanuvchi qora va oq kvadratlardan iborat, qora kvadratlar 1 qiymatini va oq kvadratlar 0 qiymatini ifodalaydi. QR kodlarining 40 ta versiyasi mavjud bo'lib, ularning eng kichigi – 21 x 21 kod elementlardan iborat. Har bir versiya tomonlar elementlar sonini 4 tagacha ko'paytirib kattalashib boradi. 40-versiya 177 x 177 modulga ega bo'lib 31,329 ta koddan tashkil topadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Metodlar qalbakilashtirilgan hujjatlar va soxtalashtirilgan qimmatli qog'ozlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hujjatlar bilan bog'liq jinoyatlar o'ta murakkabdir. Ba'zan ekspert faqatgina imzoni tahlil qilishdan tortib o'n, ba'zan yigirma betlab qog'ozlarni tahlil qilishi kerak bo'ladi. Chunki ekspertlar tomonidan qabul qilingan dalillarda qog'ozlarda yashirin tahdid – soxtalashtirish alomatlari yashiringan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham bunday jinoyatlarni tergov qilish puxtalik va sinchkovlikni talab qiladi. Metodlar esa bu jarayonning ekspertlarga osonroq va tezroq bo'lishini ta'minlaydi. Soxta

hujjatlar va qimmatli qog'ozlar tergovi uchun metodlar turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

ACE metodi hujjatlar tergovi ekspertlari uchun yozuv elementlarini ifodalashda eng oddiy va oson konsepsiyadir. Yozuv elementlari tahlil qilinganda yanada ko'proq belgilar fosh bo'ladi. Bu belgilar orasida yozuvdagi qisqartmalar, harflarning bir tekisda turishi, tartib va ketma-ketlik, formatlash, yozuvning joylashtirilishi, yozuvda bosh harflarning ishtiroki, harflarning ulanganlik yoki ulanmaganlik darajasi, chiziqalar va nuqtalar, tinish belgilari, zarbalar yo'nalishi, niqoblash, bezaklar, shakllantirish, ijro erkinligi, qo'l, chiziq sifati, usuli, ishlab chiqarish, qalamni ushlab va qalam holati, umumiy bosim va bosim naqshlari, urg'u, mutanosiblik, soddalashtirish hajmi, mahorat, qiyalik, oraliq, tezlik, yozuv turi va o'zgaruvchanlik diapazoni kabi yozuvning individual xarakteristikasini ochib beruvchi belgilar topiladi. Yozuv qurolining ko'tarilishi, to'xtashi va ikkilanishi kabi boshqa xususiyatlar, shuningdek, yamoq, chiziqning sekin, chizilgan sifati, g'ayritabiiy titroq va turli shakllardagi ko'rsatmalar mavjud bo'lganda baholanishi

kerak. Hujjatlar haqidagi savollarga, shuningdek, bilim, mahorat, tajriba, trening yoki maxsus ta'lim sud hujjatlari ekspertizasi, shuningdek, boshqa bir qator sohalar, masalan, fizika fanlari, matematika, tilshunoslik va boshqalar orqali javob beriladi.

Xulosalar

Jinoiy guruhlar tomonidan yuqoridagi jinoyatlar keng qo'llanganligi sababli ularga qarshi rivojlangan davlatlardagi metodlarni mamlakatimizda joriy etish orqali mavjud muammolarga yechim topgan bo'lardik. Hozirgi kunda texnologiya namunalari rivojlanib borayotganligi sababli sun'iy intellekt inson qilishi mumkin bo'lgan ko'p ishlarini tezroq va sifatliroq bajarmoqda. Hozir hujjatlarni identifikatsiya qilib bera oladigan ko'plab platformalar va veb-saytlar mavjud. Biz tergovchilar va ekspertlar mana shunday platformalar va veb-saytlardan kengroq foydalanishlarini taklif qilamiz. Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari malakasini oshirish uchun xorijda amaliyot o'tashni tashkil etish yangi turdagi jinoyatchiliklarga qarshi kurashishda yaxshi samara beradi.

REFERENCES

1. Koppenhaver K.M. Forensic documents examination: Practice and Principle. Humana Press, 2007.
2. Postnikov V.S. O ponyatii dokumenta kak predmeta prestupleniya, predusmotrennogo st. 196 UK RSFSR [On the concept of a document as the subject of a crime under Art. 196 of the Criminal Code of the RSFSR]. Improving law enforcement activities of internal affairs bodies. Moscow, 1990, p. 97.
3. Ermatov G.A. Rasmiy hujjatlarni jinoyat-huquqiy muxofaza qilish muammolari [Problems of criminal-legal protection of official documents]. PhD thesis. Tashkent, TSIL, 2007, p. 87.
4. Lewis J.A. Forensic Document Examination. Fundamentals and current trends. 2018.
5. Forensic Examination Provided. Available at: <https://www.westernforensicdocumentexaminer.com>
6. Methodology of crime investigation. The team of authors. Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, 2017, p. 184.
7. Criminalistics textbook. The team of authors. Tashkent, 2018.
8. Abdumajidov F. et al. Criminalistics. Tashkent, Adolat Publ., 2003, 362 p.
9. Sottiyev I.A. Qualification of crimes committed by organized groups. Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, 2012.

10. Chainey S.P., Berbotto A.A. A structured methodical process for populating a crime script of organized crime activity using OSINT. 2021.
11. Ohr B.G. Effective methods to combat transnational organized crime in criminal justice processes.
12. Nickel J. Detecting Forgery. Forensic investigation of documents. University of Kentucky, 2005.
13. Saferstain R. Criminalistics: an Introduction to Forensic Science. P. 59.
14. Li Z., Liu X. An examination of hand written signatures forged using photosensitive signature stamp. Department of Documents Examination, Criminal investigation Police University of China, Shenyang. China, 2021.
15. Tsai M.-J., Lee Y.-C., Chen T.-M. Implementing Deep Convolutional Neural Networks for QR Code-Based Printed Source Identification. Institute of Information Management, National Yang Ming Chiao Tung University. Taiwan, 2023.
16. Al-Ameri M.A.A., Mahmood B., Ciylan B., Amged A. Unsupervised Forgery Detection of Documents: A Network-Inspired Approach. Graduate School of Natural and Applied Sciences, Gazi University. Ankara, Turkey, 2023.
17. Saharan S., Yadav A.K., Novel B.Y. C stain-based chemical method for differentiating real and forged fingerprints. *Egyptian Journal of Forensic Sciences*, 2020.
18. Counterfeiting Stamps or Postal Effects. *Journal of Juridica*. Romania, 2020.
19. Lozovsky D.N. Otdel'nye voprosy kriminalisticheskogo analiza organizovannykh prestupnykh grupp [Selected issues of forensic analysis of organized criminal activity]. Forensics and forensic activity' in modern conditions, 2016, p. 75.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.3./NHJW5249>
UDC: 343.1(045)(575.1)

JINOIY JAVOGBARLIKDAN OZOD ETISHDA JAVOGBARLIKKA TORTISH MUDDATINING O'TGANLIGI ASOSI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakulteti doktoranti, kapitan

ORCID: 0000-0003-39-53-3800

e-mail: jasurbekaniyazov91@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxslarni javobgarlikka tortish muddatining o'tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod etish hamda uning protsessual tartibi bo'lgan ish yuritishni rad etish yoki tugatish bilan bog'liq protsessual muammolar va mazkur masalalarni huquqiy tartibga solish jihatlari tadqiq etilgan. Maqolada jinoyat va jinoyat-protsessual huquqda nazarda tutilgan mazkur javobgarlikdan ozod qilishning moddiy va protsessual asoslari qonunchilik va amaliyot nuqtayi nazaridan tahlil etilgan bo'lib, mavjud muammoli va kollizion holatlarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy mulohaza va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, javobgarlikka tortish muddatining o'tganligi munosabati bilan bog'liq moddiy va protsessual normalarda uchrayotgan muammoli holatlarga urg'u berilgan bo'lib, unda ushbu asosga ko'ra javobgarlikdan ozod etishda jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy zarar o'rnini qoplash masalalari chetda qolganligi va ularning huquqiy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo'llanilgan. Tadqiqot ishida ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar va tergov hamda sud amaliyoti o'rganilgan. Buning natijasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat ishi, javobgarlikka tortish muddatining o'tganligi, jinoyat ishini tugatish, rad etish, moddiy zarar, ayblanuvchining aniqlanmaganligi, javobgarlikdan ozod etish.

ИСТЕЧЕНИЕ СРОКА ПРИВЛЕЧЕНИЯ К ОТВЕТСТВЕННОСТИ КАК ОСНОВАНИЕ ПРИ ОСВОБОЖДЕНИИ ОТ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Атаниязов Жасурбек Курбанбаевич,

докторант факультета послевузовского образования

Университета общественной безопасности

Республики Узбекистан, капитан

Аннотация. В данной статье рассмотрены процессуальные проблемы, связанные с освобождением лиц от ответственности в связи с истечением срока их привлечения, а также с отказом или прекращением производства по делу, являющимся его процессуальным порядком, и аспекты правового регулирования указанных вопросов. В статье проанализированы с точки зрения законодательства и практики материальные и процессуальные основы освобождения от ответственности, предусмотренные уголовным и уголовно-процессуальным правом, даны научные соображения и рекомендации по преодолению существующих проблемных и коллизионных ситуаций. Акцент делается также на проблемных ситуациях и их правовых

аспектах, возникающих в связи с истечением срока давности привлечения к ответственности в соответствии с материально-процессуальными нормами, в которых при освобождении от ответственности по данному основанию рассматриваются вопросы о возмещении потерпевшему материального ущерба. В исследовании использовались такие методы, как анализ, синтез, индукция, дедукция, сравнительно-правовой анализ. В ходе исследования был изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды, следственная и судебная практика, в результате чего были выработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан и другие законодательные и подзаконные акты.

Ключевые слова: уголовное дело, истечение срока давности привлечения к ответственности, прекращение уголовного дела, отказ, материальный ущерб, неустановление обвиняемого, освобождение от ответственности.

EXPIRATION OF THE PERIOD OF BRINGING TO RESPONSIBILITY AS A GROUND FOR EXEMPTION FROM CRIMINAL RESPONSIBILITY: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbaevich,

Doctoral Student of the Faculty
of Postgraduate Education at the Public Security University
of the Republic of Uzbekistan, Captain

Abstract. This article discusses the procedural problems associated with the release of persons from liability in connection with the expiration of their involvement, as well as the refusal or termination of proceedings in a case that is its procedural procedure, and aspects of the legal regulation of these issues. The article analyzes, from the point of view of legislation and practice, the material and procedural bases of exemption from this responsibility provided for by criminal and criminal procedure law. Scientific considerations and recommendations for overcoming existing problematic and conflict situations are developed. The emphasis is also placed on problematic situations arising in the substantive procedural norms in connection with the expiration of the statute of limitations for bringing to responsibility, in which, on this basis, issues of compensation for material damage to the victim and their legal aspects are considered when exonerating from liability. The study used such methods as analysis, synthesis, induction, deduction, and comparative legal analysis. In the course of the study, advanced foreign experience, scientific and theoretical views, and investigative and judicial practice were studied, as a result of which proposals and recommendations were developed for making appropriate amendments and additions to the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan and other legislative and subordinate acts.

Keywords: criminal case, expiration of the statute of limitations for prosecution, termination of the criminal case, refusal, material damage, failure to identify the accused, exemption from liability.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda chuqur ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda va bu bevosita huquqiy hamda ijtimoiy sohalarda namoyon bo'lmog'da. Jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarni qayta tarbiyalash va jamiyatga qaytarish davlatning jinoiy-huquqiy sohadagi eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, jinoiyat yo'lga adashib kirgan shaxslarni jinoiy

javobgarlikdan ozod etish, ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan va jamiyat uchun jinoiy tajovuz subyekti hisoblanmagan bunday shaxslarga imkoniyat berish borasidagi huquqiy normalarni tadqiq etish dolzarb sanaladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Odil sudlovning mazmun-mohiyatiga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan sudlar tomonidan jinoiyat ishlari ni qo'shimcha tergovga qaytarish amaliyo-

tidan voz kechish vaqti keldi. Shu nuqtayi nazardan, faoliyatimiz, birinchi navbatda, aybdor shaxsni javobgarlikka tortib, unga “sudlangan” degan tamg’ani bosishga emas, aksincha, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va profilaktikasiga qaratilishi zarur [1, 52-b.]”.

Darhaqiqat, shaxslarda qonunlarga amal qilish ruhini shakllantirishda adolatlilik, javobgarlikning muqarrarligi va eng muhimi, insonparvarlik tamoyillari muhim sanaladi.

Material va metodlar

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 64-moddasida javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi munosabati bilan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab jinoyatlar toifasiga qarab ma’lum muddat o‘tgan taqdirda, shaxsni javobgarlikdan ozod qilish lozimligi moddiy norma sifatida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, uning protsessual tartibi O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismi 1-bandida nazarda tutilgan. Ta’kidlash joizki, mazkur asosga ko‘ra, jinoyat ishlarini tugatish insonparvarlik prinsipining amaldagi yorqin ifodasi sanaladi.

Shu sababli mazkur asosni amaliyotda, xususan, tergovga qadar tekshiruv, dastlabki tergov hamda sud jarayonlarida qo‘llashda mavjud muammolarni tadqiq etish dolzarbdir.

Tadqiqot ishida mazkur asosni qo‘llash bilan bog‘liq amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan, shu bilan birga, qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlash-tirish, induksiya va deduksiya metodlari qo‘llandi.

Tadqiqot natijalari

Amalda shaxslarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatish O‘zbekiston Respublikasi JPKning 84-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra amalga oshirilishini inobatga olgan holda ushbu normalarni ish yuritish uchun muvofiqlashtirish va vujudga kelayotgan kollizion holatlar-ni bartaraf etish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 84-moddasi birinchi qismi 1-bandida nazarda tutilgan “shaxsni javobgarlikka tortish muddati o‘tgan bo‘lsa”, jinoyat ishi tugatilishi yoki jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi rad etilishi mumkin. Mazkur rad etishni tashkil qiluvchi asosning amaliyotda qo‘llash lozim bo‘lgan ba’zi bir mavhum jihatlari mavjud. Quyida mazkur holatlarga to‘xtalib o‘tamiz.

Xususan, qonunchilikda ishtirokchilikda sodir etilgan, uzoqqa cho‘zilgan va davomli jinoyatlar bo‘yicha javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblashning aniq mezonlari belgilab qo‘yilmaganligi amaliyotda ba’zi mavhumliklarni keltirib chiqaradi. Chunonchi, ishtirokchilikda sodir etilgan, uzoqqa cho‘zilgan va davomli jinoyatlarning asosiy qismini iqtisodiy turdagi yoki mulkni talon-toraj qilish bilan bog‘liq jinoyatlar tashkil qiladi. Jinoyatchilik statistikasiga e’tibor bersak, shaxslar o‘rtasida mulkni talon-toraj qilish bilan bog‘liq jinoyatlar keng tarqalganligini kuzatishimiz mumkin.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoiy-huquqiy statistika boshqarmasining bergan ma’lumotlariga ko‘ra, iqtisodiy sohada sodir etilgan jinoyatlar 2018-yilda – 6 704 ta, 2019-yilda 7 538 ta, 2020-yilda 12 433 ta, 2021-yilda – 17 037 tani tashkil etgan bo‘lib, mazkur jinoyatlar natijasida davlat va jamiyat manfaatlariga juda ko‘p miqdorda moddiy zarar yetkazilgan [2].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamenti tomonidan 2017–2021-yillarda javobgarlikka tortish muddatlarining o‘tib ketganligi sababli jami 2 910 ta jinoyat ishi tugatilgan [3]. Mazkur asosga ko‘ra, tugatilgan ishlar soni jami tugatilgan ishlarining 22,4 %ini tashkil etadi. Bundan tashqari, mazkur asosga ko‘ra, jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish haqidagi qarorlar tugatilgan jinoyat ishlaridan bir necha o‘n marotaba katta raqamlarni tashkil etadi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan tugatilgan jinoyat ishlariga doir statistik ma’lumotlarga ko‘ra, javobgarlikka tor-

tish muddatlari o'tganligi asosi bilan 2017–2021-yillarda jami 367 ta jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa, mazkur ishlar doirasida jami 482 nafar shaxs javobgarlikdan ozod etilgan [4].

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, jamiyatda sodir etilgan jinoyatlar orasida mazkur turdagi jinoyatlarning keng tarqalganligi sababli javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblash va yetkazilgan moddiy zararni undirish bilan bog'liq masalalar muhim sanaladi. Sababi mazkur turdagi jinoyatlar natijasida davlat va jamiyat manfaatlariga juda ko'p miqdorda moddiy zarar yetmoqda.

M.H. Rustamboyevning fikriga ko'ra, jinoyat javobgarlikka tortish muddati – jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab to hukmning qonuniy kuchga kirgan paytigacha qonunda o'rnatilgan muddatlarning tugashi, shundan so'ng jinoyat sodir etgan shaxs tegishli shartlar mavjudligida jinoyat javobgarlikdan ozod qilinishi lozim [5, 162-b.].

M.H. Rustamboyev yana "Jinoyat javobgarlikka tortish muddatini hisoblash ishtirokchilar o'rtasida rollar taqsimlanganda qiyinchilik tug'diradi. Jinoyat kodeksining 28-moddasiga ko'ra, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarda bajaruvchi bilan bir qatorda tashkilotchi, dalolatchi, yordamchilar ishtirok etadi. Bajaruvchi jinoyatning obyektiv tomonini bajargan vaqtdan boshlab javobgar hisoblanadi. ... Tashkilotchi jinoyat qonuniga ko'ra, eksess bajaruvchini istisno etganda, ishtirokchilar tomonidan sodir etilgan barcha jinoyatlar uchun javobgar bo'ladi. ... Dalolatchini jinoyat javobgarlikka tortish muddati u tomonidan dalolatchilik harakati amalga oshirilgan vaqtdan boshlab hisoblanadi. ... Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarda yordamchi ham o'z o'rniga ega bo'lib, uni jismoniy yordamchilik qilganida (jinoyat sodir etish uchun qurol yetkazib berish) javobgarlikka tortish muddati oxirgi harakat sodir etilgan vaqtdan hisoblanadi.

Uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarda jinoyat javobgarlikka tortish muddati jinoyatning faktik jihatdan tugaganligini belgilovchi holat (aybdorning aybini bo'yniga olishi yoki uning ushlanishi)ning yuzaga kelishi bilan boshlanadi. ... Davomli jinoyatlarda jinoyat javobgarlikka tortish muddati aybdorning yagona qasdi asosida sodir etilgan oxirgi jinoyat harakatining tugashi bilan o'tishni boshlaydi" [6, 436–443-b.], deb hisoblaydi.

M.H. Rustamboyevning fikrlari o'rinni. Umuman javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblash va ushbu munosabat bilan bog'liq huquq normalarida moddiy va protsessual jihatlarni kompleks o'rganish hamda tahlil qilish muhim sanaladi. Sababi protsessual normalar moddiy normalarning hayotga tatbiq etilishini ta'minlaydi va shundagina o'z natijasini beradi. Chunonchi, javobgarlikka tortish muddatlari o'tganligi asosi bilan ish yuritishni rad etish va tugatishda moddiy zarar o'rnini qoplash bilan bog'liq masalalarni protsessual normalar o'zida qamrab olmagan.

Z.S. Zaripovning fikriga ko'ra, "Uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarga nisbatan muddat o'tishi ularning aybdor tashabbusi bo'yicha to'xtatilgan paytdan yoki uning irodasiga qarshi ularning to'xtatib qo'yilishi paytdan boshlab, davomli jinoyatlarga nisbatan esa davomli jinoyatni tashkil qiluvchi qilmishlardan oxirgi jinoyat xatti-harakatni sodir etgan vaqtdan boshlab hisoblanadi. Ikki ta harakatdan tashkil topgan jinoyatlarni sodir etishda jazo muddati o'tishi oxirgi jinoyat harakat sodir etilgan kundan hisoblanadi [7, 385–389-b.]".

Z.S. Zaripov o'z fikrlari orqali aynan muddatlar o'tishi uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarda aybdorning jinoyat harakati to'xtatilgan paytdan, davomli jinoyatlarda oxirgi jinoyat harakat sodir etilgan vaqtdan hisoblanishi jinoyat huquqiy nuqtayi nazardan to'g'ri ekanligini bildirgan.

JKning 64-moddasi 2-qismida "Javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hukm qonuniy kuchga kir-

gan kungacha hisoblanadi”, deya belgilab qo‘yilgan. Mazkur normadagi “jinoiyat sodir etilgan kun” jumlasining huquqiy sharhida olimlar quyidagicha fikr bildiradilar.

T.R. Kuchkarovning fikriga ko‘ra, “jinoiyat sodir etilgan kun deb, jamoat uchun xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sodir etilgan payt hisoblanadi [7, 385–389-b.]”.

Xorijiy olimlardan O. Amarsayxan ham yuqoridagilarga o‘xshash fikr bildirib, uzoqqa cho‘zilgan va davomli jinoyatlarda javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblash muhim ekanligi va shu bilan birga, boshqa jinoyatlarga o‘xshamaydigan jinoyat haqida xabar bermaslik jinoyatini javobgarlikka tortish muddati subyektning amalda HMQO-ga xabar berish imkoniyati bo‘lgan kundan boshlab hisoblanishi lozimligini bildirgan [8, 107–113-b.]

V.D. Borisova ham yuqorida keltirilgan ta‘riflarni qonunchilikda mustahkamlash lozimligini ta‘kidlab, tergov va sud jarayonlarining cho‘zilib ketayotganligi sababli javobgarlikka tortish muddatlarining differensial muddatlarini uzaytirish kerakligini bildirgan [9, 109–115-b.]

Yuqoridagi holatlarda javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblashning mezonlari hamda moddiy zarar o‘rnini qoplash bilan bog‘liq masalalar qonunchilik bilan mustahkamlanishi lozim ekanligini amaliyotchi xodimlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ham tasdiqladi [10].

Shuningdek, amaldagi JKning 64-moddasi 4-qismida, agar og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan shaxs belgilangan muddatlar o‘tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etsa, muddatning o‘tishi uzilishi belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bu borada olimlar qonunning mazkur sharti jinoyat va jinoyat-protsessual qonun vazifalari bajarilmay qolishiga olib kelishini bildirganlar [11, 68-b.]

Bu borada xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida turli xil normalar belgilab qo‘yilgan. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi JKning 78-moddasi 2-qismida shaxs og‘irlik

darajasidan qat‘i nazar, yangi jinoyat sodir etsa, har bir jinoyat uchun muddatlar alohida hisoblanadi [12].

Belarus Respublikasi JKning 83-moddasi uchinchi qismida shaxsning jinoyat toifasidan qat‘i nazar, qasddan yangi jinoyat sodir etishi bilan muddatning o‘tishi uziladi. Bunday holda muddat yangi sodir etilgan kundan boshlab har bir jinoyat uchun alohida-alohida hisoblanishi belgilangan [13].

Ukraina JKning 49-moddasi uchinchi qismida shaxs og‘ir, o‘rta og‘ir yoki o‘ta og‘ir yangi jinoyat sodir etsa, muddat uziladi hamda yangi jinoyat sodir etilgan kundan boshlab muddat hisoblanadi. Bunday holda har bir jinoyat uchun muddat alohida hisoblanadi, ya‘ni bunda faqat shaxs qayta ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etgan taqdirda muddatlar uzilmaydi [14].

Bugungi kunda amaldagi JKga muvofiq, muddatlarning o‘tishi quyidagi holatlarda uzilmaydi: shaxs ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etsa; shaxs og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganidan keyin ehtiyotsizlik orqasidan yangi jinoyat sodir etsa; ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etganidan keyin ehtiyotsizlik orqasidan jinoyat sodir etsa. Bunday holatlarda muddatlarning o‘tishi har bir jinoyat uchun alohida hisoblanadi va bir-biriga ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Bu borada olimlar shaxsning JKda belgilangan muddatlar o‘tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etishi uning ijtimoiy xavfiligi yo‘qolmaganligi va shu tufayli og‘irlik darajasidan qat‘i nazar, JKda belgilangan muddatlar o‘tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etganda, muddatning o‘tishi uzilishi lozimligini qonunchilikka kiritish taklifini ilgari surgan [15, 331–338-b.]

Yuqoridagi nazariy-huquqiy muammolardan tashqari jinoyat ishi yoki tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bo‘yicha qabul qilingan qarorlarda moddiy zararni qoplash bilan

bog'liq munosabatlarning protsessual tartibi hal etilmaganligini kuzatishimiz mumkin.

B. Murodovning fikriga ko'ra, bugungi kunda surishtiruvchi va tergovchilar o'rtasida javobgarlikka tortish muddatlari o'tganligi sababli jinoyat ishlarini tugatishda ayblanuvchi tariqasida jalb etilishi lozim bo'lgan shaxslar aniqlanmagan hollarda, JPKning 367-moddasi 3-qismi va ayblanuvchi aniq bo'lganda, shu bilan birga, javobgarlikka tortish muddati o'tgan hollarda, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 1-bandiga asosan, jinoyat ishlari tugatilayotganligi sababli protsessual qonunchilik talablari buzilayotganligini bildirib, 84-moddaning birinchi qismi 1-bandiga ikkita asosni kiritish lozim, ya'ni: 1) ayblanuvchi sifatida jalb etilgan shaxsning qonunda belgilangan javobgarlikka tortish muddati o'tib ketgan bo'lsa; 2) qonunda belgilangan muddatda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi lozim bo'lgan shaxs aniqlanmagan bo'lsa [11, 64-b.].

B. Murodovning fikrlariga qo'shilgan holda, shuni e'tirof etish lozimki, bugungi kunda amaliyotda tugatilayotgan jinoyat ishlarining asosiy qismi ayblanuvchi tariqasida jalb etilishi lozim bo'lgan shaxsni aniqlanmagan ishlar bo'yicha javobgarlikka tortish muddatlarining o'tib ketganligi asosi bilan tugatilmoqda. Biroq, shu bilan birga, tergovga qadar tekshiruv hujjatlari natijasiga ko'ra va ayblanuvchi shaxsi aniq bo'lgan jinoyat ishlari yuzasidan ish yurituvchi rad etilayotgan va tugatilayotgan hollarda mazkur ish bo'yicha moddiy zararni qoplash bilan bog'liq masalalar qonunchilikda nazarda tutilmaganligi davlat va jamiyat manfaatlariga juda ko'p miqdorda zarar yetkazmoqda. Shu sababli B. Murodovning fikrlariga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, "ayblanuvchi sifatida jalb etilgan shaxsni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish muddati o'tib ketgan bo'lsa" asosiga qo'shimcha ravishda yetkazilgan moddiy zarar o'rni qoplanishi zarurligini mazkur asosni qo'llashning zaruriy sharti sifatida belgilash lozim.

Bugungi kunda firibgarlik jinoyati eng keng tarqalgan jinoyat turlaridan biri hisoblanadi. Birgina 2020-yilda firibgarlikka oid 10 496 ta jinoyat ro'yxatga olingan bo'lsa, 2021-yilda esa 24 554 ta jinoyat qayd etilib, bu ko'rsatkich yillik 133,9 %ga ko'pdir [2].

Firibgarlikka oid arizalarda ko'pincha fuqarolarning o'zaro og'zaki yoki yozma oldi-berdi shartnomasiga oid murojaatlarini uchratish mumkin. Moddiy zararni undirish bilan bog'liq jarayonlar uzoqqa cho'zilganligi sababli ushbu turdagi jinoyatlarda shaxslar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilgungacha bo'lgan davr javobgarlikka tortish muddatlari bilan barobar kechadi, ya'ni ko'p hollarda murojaatchi javobgarlikka tortish muddati o'tganidan so'ng murojaat qiladi.

Afsuski, jinoyat natijasida yetkazilgan zarar o'rni qoplanishi lozimligi borasidagi qoidalar ushbu jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asosida nazarda tutilmaganligi bois jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar o'rni qoplanmasdan turib, ish yuritishni rad etish yoki tugatish haqida qaror qabul qilinadi. Bu esa jinoyat protsessining jabrlanuvchi manfaatlarini inobatga olmagan bo'shlig'idir.

Albatta, O'zbekiston Respublikasi FPKning 38-moddasiga ko'ra, jinoyat ishidan kelib chiqadigan fuqarolik da'vosi, agar jinoyat ishi ko'rilganda, ushbu da'vo arz qilinmagan yoki hal etilmagan bo'lsa, fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida ko'rib chiqish uchun fuqarolik ishlarining sudlovga tegishliligiga doir umumiy qoidalar bo'yicha taqdim etiladi, biroq O'zbekiston Respublikasi JPKning 84-moddasida shaxsning ayblilik masalasi hal etilmasdan tugatilganligi bois jabrlanuvchi va himoya tarafining turli tortishuvlariga sabab bo'ladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2016-yil 27-dekabr-dagi "Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 26-son qarori 8-bandi ikkinchi xatboshisida "Shaxs-

ga nisbatan jinoyat ishi JPK 84-moddasi birinchi qismining 1–8-bandlari, beshinchi qismining 1-, 3-bandlariga muvofiq tugatilgan holda unga nisbatan fuqaroviy da'vo ko'rmay qoldiriladi va manfaatdor shaxslarga ularning fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida da'vo qo'zg'atish huquqi tushuntiriladi", deya belgilanganligi ham yuqorida keltirilgan jabrlanuvchining manfaatlariga zarar yetkazadi.

Bundan tashqari, JPKning 295-moddasidagi Mol-mulk xatlanganligini bekor qilish asoslari normasida "Oqlov hukmi qonuniy kuchga kirganda, jinoyat ishi tugatilganda, shuningdek, fuqaroviy da'vog'ar o'z da'vosidan voz kechganda hamda fuqaroviy da'voni qanoatlantirish yuzasidan ko'rilgan choralarga sabab bo'lgan asoslar bartaraf etilgan boshqa hollarda mol-mulkning xatlanganligi bekor qilinadi", deb belgilab qo'yilganligi amaliyotda mazkur munosabatlarda ba'zi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Jumladan, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud hukmning fuqaroviy da'vo va boshqa mulkiy undirishlarga doir qismining ijrosini ta'minlash uchun fuqaroviy javobgarning mol-mulkini xatlashi shart, biroq jinoyat ishi tugatilgan hollarda, fuqaroviy da'vo yoki moddiy zarar undirilishidan qat'i nazar, mazkur xatlov bekor qilinishi lozim. Xususan, Toshkent shahar IIBB Tergov boshqarmasi ish yurituvda "NAVOI CORPORATION" MChJ ta'sisчисiga nisbatan JKning 228-moddasi bilan 2019-yil 12-aprelda Chilonzor tuman prokuraturasi tomonidan 32/19-1227-sonli jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lib, oradan 3 yil o'tgan bo'lsa-da, haligacha hech qanday yakuniy qaror qabul qilinmagan. Hujjatni soxtalashtirish holatining o'zi 2006-yilda sodir etilgani (16 yil o'tgan) uchun tergovchilar tomonidan jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tib ketganligi asosi bilan jinoyat ishi bir necha bor tugatilgan. Shuningdek, prokuratura organlari tomonidan jinoyat ishini tugatish bo'yicha qaror bekor qilinib, bir necha bor qayta tiklangan.

2021-yil 28-yanvar kuni tergovchi tomonidan JPKning 290-moddasi asos qilinib, kompaniyaga tegishli mol-mulk xatlangan. Biroq "NAVOI CORPORATION" MChJ mol-mulkleri xatlangandan buyon jinoyat ishi ikki marta tugatilgan bo'lsa-da, xatlov haligacha olib tashlanmagan [16].

Yuqoridagi jinoyat ishi bo'yicha quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: *birinchidan*, jinoyat ishini tugatish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa-da, davlat va jamiyat manfaatlariga moddiy zarar yetkazilganligi sababli o'rni qoplanishi lozim bo'lgan mazkur zarar undirilmagan. Undirish vositasi sifatida qo'llanishi lozim bo'lgan normada (JPK 290-m.) esa jinoyat ishini tugatish bilan bog'liq hollarda xatlovni bekor qilish lozimligini belgilovchi norma mavjud (JPK 295-m.)ligi sababli jinoyat ishi bo'yicha moddiy zararni undirishda qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda.

Ikkinchidan, jinoyat ishini tugatish asosi sifatida belgilangan javobgarlikka tortishning muddati o'tganligi asosi bilan parallel ravishda moddiy zarar o'rni qoplanishi lozimligi majburiyati belgilanmaganligi sababli sud-tergov amaliyotida tushunmovchiliklar kelib chiqmoqda.

Uchinchidan, qonunda jinoyat ishini tugatish va qayta boshlash chegarasi belgilanmagan, ya'ni yuqoridagi jinoyat ishi bo'yicha jami 7 marotaba jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan va ushbu qarorlar prokuratura tomonidan bekor qilinib, qo'shimcha tergov uchun yuborilgan. Shuning uchun jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin u abadiy tergov qilinishi mumkin. Bundan faqat fuqarolar va yuridik shaxslar jabr ko'radi, degan xulosaga kelish mumkin.

To'rtinchidan, mazkur jinoyat ishida yuridik shaxsning manfaatlarini himoya qilayotgan tomonning fikriga ko'ra, mol-mulk xatlangani natijasida kompaniya bir yildan beri o'ziga tegishli mol-mulkleri tasarruf etolmayapti. Bu esa kompaniyaga zarar keltirmoqda [16].

2021-yil 20-apreldagi “Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini apellatsiya tartibida ko‘rish amaliyoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 13-sonli qarorida Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etishni nazarda tutuvchi amnistiya aktiga zid ravishda yoki jinoiy javobgarlikka tortish muddati o‘tganidan so‘ng jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan hollarda, hukm, garchi unda mahkum jazodan ozod qilingan bo‘lsa-da, bekor qilinib, ish tugatilishi kerakligi belgilab qo‘yilgan.

Oliy Sud Plenumi qarorining mazkur bandida ham javobgarlikka tortish muddatining o‘tganligi holatida qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari bo‘yicha hatto jazo tayinlanmagan hollarda ham hukm bekor qilinishi va jinoyat ishi tugatilishi lozimligi belgilangan. Shunday bo‘lsa-da, mazkur qarorda moddiy zararni qoplash bilan bog‘liq masalalar ko‘zda tutilmaganligi hamda qarorning ushbu bandi JPK talablariga zid ekanligini anglashimiz mumkin. Jumladan, JPKning 84-moddasi ikkinchi qismida agar ayblanuvchi, sudlanuvchi talab qilsa, ishni yuritish umumiy tartibda davom ettirilishi mumkinligi, bunday hollarda hukm qilish uchun asoslar mavjud bo‘lsa, ayblov hukmi jazo tayinlanmasdan chiqarilishi belgilab qo‘yilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida keltirib o‘tilgan tahlillardan kelib chiqqan holda javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod etishda quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarni ajratish lozim:

birinchidan, qonunchilikda ishtirokchilikda sodir etilgan, uzoqqa cho‘zilgan va davomli jinoyatlar bo‘yicha javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblashning aniq mezonlari belgilab qo‘yilmaganligi amaliyotda ba‘zi mavhumliklarni keltirib chiqarmoqda.

Ikkinchidan, muddatlarning o‘tishi quyidagi holatlarda uzilmaydi: shaxs ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etsa; shaxs og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganidan keyin ehtiyot-

sizlik orqasidan yangi jinoyat sodir etsa; ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etganidan keyin ehtiyotsizlik orqasidan jinoyat sodir etsa. Bunday holatlarda muddatlarning o‘tishi har bir jinoyat uchun alohida hisoblanadi va bir-biriga ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Uchinchidan, muddatlar ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarda JKning 28-moddasida nazarda tutilgan har qanday ishtirokchi jinoyatning obyektiv tomonini bajargan vaqtdan boshlab hisoblanadi. Shuningdek, uzoqqa cho‘zilgan va davomli jinoyatlarda jinoiy javobgarlikka tortish muddati aybdorning yagona qasdi asosida sodir etilgan oxirgi jinoiy harakatning tugashi bilan boshlanishi zarurligini nazarda tutuvchi qoida jinoyat qonunida aniq belgilab qo‘yilishi lozim.

To‘rtinchidan, bugungi kunda amaliyotda tugatilayotgan jinoyat ishlarining asosiy qismi ayblanuvchi tariqasida jalb etilishi lozim bo‘lgan shaxs aniqlanmagan ishlar bo‘yicha javobgarlikka tortish muddatlarining o‘tib ketganligi asosi bilan tugatilayotganligi sababli tergovga qadar tekshiruv hujjatlari natijasiga ko‘ra va ayblanuvchi shaxsi aniq bo‘lgan jinoyat ishlari yuzasidan ish yurituvchi rad etilayotgan va tugatilayotgan hollarda, mazkur ish bo‘yicha moddiy zararni qoplash bilan bog‘liq masalalar qonunchilikda nazarda tutilmagan. Shu bois javobgarlikka tortish muddatlarining o‘tganligi asosini ikki turga bo‘lish va unda moddiy zararni bartaraf etish bo‘yicha aniq majburiyatlar mexanizmlarini belgilash maqsadga muvofiq.

Xulosalar

Yuqoridagi tahlillar bir qancha xulosalarga kelishimizga imkon beradi. Jumladan, moddiy norma sanalgan Jinoyat kodeksiga javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblash asoslari, moddiy zararni bartaraf etish majburiyati, protsessual qoidalarga esa javobgarlikka tortish muddatlarining o‘tganligi asosini ikki turga bo‘lish va unda moddiy zararni bartaraf etish bo‘yicha aniq majburiyatlar mexanizmlarini kiritish lozim.

Tahlil etilganlarga ko'ra, joriy normalarga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi JKning 64-moddasi yettinchi qismiga.

Ushbu moddada nazarda tutilgan mud-datlar mazkur kodeksning 150–157-mod-dalarida, 158-moddasining birinchi qismi-da, 159-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlarida, 160-, 161- va 244²-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan yoki yetkazilgan moddiy zarar o'rnini qoplamagan shaxslarga nisbatan qo'llanmaydi.

Shuningdek, 64-moddani quyidagi sakkiz-inchi qism bilan to'ldirish taklif etiladi: *“Ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarda mazkur kodeksning 28-moddasida nazarda tutilgan har qanday ishtirokchi jinoyatning obyektiv tomonini bajargan vaqtdan boshlab hisoblanadi. Shuningdek, uzoqqa cho'zilgan va davomli jinoyatlarda jinoiy javobgarlikka tortish muddati aybdorning yagona qasdi asosida sodir etilgan oxirgi jinoiy harakatning tugashi bilan boshlanadi”.*

Ilmiy jurnallarda e'lon qilingan bir qator maqolalarimizda JPKning 83-84-moddalari nomlanishi va ushbu normalarning mazkur munosabatlarga oid ijtimoiy masalalarni qamrab olishi bo'yicha muammolarga batafsil to'xtalib o'tganligimiz hamda ularning huquqiy yechimi yuzasidan o'z takliflarimizni berganligimiz bois quyida ish yuritishni istisno qiluvchi holatlarning yagona normada aks etishi nazarda tutilgan [16, 165–173-b.; 17, 132-141-b.; 18, 126-135-b.].

O'zbekiston Respublikasi JPKning 84-moddasi.

84-modda. Jinoyatga oid ishlarni yuritishni rad etish va tugatish asoslari

Jinoyatga oid ishlar quyidagi hollarda rad etilishi yoki tugatilishi lozim, agar:

7) ayblanuvchi sifatida jalb etilgan shaxsning qonunda belgilangan javobgarlikka tortish muddati o'tib ketgan bo'lsa, basharti yetkazilgan moddiy zarar o'rni qoplangan bo'lsa;

8) qonunda belgilangan muddatda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi lozim bo'lgan shaxs aniqlanmagan bo'lsa.

295-modda. Mol-mulk xatlanganligini bekor qilish

Oqlov hukmi qonuniy kuchga kirganda, shuningdek, fuqaroviy da'vogar o'z da'vosidan voz kechganda hamda fuqaroviy da'voni qanoatlantirish yuzasidan ko'rilgan choralarga sabab bo'lgan asoslar bartaraf etilgan boshqa hollarda va jinoyat ishi tugatilganda, basharti ayblanuvchi sifatida jalb etilgan shaxs yetkazilgan moddiy zarar o'rnini qoplagan bo'lsa, mol-mulk xatlanganligi bekor qilinadi. Bunda garov reyestridan mol-mulknini xatlash to'g'risidagi yozuv chiqarib tashlanadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizning har jabhasida bo'lgani kabi jinoiy-huquqiy sohasida ham inson qadri va manfaatlari yo'lida olib borilayotgan islohotlar natijasi, eng avvalo, uning dispozitiv huquqlari misolida namoyon bo'lmoqda. Mazkur islohotlar yo'lini izchillik bilan davom ettirish esa nafaqat davlatimiz, balki xalqimizning ham manfaatlariga mos ravishda huquqiy tartibni saqlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz [Continuing our path to national development with determination, we will take it to a new level]. Deepening democratic reforms, ensuring sustainable development is a guarantee of creating a

decent standard of living for our people. Action of entrepreneurs and businessmen-lecture on the VIII Congress of the Liberal Democratic Party of Uzbekistan. Tashkent, 2017, p. 52.

2. Directory of the Center for Legal Statistics and Operational Reporting Data of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan on the dynamics of crime for 2017–2021.

3. Reference No. 18/2509 dated 21.03.2022 of the Investigative Department of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

4. Reference No. 07/13-4853-150 dated 11.05.2022 of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan.

5. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [The course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. 2nd ed., completed and reworked. Tashkent, 2018, p. 162.

6. Rustamboyev M.H. Jinoyat huquqi [Criminal Law]. General part. Tashkent, 2006, p. 436-443.

7. Mualliflar jamoasi. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General section. Academy of the Ministry of Internal Affairs. Tashkent, 2012, pp. 385–389.

8. Amarsazhan O. Srok davnosti privilecheniya k otvetstvennosti lits, sovershivshix prestupleniya i nekotoryye voprosy yego pravovogo regulirovaniya [The statute of limitations for bringing to justice persons who have committed crimes, some issues of its legal regulation]. *Bulletin of the Siberian Law Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2019, no. 4 (37), pp. 107–113.

9. Borisova V.D. Problemy sroka davnosti ugolovnogogo presledovaniya v usloviyakh sovremennoy pravoprinitel'noy praktiki [Problems of the statute of limitations for criminal prosecution in the context of modern pro-reception practice]. *Bulletin of the Nizhny Novgorod University after N.I. Lobachevsky*, 2017, no. 2, pp. 109–115.

10. Tadqiqot ishi doirasida olib borilgan surishtiruvchi, tergovchi, amaliyotchi va huquqshunoslardan iborat respondentlar jamoasi o'rtasidagi so'rov natijalari [The results of a survey among a team of respondents, consisting of an inquiry officer, investigator, practitioner and lawyers, carried out within the framework of the research work].

11. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish: nazariya va amaliyot [Termination of a criminal case: theory and practice]. Tashkent, 2015, pp. 64, 68.

12. Criminal Code of the Russian Federation. 1996, June, 13, No. 63-FZ, Article 76.

13. Criminal Code of the Republic of Belarus. 1999, September 7, No. 275-Z.

14. Criminal Code of Ukraine. 2001, April 5, No. 2341-III.

15. Malikov S.V. Ischisleniye sroka davnosti osvobozhdeniya ot ugolovnoy otvetstvennosti [Calculation of the limitation period for exemption from criminal liability]. *Actual Problems of Russian Law*, 2009, No. 1, pp. 331–338.

16. Tursunboyev T. Ishlamaydigan qonunlar bilan adolatli jamiyat qurib bo'lmaydi yoxud advokatlarga oson emasligi haqida uzun hikoya [A fair society cannot be built with broken laws, a long story about lawyers having a hard time]. Available at: <https://kun.uz/news/2022/03/26/>

17. Ataniyazov J.K. Problems of legal regulation of circumstances excluding proceedings in the case. *Jurisprudence*, Tashkent, 2022, no. 5, p.165-173. ISSN 2181-1938.

18. Ataniyazov J.K. Problems of exemption of persons from criminal liability due to active repentance in consent. *Review of Law Sciences*, Tashkent, 2022, no. 4, p. 132–141. E-ISSN 2181-1148, ISSN 2181-919X.

19. Ataniyazov J.K. Some aspects of protecting the rights and interests of persons in case of refusal to initiate or terminate a criminal case. *Jurisprudence*, Tashkent, 2023, no. 1, pp. 126–135. DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./HKEW7923

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.3./BPA05545>
UDC: 343.268.3(045)(575.1)

IJTIMOY XAVFLI QILMISH SODIR ETGAN SHAXSGA NISBATAN TIBBIY YO'SINDAGI MAJBURLOV CHORALARI QO'LLANAYOTGAN JINOYAT ISHLARIDA HIMOYACHINING ISHTIROKINI TAKOMILLASHTIRISH

Sayfullayev Bahodir Baxromovich,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi, katta leytenant
ORCID:0000-0002-0108-7860
e-mail:bahodirsayfullayev0001@gmail.com

Annotatsiya. So'nggi yillarda mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini, uning jamiyatdagi qonuniy o'rnini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlarga qaramay, jinoyat-protsessual qonunchiligida tibbiy majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi normalar yetarli darajada tartibga solinmagan. Maqolada aqli noraso yoki ruhiyati vaqtinchalik buzilgan shaxslar tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganda yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganidan so'ng ruhiyati vaqtinchalik buzilgan shaxslarning ishini sudga qadar yuritish bosqichida ularning huquq va erkinliklarini munosib himoya qila oladigan himoyachi bilan ta'minlash va sud-tergov amaliyotida himoyachining ishtiroki bilan bog'liq vujudga kelayotgan ayrim muammoli masalalar atroflicha o'rganilib, ularni yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada keltirib o'tilgan taklif va tavsiyalar kelgusida aqli noraso holatda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanishida ularning huquq va manfaatlari munosib himoya qilinishida hamda himoyachi bilan ta'minlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, himoyachi, himoyachining ishtiroki, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari, aqli norasolik, ruhiy holatning buzilishi, himoyachining huquq va majburiyatlari, himoyachidan voz kechish, huquq va erkinliklarni ta'minlash.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧАСТИЯ ЗАЩИТНИКА В УГОЛОВНЫХ ДЕЛАХ ПО ПРИМЕНЕНИЮ ПРИНУДИТЕЛЬНЫХ МЕР МЕДИЦИНСКОГО ХАРАКТЕРА В ОТНОШЕНИИ ЛИЦА, СОВЕРШИВШЕГО ОБЩЕСТВЕННО ОПАСНОЕ ДЕЯНИЕ

Сайфуллаев Баходир Бахромович,

самостоятельный соискатель Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан, старший лейтенант

Аннотация. Несмотря на масштабные реформы в нашей стране в последние годы, направленные на обеспечение прав и свобод человека, его правового места в обществе, нормы о применении принудительных мер медицинского характера в уголовно-процессуальном законодательстве не получили достаточного урегулирования. При совершении либо после совершения общественно опасного деяния умственно отсталыми или психически больными

лицами предусматривается защитник, способный адекватно защитить их права и свободы в стадии возбуждения дела в отношении временно психически неуравновешенных лиц, поэтому в статье тщательно изучены некоторые проблемные вопросы, возникающие в связи с участием защитника в суде и в практике судебного следствия, и разработаны предложения и рекомендации по их устранению на основе вновь принятой Конституции Республики Узбекистан. Предложения и рекомендации, изложенные в статье, будут способствовать надлежащей защите прав и интересов лиц, совершивших общественно опасные деяния в невменяемом состоянии, в том числе обеспечения защитника и применения к ним в дальнейшем мер принуждения медицинского характера.

Ключевые слова: Конституция, защитник, участие защитника, принудительные меры медицинского характера, умственная отсталость, психическое расстройство, права и обязанности защитника, отказ от защитника, обеспечение прав и свобод.

IMPROVING THE PARTICIPATION OF DEFENCE COUNSEL IN CRIMINAL CASES INVOLVING THE APPLICATION OF COERCIVE MEASURES OF A MEDICAL NATURE TO A PERSON WHO HAS COMMITTED A SOCIALLY DANGEROUS ACT

Sayfullayev Bahodir Bakhromovich,

Independent Researcher at the Public Security University
of the Republic of Uzbekistan, Senior Lieutenant

Abstract. This article can be seen as a meaningful continuation of the reforms that have been implemented in *mamlakatimiz* in recent years, the policy in our country for the protection of human rights and legitimate interests, the position of each person as a person in the country and, in our president's words, the idea of "first man – then state bodies". In article, some proposals and recommendations have been developed in order of the constitution of the republic of Uzbekistan adopted in a new edition to provide a defense counsel who can adequately protect the rights and freedoms of people in cases when a socially dangerous act is committed by mentally retarded or mentally disturbed people or persons whose mental state is temporarily disturbed after committing a socially dangerous act, as well as that, some problematic issues arising in connection with the participation of the defense counsel in the judicial investigation practice were studied in detail. The proposals and recommendations cited in the article will contribute to the appropriate protection of their rights and interests and the provision of a defender in the application of medically enforced measures against persons who committed a socially dangerous act in a state of mental disorder in the future.

Keywords: Constitution, defense counsel, participation of defense counsel, coercive medical measures, mental retardation, mental disorder, rights and obligations of the defense counsel, waiver of the defense counsel, provision of rights and freedoms.

Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda shaxsning huquq va erkinlarini, uning jamiyatdagi munosib o'rnini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, jinoyat-protsessual qonunchilikda shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashda shaxsning huquqlarini himoya qilishga doir munosabatlarning to'liq tartibga solinmaganligi tushunarsiz holatdir.

Bu esa tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanayotgan shaxsga huquqiy yordam berish, uning huquq va erkinliklarini o'z vaqtida himoya qilishni mamlakatimiz qonunlarida aniq ko'rsatib, mustahkamlash zarurati mavjud ekanligini bildiradi.

Jinoyat-protsessual nazariyasida tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanayotgan shaxslar o'z harakatlarining haqiqiy mohiyatini anglash va ularni nazorat qilish

imkoniyatidan mahrum bo'lganligi sababli odatda ularga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilmasligi va ular jinoyat sodir etganlikda ayblanmasligini inobatga olib, bir guruh olimlar bu toifadagi shaxslar himoyaga muhtoj emas degan fikrni ilgari suradilar.

Xususan, V.D. Adamenko "Ayblovsiz himoya bo'lmaydi, ayblovsiz himoyaning ma'nosi mavjud emas", – deb hisoblaydi [1]. Shuningdek, yana bir guruh protsessualistlar agar biror shaxs jinoyat ishida ayblanmasa yoki shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilmasa, himoyachining uni himoya qilishidan ma'no yo'q, degan xulosaga kelishadi [2].

Shu bilan birga, boshqa olimlar, yuqoridagi fikrlarga qarshi chiqib, shaxsga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llangan hollarda himoyachining ishtiroki himoya funksiyasidan emas, balki ruhiy kasallikka chalingan shaxsga huquqiy yordam ko'rsatishga qaratilgan vakillik funksiyasidan kelib chiqadi, degan fikrni ilgari surishadi. N.A. Dryominaning qayd etishicha, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarni qo'llash to'g'risidagi ish yuritilayotgan shaxsning himoyalani huquqi shaxsni asossiz cheklavlardan himoya qilishning haqiqiy vositasi, shu bilan birga, sud tomonidan chiqarilgan qarorning adolatligi bo'yicha zaruriy kafolatdir [3].

Bizningcha, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarni qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxsga jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilaridan kam bo'lmagan tartibda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishi zarur. Shu munosabat bilan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarni qo'llash bo'yicha ish yuritish bilan bog'liq himoya tushunchasini istisno etib bo'lmaydi.

Jinoyat-protsessual qonuni jinoyat protsessida himoya tushunchasi noaniqligidan dalolat beradi. Bir tomondan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 18-moddasi shaxsni uning huquq va erkinliklari cheklanishidan himoya qilishni nazarda tutadi. Boshqa tomondan, ushbu kodeksning 49-moddasida himoyachi tushun-

chasi aniqlanar ekan, belgilangan tartibda gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladigan, ayni paytda ularga jinoyat ishini yuritishda huquqiy yordam beruvchi shaxs ekanligi ko'rsatilgan.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida aqli noraso yoki ruhiyati vaqtinchalik buzilgan shaxslar tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganda yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganidan so'ng ruhiyati vaqtinchalik buzilgan shaxslarning tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida uning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ya'ni himoyachi bilan ta'minlash masalalari qonun va amaliyotda vujudga kelayotgan muammolar taqqoslash metodi bilan o'rganildi.

Ba'zi mualliflarning fikricha, jinoyat subyektlari ro'yxatidan jinoyat qonunida taqiqlangan qilmishni aqli norasolik holatida sodir etgan yoki jinoyat sodir etilganidan keyin ruhiy kasal bo'lib qolgan shaxslarni chiqarish natijasida tibbiy yo'sindagi majburlov choralarni qo'llash bo'yicha himoyachilar gumon qilinuvchilarning (ayblanuvchilarning) himoyachisi bo'lishni to'xtatadi va aslida jinoyat-protsessual munosabatlarning yangi ishtirokchilari – ruhiy kasalligi bo'lgan va sud qarori bilan majburiy davolanishga muhtoj bo'lgan shaxslarning himoyachilariga aylanishadi. [4] Mazkur fikrni qo'llab-quvvatlagan holda shuni alohida qayd etish lozimki, 1996-yil 27-dekabrda 349-I-sonli O'zbekiston Respublikasi "Advokatlar to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga muvofiq, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarni qo'llash bo'yicha ish yurituvda ishtirok etayotganda himoyachilar, ehtimol, jinoyat ishi doirasida vakillik ko'rinishidagi malakali huquqiy yordam ko'rsatadilar.

Ko'rib chiqilayotgan ishlar toifasi bo'yicha dastlabki tergovda ishtirok etayotganda, himoyachining e'tiborini keyinchalik sud tomonidan tekshiriladigan va tibbiy yo'sindagi majburlov choralarni qo'llash to'g'risida qa-

ror qabul qilish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan bir qator muhim holatlarga qaratish lozim.

Ma'lumki, shaxsning aqli norasoligi haqidagi masala sud jarayonida ko'rib chiqiladi. Biroq jinoyat ishi, ya'ni tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yurituvchi bo'yicha dastlabki tergov tugatilayotganda va shaxsga nisbatan majburlov chorasini qo'llash uchun sudga yuborilganida, tergovchi bu harakatni aqli noraso shaxs surunkali ruhiy kasalligi, ruhiy holatining vaqtinchalik buzilishi, aqli zaifligi yoki ruhiyatning boshqa kasallik holati sababli u o'z harakatlarining haqiqiy mohiyati va ijtimoiy xavfini anglay olmagan holatda sodir etganligini, shuningdek, shaxsning ijtimoiy xavfini isbotlashi shart. Jinoyat qonunchiligiga binoan, o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxsning himoyachisi taqiqlangan harakat sodir etilgan paytda tergovchining jinoyat ishini yuritish jarayonida va jinoyat ishini sudga yuborish vaqtida shaxsning ruhiy holati haqidagi pozitsiyasini tanqid qilishga haqli.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari agar shaxsning ruhiy holati buzilishi uning o'ziga yoki boshqa shaxslarga xavf tug'dirsa yoki ularga boshqa jiddiy zarar yetkazishi ehtimoli bilan bog'liq bo'lsa, qo'llanishi mumkin. Bu holat ushbu toifadagi holatlarda isbotlash predmetiga kiradi va jinoyat ishini tergov qilish jarayonida majburiy ravishda aniqlanadi. O'ziga va boshqalarga xavfli bo'lgan harakatlarni yoki boshqa jiddiy zararni qaytarishga qodir bo'lgan shaxsning ruhiy holatidan dalolat beruvchi dalillarni aniqlamaslik, to'g'ridan to'g'ri ko'rsatma tufayli ushbu shaxsga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanishi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 92-moddasida istisno qilinadi. Faqatgina ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanishi mumkin. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari

qo'llashda maqsad mazkur shaxslarni davolash va ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan yangi ijtimoiy xavfli qilmishlarning oldini olishdan iborat. Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini shaxsni davolash maqsadida qo'llanadi. Bunday holatda "ruhiy kasal" shaxs Jinoyat kodeksining 92-moddasida belgilangan harakatlarni sodir etgan bo'lishi lozim. [5] Agar lozim bo'lsa, bunday hollarda davolanish O'zbekiston Respublikasining "Psixiatriya yordami to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan umumiy qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining dastlabki tergovni tamomlashga bag'ishlangan 46-bobiga binoan, agar sodir etilgan qilmishning tabiati va shaxsning ruhiy buzilishi unga yoki boshqa shaxslarga xavf tug'dirmasa yoki ularga boshqa zararni keltirib chiqarishi mumkin bo'lmasa, jinoyat ishi tugatilishi belgilangan. Ma'lumki, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxsning vakili tomonidan dastlabki tergovning asossiz xulosalarini rad etish qonuniy qaror qabul qilinishiga yordam beradi va unga tegishli choralari qonunni nomuvofiq ravishda qo'llashdan saqlaydi.

Bundan tashqari, himoyachi tomonidan shaxsning ruhiy buzilishining mavjudligi, darajasi va tabiati, shuningdek, uning ijtimoiy xavfi bilan bog'liq holatlarning aniqlanishi shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 268-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan protsessual majburlov choralari (psixiatriya shifoxonasiga yotqizish) bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot choralari tayinlashga, shuningdek, ilgari tanlangan choralarni unchalik qattiq bo'lmagan choralarga o'zgartirishga yordam berishi mumkin.

E.V. Suxoverova olib borgan tadqiqotlarda himoyachilar har doim ham dalil predmetining ushbu elementlariga yetarlicha e'tibor bermasligini ko'rsatgan. Ayrim jinoyat ishlarida sud-psixiatriya ekspertizasini ta-

yinlashda tergovchilar tomonidan shaxsning ruhiy holati buzilishi o'ziga yoki boshqa shaxslarga xavf tug'dirishi yoki ularga boshqa jiddiy zarar yetkazishi ehtimoli borligi to'g'risidagi savollar ekspertiza qarorlarida mavjud emasligi aniqlangan. Shunga ko'ra, xulosada psixiatriya ekspertlari ham bu masalaga to'xtalib o'tishmagan, sud esa ushbu shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llagan [2].

Sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlash to'g'risida qaror chiqarilgan paytdan boshlab himoyachining majburiy ishtirok etishi to'g'risidagi qoida amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikdagi yangilikdir. Oldingi tahrirda shaxsning ruhiy kasalligi aniqlangan paytdan boshlab uning ishtiroki nazarda tutilgan edi. Bu iboraning noaniqligi protsessualistlar o'rtasida himoyachining jinoyat ishida ishtirok etishiga ruxsat berish vaqti va qonunning amalda turlicha qo'llanishi haqidagi ko'plab tortishuvlarni keltirib chiqardi.

Sud-psixiatriya ekspertizasining xulosasiga ko'ra, himoya ostidagi shaxs jinoyat sodir etganidan so'ng ruhiy kasal bo'lib qolgan yoki aqli noraso bo'lsa yoxud uning aqli rasoligini istisno etmaydigan, ammo o'zini himoya qilish huquqini mustaqil amalga oshirishda qiyinchilik tug'diradigan ruhiy kamchiliklari bo'lsa, Jinoyat-protsessual kodeksining 571-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan himoyachining ishda ishtirok etishi shart ekanligi haqidagi qoida amal qilishda davom etadi [6]. Keyinchalik sud-psixiatriya ekspertizasi xulosasi asosida shaxs aqli raso va ruhiy sog'lom deb topilsa, ishda himoyachining ishtiroki masalasi umumiy tartibda hal qilinadi [7].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 18¹-moddasida jinoyat sodir etish vaqtida ruhiy holati buzilganligi tufayli o'z harakatlarining (harakatsizligining) ahamiyatini to'liq darajada anglay olmagan yoki ularni boshqara olmagan aqli raso shaxs javobgarlikka tortilishi va aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan

shaxsga nisbatan sud tomonidan jazo bilan birga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlanishi mumkinligi ko'rsatib o'tilganligini inobatga olib, shaxsning ruhiy holati buzilishi uning o'ziga yoki boshqa shaxslarga xavf tug'dirsa yoki ularga boshqa jiddiy zarar yetkazishi ehtimoli bilan bog'liq holatlar jinoyat ishini tergov qilish jarayonida majburiy ravishda aniqlanishi lozim hamda Jinoyat-protsessual kodeksining 571-moddasiga muvofiq, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishni yuritishda sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlash haqida qaror chiqarilgan vaqtdan boshlab himoyachining ishtirokini ta'minlash darkor.

Ruhiy buzilishdan aziyat chekayotganlarga himoyachini majburiy taqdim etish kafolati Jinoyat-protsessual kodeksining bir qator moddalari bilan belgilangan bo'lib, bu uning majburiy bajarilishiga yordam beradi. Jumladan, ushbu kodeksning 571-moddasiga binoan, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishni yuritishda sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlash haqida qaror chiqarilgan vaqtdan boshlab himoyachining ishtirok etishi shart. Bu talab sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlash to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan boshlab Jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasi 1-qismi 8-bandi bilan himoyachining majburiy tartibdagi ishtiroki, shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksining 52-moddasi ikkinchi qismi 1-4-, 8-, 8³-, 8⁴-, va 9-bandlarida nazarda tutilgan hollarda himoyachidan voz kechishga yo'l qo'yilmasligida o'z ifodasini topadi.

Bundan tashqari, yuqorida ko'rsatilgan himoyachining ishtiroki majburiy bo'lgan holatlarning barchasi 1996-yil 20-dekabr-dagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Ple-numining "Himoya huquqini ta'minlovchi qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorida ham umumlashtirib belgilab o'tilgan.

Tadqiqot natijalari

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud

muhokamasida himoyachi ishtiroki majburiyligi ishi ko'rilayotgan shaxslarning o'z huquqlarini o'zlari erkin ravishda amalga oshira olmasliklari, o'zlarining ruhiy kasalliklari sababli o'zini o'zi himoya qilish borasida qo'shimcha kafolatlarga muhtoj bo'lgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishni kuchaytirish maqsadi bilan hamda sud majlisi vaqtida prokurorning qatnashayotganligi bilan asoslantiriladi [8].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 141-moddasida malakali huquqiy yordam olish fuqaroning majburiyati emas, balki huquqi ekanligi qayd etilgan bo'lsa-da, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxsning himoyachini rad etishi e'tiborga olinmasligi zarur. Himoyachining ushbu ishlarda ishtirok etish majburiyati ruhiy kasalliklardan aziyat chekayotgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining zaifligi va davlatning bu huquqlarni ta'minlash majburiyati bilan bog'liq. Mazkur toifadagi ishlarda himoyachining ishtirok etishini ta'minlashdan maqsad nafaqat protsess ishtirokchilarining huquqlarini, balki qonuniylik va raqobatbardoshlik tamoyillarini ta'minlashga olib keladigan jamoat manfaatlarini hisobga olishdir. "Himoyachining vazifasi nafaqat xususiy, balki ommaviy xarakterga ega. Himoyachi o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish orqali sud jarayonining ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarini hal qilishga hissa qo'shadi, ya'ni qonunning to'g'ri qo'llanishini nazorat qiladi" [9].

Ijobiy o'zgarishlarga qaramay, jinoyat-protsessual huquqi normalari qo'shimcha tuzatishni talab qiladi. Shunday qilib, sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qaror har doim ham gumon qilinuvchiga (ayblanuvchiga) e'lon qilinishi mumkin emas, chunki "ayblanuvchi obyektiv ravishda ushbu qarorning haqiqiy va qonuniy tomonini to'g'ri idrok qila olmaganining ruhiy buzilishining tabiati, ruhiy holati va sog'lig'ining ma'lum bir vaqtda ekspertizaning ahamiya-

tini yo'qotish mumkin" [4]. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 571-moddasida himoyachining jinoyat ishiga majburiy kiritilishi "shaxsga qarshi sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlash to'g'risida qaror chiqarilgan paytdan boshlangan" vaqti belgilanadi. Bizning fikrimizcha, oxirgi tartib-tamoyil eng maqbul bo'lgani sabab O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasi birinchi qismi 8-bandini "tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarda, sud-psixiatriyasi ekspertizasi tayinlangan vaqtdan boshlab" degan so'z bilan to'ldirib qo'llash maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Bizning fikrimizcha, O.V. Golovanoning shaxsda ruhiy buzilish holatlari belgilangan, lekin jinoyat ishi umumiy qoidalar yoki tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yuritishning belgilangan qoidalari bo'yicha surishtirilishini oldindan bilish mumkin bo'lmaganda shaxsda ruhiy kasallik mavjudligini ko'rsatuvchi ko'rsatmalar qabul qilingandan boshlab advokatga jinoyat ishida ishtirok etishga ruxsat berish haqidagi nuqtayi nazarlari e'tiborga loyiqdir [10]. Ushbu toifadagi ishlar bo'yicha dastlabki tergovning ilk bosqichidan himoyachining ishtiroki ruhiy kasalliklari bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlaydi. Bundan tashqari, bu Jinoyat-protsessual kodeksining 52-moddasi ikkinchi qismi gumon qilinuvchining (ayblanuvchi) ruhiy kasalligi sabab himoyachiga bo'lgan huquqni mustaqil ravishda amalga oshirish qobiliyatining mavjud emasligi advokatning majburiy ishtirokini nazarda tutadi. Himoyachini jinoyat ishiga jalb qilish uchun asos bo'lib ushbu shaxsning ruhiy kasalliklar shifoxonasida ro'yxatga olinganligi yoki yordam so'rab qilgan murojati to'g'risidagi guvohnoma; u ruhiy kasallik yoki ruhiy nogironligi uchun belgilangan har qanday guruh nogironi ekanligi haqida tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining xulosa-

si; kasalliklari tarixi yoki boshqa ruhiy kasallik bilan og'riqligini yoki uning miyasida organik shikastlanishlar bo'lgani va hokazolarni ko'rsatuvchi boshqa tibbiy hujjatdan ko'chirma xizmat qiladi. Shuni esda tutish lozimki, 1996-yil 14-sentabrda qabul qilingan "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunning 45-moddasi birinchi qismiga binoan fuqaroning tibbiy yordam so'rab qilgan murojaati, uning sog'lig'i va tashxisi to'g'risida ma'lumot, tibbiy ko'rikdan o'tish va davolanish vaqtida olingan boshqa ma'lumotlar tibbiy sirni tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Psixiatriya yordami to'g'risida"gi Qonuni, fuqaroda ruhiy buzilish mavjudligi, bunday yordam ko'rsatadigan muassasada psixiatriya yordamiga murojaat qilish va davolanish faktlari, ruhiy salomatlik holati haqidagi boshqa ma'lumotlar ham qonun bilan himoyalangan tibbiy sirdir. Shuning uchun tibbiy yozuvlarni olib qo'yish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud qarori bilan jinoyat ishi doirasida amalga oshirilishi shart. Kelgusida olib qo'yilgan hujjatlar sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlashda ham qo'llanadi.

Tergov organlari, prokuratura va sud tomonidan ularga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha ishlar olib borilayotgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qasddan va bexosdan buzilishini ushbu toifadagi yuqori malakali himoyachilarning ishda qatnashishi orqali bartaraf etish mumkin. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pincha ushbu toifadagi ishlar da ishtirok etishga taklif qilingan advokatlar o'z vazifalariga rasmiyatchilik kabi munosabatda bo'lishadi va shuning uchun ruhiy kasalliklarga chalingan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buziladi.

Aksariyat holatlarda ruhshunoslar va tergovchilarning shaxsning ruhiy holati chuqurligi va tabiati, uning jamoat xavfi haqidagi xulosalari so'roq ostiga olinmagan. O'z navbatida, shuni esda tutish lozimki, har qanday dalillar, shu jumladan, sud-psixia-

triya ekspertizasining xulosasi oldindan belgilangan kuchga ega emas va jinoyat ishida to'plangan boshqa dalillar bilan birgalikda majburiy baholanadi.

O'z tadqiqotlarida Y.V. Suxoverova "faqat yetarli darajada malakali advokat jismoniy va ruhiy nuqsonli shaxsni himoya qila oladi" deb yozgan [2]. S.P. Sherba davlat ushbu toifadagi ishlarni himoya qilishga ixtisoslashgan katta yuridik maslahat markazlarida yuqori malakali advokatlarni ajratish taklifini bergan [11]. Darhaqiqat, ko'rib chiqilayotgan ishlar bo'yicha nafaqat boy amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan malakali advokatlar ishtiroki, balki ular bo'yicha ixtisoslashgan tergovchilarni ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Uning zaruratini Jinoyat-protsessual kodeksning 61-bobiga muvofiq ish yurituvining o'ziga xosligi va juda murakkabligi bilan bog'lash mumkin. Jinoyat sodir etilganidan keyin ruhiy kasallikka chalingan shaxs keltirishi mumkin bo'lgan maxsus dalillarga qo'shimcha ravishda, himoyachi ruhiy kasallikka chalingan shaxsga o'ziga xos yondashuv topishi lozim.

Malakali huquqiy yordamni amalga oshirish uchun qonun chiqaruvchi himoyachiga Jinoyat-protsessual kodeksning 53-moddasida nazarda tutilgan bir qator vakolatlarni beradi. Biroq biz himoyachining ruhiy kasallikdan aziyat chekayotgan gumonlanuvchini (ayblanuvchini) so'roq qilishda ishtirok etish huquqi emas, balki majburiyati haqida, shuningdek uning ishtirokida o'tkaziladigan boshqa tergov harakatlari haqida gapirishimiz lozim. Ko'rinib turibdiki, ko'rib chiqilayotgan toifadagi holatlarda, ishtirokchi, qonuniy vakil va unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxsning dastlabki tergov tugatilishi va uni sudga yuborish to'g'risida qaror chiqarilishi bo'yicha jinoyat ishi ma'lumotlari bilan umumiy tanishuvi bo'lishi zarur. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha ish yurituvida himoyachining faol ishtirokini ta'minlash

maqsadida K.S. Sefikurbanov tergovchini ayblanuvchilar ishtirokida o'tkaziladigan tergov harakatlarining vaqti va joyini zudlik bilan himoyachini xabardor qilishga majburlashni taklif qiladi [12]. Bu nuqtayi nazar to'g'ri ko'rinadi va bizning fikrimizcha, bu haqda nafaqat ruhiy buzilishdan aziyat chekayotgan shaxs himoyachisini xabardor qilish, shuningdek, shaxs ishtirokida o'tkazilayotgan tergov harakatlarida ishtirokini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Ba'zi mualliflar, dastlabki tergov paytida va jinoyat ishi jarayonining sudgacha bo'lgan bosqichlarida dalillarni shakllantirish jarayonida himoyachining huquqlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydilar [13, 14].

Tadqiqot natijalari tahlili

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ish yuritilayotgan shaxs ishtirokida tergov va boshqa protsessual harakatlarni o'tkazishda himoyachining mavjudligi va faol pozitsiyasi mansabdor shaxslar tomonidan mumkin bo'lgan qonunbuzarliklari va suiiste'mol qilinishi oldini oladi.

